

**ОБРАЗОВАНИЕ,**

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ  
В МИРЕ**

**международный научный электронный журнал**

*Выпуск журнала № 13  
Часть-5\_ Январь 2023*

OPEN  ACCESS



# ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

*международный научный электронный журнал*

ЯНВАРЬ - 2023 год

ЧАСТЬ - 5



## HOZIRGI KUNDA KOMPYUTERNING TEXNIK VA DASTURIY TA'MINOT O'RNI

*G'ijduvon tuman 2- son Kasb-hunar maktabining*

*INFORMATIKA fani o'qituvchisi*

**Rasulova Barchinoy**

*Tel: (91)4175004*

**Annotatsiya:** EHM avlodlarining rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil etish; kompyuterga ulangan barcha qurilmalar haqida ma'lumot olish; kompyuter va mobil qurilmalarning konfiguratsiyasi bilan tanish

**Kalit so'zlar:** EHM, Kompyuter, hisoblash, Mexanik, avlod, texnika, raqam, mashina, dastur, dasturiy ta'minot

Bugungi kunda barcha sohada raqamli texnologiya, xususan, kompyuterdan keng foydalanilmoqda. Kompyuter bugungi kun ko'rinishiga yetib kelgunga qadar qanday bosqichlarni boshidan kechirgan bo'lishi mumkin? Kompyuter inglizcha "hisoblovchi" ma'nosini anglatadi, bugungi kunda nafaqat hisoblash ishlarida, balki turli ko'rinishdagi axborotlarni qayta ishlashda ham keng qo'llanilmoqda. Tarixdan ma'lumki, insonlar hisob ishlarini yengillashtirish maqsadida hisoblash texnikasiga katta ehtiyoj sezgan. Shu ehtiyojlar hamda hisoblash texnikasining takomillashib borishi kompyuter texnikasining yaratilishiga olib kelganbc texnikasi rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?

Mexanik mashinalargacha bo'lgan davrda insonlar hisoblash vositalari sifatida barmoqlardan foydalanishgan. Ikki yoki undan ortiq raqamli sonlar bilan ishlash muammolarini bartaraf etish maqsadida, qadimda sun'iy hisoblash vositalarini yaratish ehtiyoji tug'ilgan. Sun'iy hisoblash vositalarining dastlabki ko'rinishi bu – miloddan avvalgi VI–V asrlarda paydo bo'lgan hisob taxtasidir. Miloddan avvalgi V–IV asrlarga kelib, odamlar qadimgi Yunoniston va Rimda hisob taxtasining takomillashgan ko'rinishi – abaklardan foydalana boshlagan. Yaponlar serobyan, xitoyliklar suan-pan, ruslar esa cho'tlardan foydalanishgan. Mexanik mashinalar davri. Birinchi mexanik mashina 1623-yilda nemis matematigi Vilgelm Shikkard tomonidan yaratilgan bo'lib, u to'rtta matematik amalni bajarishga mo'ljallangan edi.

Bugungi kunda EHM 5-avlodi ustida izlanishlar olib borilmoqda. Yuqoridagi 4 ta avlod yaratilishida asosiy maqsad kompyuterning ishlash prinsipini takomillashtirish, ish tezligini oshirish, xotira hajmini kattalashtirish va qurilma o'lchamlarini ixchamlashtirishga qaratilgan bo'lsa, 5-avlodda asosiy e'tibor kompyuterlarga sun'iy intellektni joriy etishga qaratilmoqda. Birinchi shaxsiy kompyuter 1973-yilda Fransiyada Truong Trong Thi tomonidan ishlab chiqilgan. So'ngra u 1977-yilda amerikalik Stiv Jobs boshchiligidagi "Apple Computer" firmasi

tomonidan takomillashtirildi va unga dasturlarning katta majmui tatbiq etilib, ommaviy ravishda ishlab chiqarila boshlandi. Kompyuterlar ishlash prinsipining takomillashgan ko‘rinishi Jon Fon Neyman tomonidan taklif etilgan. Unga ko‘ra, kompyuter arxitekturasini uch qismdan iborat deb qarash mumkin: 1) markaziy protsessor CPU; 2) saqlash qurilmasi; 3) kiritish va chiqarish qurilmalari

**Dasturiy ta‘minot** yoki **Software** bu Komputerda ma‘lum bir turdagi vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan vositadir. bu hisoblash texnikasi vositalari bilan ma‘lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish va ulardan foydalanish uchun dasturiy va hujjatli vositalarni yig‘indisi tushuniladi.

Aynan shu dasturiy ta‘minotgina kompyuter — „quruq temir“ degan atamani yo‘qqa chiqargan. Dasturiy vositalar Kompyuter tomonidan qo‘llaniladigan barcha dasturlar to‘plamidir. Ingliz tilida bu atama **software** ya‘ni „soft“ — yumshoq, „ware“ — „mahsulot“ degan ma‘noni bildiradi.

Dasturiy ta‘minot 3 guruhga bo‘linadi: 1-Sistema dasturlari (unga turli yordamchi vazifalarni bajaruvchi dasturlar kiradi: Task Manager (Windows OSda mavjut)), 2-Amaliy (unga foydalanuvchiga aniq bir foydalanish sohasida ma‘lumotlarga ishlov berish va qayta ishlashni amalga oshiruvchi dasturlar, masalan : Microsoft Office, Adobe CC), 3-Uskunaviy dasturlar (bular dasturlassdir).

Hisoblash tizimi (kompyuter va tarmoqlar) tarkibi. Hisoblash tizimi tarkibi konfiguratsiya deb ataladi. Odatda hisoblash texnikasining apparat va dasturiy vositalari alohida olib o‘rganiladi. Shuning uchun ham mos ravishda hisoblash tizimlari apparat konfiguratsiyasi va dasturiy konfiguratsiyasi alohida olib o‘rganiladi. Bunday bo‘linish axborot texnologiyalari uchun muhim ahamiyatga egadir, chunki ko‘p xollarda alohida olingan masala echimini ham apparat, ham dastur vositalari yordamida ta‘minlash mumkin. Aparat ta‘minoti. Hisoblash tizimlarining apparat ta‘minoti tarkibiga, apparat konfiguratsiyani tashkil etuvchi qurilma va asboblar kiradi. Zamonaviy kompyuter va hisoblash majmua (kompleks)lari blok-modulli konstruksiya (tuzilish)dan iborat. Ma‘lum ishlarni bajarishga zarur bo‘lgan apparat konfiguratsiyani tayyor blok va qismlardan yig‘ib olish mumkin. Qurilmalarning, markaziy prosessorga (Central Processing UNIT, CPU) nisbatan joylashishiga qarab tashqi va ichki qurilmalarga ajratamiz. Tashqi qurilmalar, qoida bo‘yicha, ma‘lumotlarni kiritish va chiqarish qurilmalaridir, ularni odatda periferik qurilmalar ham deb atalad

Bundan tashqari ma‘lumotlarni uzoq saqlashga mo‘ljallangan qurilmalar ham tashqi qurilmalarga kiradi. Alohida blok va qismlar orasidagi kelishuvchanlik, birgalikda ishlashdagi moslanuvchanlik, apparatli interfeys deb ataluvchi o‘tish apparat-mantiqiy qurilmalari yordamida bajariladi. Hisoblash texnikasidagi apparat interfeysiga belgilangan standartlar protokollar deyiladi. Shunday qilib, protokol – bu qurilma yaratuvchilari tomonidan, bu qurilmaning boshqa qurilmalar bilan muvaffaqiyatli va kelishilgan holda birgalikda ishlashi uchun, ishlab chiqiladigan texnik shartlar

majmuasidir. Dasturiy ta'minot Dastur – buyruqlarning tartiblangan ketma-ketligidir. Kompyuter uchun tuzilgan har dastur vazifasi – apparat vositalarni boshqarishdir. Birinchi qarashda dasturning qurilmalar bilan xech qanday bog'liqligi yo'qdek ko'rinadi, ya'ni masalan, dastur kiritish qurilmalaridan ma'lumot kiritishni va chiqarish qurilmalariga ham ma'lumot chiqarishni talab qilmasa ham, baribir uning ishi kompyuterning apparat qurilmalarini boshqarishga asoslangan. Kompyuterda, dasturiy va apparat ta'minot, doimo uzilmas aloqada va uzluksiz bog'lanishda ishlaydi. Biz bu ikki kategoriyani alohida ko'rib chiqayotganimizga qaramasdan, ular orasida dialektik aloqa mavjudligi va ularni alohida ko'rib chiqish shartli ekanligini sedan chiqarmaslik kerak. Kompyuterlar va hisoblash tizimlarining dasturiy ta'minoti tuzilishini dasturiy konfiguratsiya deb ham ataladi. Dasturlar orasida xuddi kompyuterning fizik qismlari orasidagi kabi o'zaro aloqa mavjud.

Xulosa qilib aytganda Kompyuter tizimi bilan o'zaro muloqatda bo'lish ko'nikmalarini hosil qilishda va amaliy dasturiy ta'minot bilan tanishishda, ishni odatda matn redaktorlaridan boshlashadi. Matn prosessorlari. Matn prosessorlarining redaktorlardan farqi shundaki, ular matnni kirgizib, taxrirlabgina qolmay, balki uni formatlaydi ham. Mos ravishda matn prosessorlari asosiy vositalariga (grafika, jadval) natijaviy xujjatni tashkil etuvchilari – matn, grafika, jadval va boshqa ob'ektlar o'zaro aloqalarini ta'minlash vositalari kiradi, qo'shimchalariga esaformatlashtirish jarayonini avtomatlashtirish vositalari kiradi. Xujjatlar bilan ishlashning zamonaviy uslubi (stilb) ikkita alternativ yondoshishni –qog'ozdagi xujjatlar va elektron xujjatlar (qog'ozsiz texnologiya) bilan ishlashni ko'zda tutadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *"Kompilyator qurilishi"*. Arxivlandi 2013 yil 2-noyabrdagi asl nusxadan.
2. <sup>a b</sup> Evans 2018 yil, p. 21.
3. <sup>a</sup> Fuegi, J .; Frensis, J. (2003). *"Lovelace & Baby va 1843 yilgi yozuvlarning yaratilishi"* (PDF). Hisoblash tarixi yilnomalari. **25** (4): 16–26. doi:10.1109 / MAHC.2003.1253887. S2CID 40077111.
4. <sup>a</sup> "Ada Lovelace Google doodle tomonidan taqdirlandi". Guardian. 2012 yil 10-dekabr. Olingan 25 noyabr 2018.
5. <sup>a</sup> Tukey, Jon Uaylder (1958 yil yanvar). "Beton matematikani o'qitish". *Amerika matematik oyligi*. Teylor va Frensis, Ltd. / Amerika matematik assotsiatsiyasi. **65** (1): 1–9, 2. doi:10.2307/2310294. ISSN 0002-9890. JSTOR 2310294. KODEN AMMYAE. [...] Bugungi kunda puxta rejalashtirilgan sharhlash tartiblari, kompilyatorlar va avtomatlashtirilgan dasturlashning boshqa jihatlaridan iborat "dasturiy ta'minot" zamonaviy elektron kalkulyator uchun hech bo'lmaganda quvurlar, tranzistorlar, simlar, lentalar va shunga o'xshash narsalarning "apparati" kabi muhimdir. . [...]

6. ^ Beebe, Nelson H. F. (2017 yil 22-avgust). "I bob - tamsayi arifmetikasi". Matematik funktsiyalarni hisoblash bo'yicha qo'llanma - MathCW ko'chma dasturiy ta'minot kutubxonasi yordamida dasturlash (1 nashr). Solt Leyk-Siti, UT, AQSh: *Springer International Publishing AG*. 969, 1035-betlar. doi:10.1007/978-3-319-64110-2. ISBN 978-3-319-64109-6. LCCN 2017947446. S2CID 30244721.
7. ^ Shapiro, Fred (2000). "Dasturiy ta'minotning kelib chiqishi: JSTOR elektron jurnal arxividan dalillar" (PDF). *IEEE Hisoblash tarixi yilnomalari*. **22** (2): 69–71. doi:10.1109/mahc.2000.887997. Arxivlandi asl nusxasi (PDF) 2003 yil 5 iyunda. Olingan 25 iyun 2013.
8. ^ Leonhardt, Devid (2000 yil 28-iyul). "Jon Tukey, 85 yosh, statistika; so'zlarni dasturiy ta'minotini ishlab chiqdi". *The New York Times*. Olingan 24 sentyabr 2012.
9. ^ Niquette, R. Pol (2006), *Softword: Word dasturiy ta'minoti*, ISBN 1-58922-233-4, arxivlandi asl nusxasidan 2019 yil 8 avgustda, olingan 18 avgust 2019

## FRANÇAIS

*G'ijduvon tuman 2- son Kasb-hunar maktabining  
FRANSUZ TILI fani o'qituvchisi  
ESHONQULOVA ZILOLA  
Tel: (91)2470434*

**Annotatsiyan** Le français est une langue indo-européenne de la famille des langues romanes dont les locuteurs sont appelés francophones, également surnommé la langue de Molière

**Kalit so'zlar:** français, langue, invasions normandes, Journée de la langue française, Charlemagne, capétiennes, Mouvement

Le français est une langue indo-européenne de la famille des langues romanes dont les locuteurs sont appelés francophones, également surnommé la langue de Molière.

Le français est parlé, en 2023, sur tous les continents par environ 321 millions de personnes<sup>5,2</sup> : 235 millions l'emploient quotidiennement, et 90 millions<sup>3</sup> en sont des locuteurs natifs. En 2018, 80 millions d'élèves et étudiants s'instruisent en français dans le monde<sup>6</sup>. Selon l'Organisation internationale de la francophonie (OIF), il pourrait y avoir 700 millions de francophones sur Terre en 2050<sup>7</sup>.

Le français est la cinquième langue la plus parlée au monde après l'anglais, le mandarin, l'hindi et l'espagnol<sup>8</sup>. Elle est également la deuxième langue la plus apprise sur le globe, la troisième langue des affaires et du commerce, la quatrième langue employée sur Internet<sup>9</sup>.

Dans le monde, 29 États ont le français comme langue officielle. C'est une des six langues officielles ainsi qu'une des deux langues de travail de l'Organisation des Nations unies. Le français est une langue officielle ou de travail de nombreuses organisations gouvernementales internationales, parmi lesquelles l'Union postale universelle ou les trois autorités mondiales de régulation du système métrique. Il est aussi langue officielle ou de travail de nombreuses organisations gouvernementales régionales, telles que l'Union africaine ou l'Union européenne, et est aussi langue officielle ou de travail de nombreuses organisations non gouvernementales internationales, comme le Comité international olympique ou le Mouvement international de la Croix-Rouge et du Croissant-Rouge.

L'histoire du français et des francophones est celle de la rencontre et de l'échange entre de nombreux peuples. Le français est une variété de la langue d'oïl, un groupe de langues romanes parlées originellement dans la partie septentrionale du domaine gallo-roman, sur le territoire des actuelles France, Suisse et Belgique. Les langues gallo-romanes résultent de l'évolution, sous l'influence de langues germaniques, tel que

le vieux-francique des Francs, du latin populaire parlé en Gaule par les Gallo-Romains. Ces derniers formaient un ensemble de peuples d'origines principalement celtes qui furent progressivement romanisés à la suite de la conquête romaine de la région, terminée aux alentours de 52 av. J.-C. En 843, l'historien franc Nithard, petit-fils de Charlemagne, produit ce qui est considéré comme le premier texte connu en langue française. Il s'agit d'une chronique qui retranscrit les serments d'alliance, prononcés à Strasbourg l'année précédente, par Louis le Germanique, premier souverain allemand.

Durant le Moyen Âge européen, en particulier entre le X<sup>e</sup> et le XIII<sup>e</sup> siècle, alors que le système de déclinaisons de l'ancien français s'effondre, les langues d'oïl commencent à se diffuser hors de leur domaine d'origine du fait des invasions normandes des îles Britanniques, du sud de l'Italie ou bien des croisades qui, en établissant des États latins au Levant, font du français une base de la *lingua franca* méditerranéenne. En 1539, par l'ordonnance de Villers-Cotterêts, le moyen français, langue maternelle des dynasties capétiennes, devient une langue juridique et administrative en France. À la même période, il commence à se diffuser plus massivement hors d'Europe, d'abord en Amérique, puis en Afrique, en Asie et en Océanie, sous l'effet de l'expansion des empires coloniaux français puis belge. À partir du dix-septième siècle, dans les océans Atlantique, Indien et Pacifique, les déportations de populations pratiquées par les empires européens vers leurs colonies amènent, dans un contexte principalement d'esclavage, à la formation de nombreux créoles à base lexicale française. En 1794, par le décret révolutionnaire du 2 thermidor an II et malgré le fait qu'il ait été, sous l'Ancien Régime, la langue des cours royales et princières européennes, le français classique, langue des Lumières, devient la seule langue officielle de la Première République française<sup>10</sup>. Une des particularités du français se trouve dans le fait que son développement et sa codification ont été en partie l'œuvre de groupes intellectuels, comme la Pléiade, ou d'institutions, comme l'Académie française. Le français est ainsi souvent considéré comme une langue « académique ». À partir du dix-neuvième siècle, et malgré quelques réformes au cours des siècles suivants, son orthographe codifiée commence à se figer. Elle est considérée comme transparente dans le sens de la lecture, mais opaque dans le sens de l'écriture. Au cours du XX<sup>e</sup> siècle, le français devient une langue d'envergure mondiale en même temps qu'il s'émancipe de l'Europe : à partir de ce siècle le nombre de francophones vivant hors d'Europe dépasse le nombre de locuteurs sur le continent d'origine de la langue.

Entre le 16 mars et le 20 mars 1970 et sous l'impulsion de ceux qui deviendront les « cinq pères fondateurs de la Francophonie » — Léopold Sédar Senghor, poète, écrivain et premier président de la république du Sénégal, Habib Bourguiba, avocat et premier président de la République tunisienne, Hamani Diori, professeur et



premier président de la république du Niger, Norodom Sihanouk, roi du Cambodge et Jean-Marc Léger, écrivain et journaliste canadien — a lieu, dans la salle des séances de l'Assemblée nationale du Niger, la conférence de Niamey. Celle-ci, une des premières conférences réunissant les gouvernements des états francophones, établit l'Agence de coopération culturelle et technique, le premier organisme intergouvernemental francophone, et jette ainsi les bases pour la création d'une Organisation internationale de la francophonie (OIF) qui réunirait les peuples partageant la langue française. En commémoration de cet évènement, les états membres de l'Organisation font en 1988 du 20 mars la Journée internationale de la francophonie. En 1989, ont lieu au Maroc les premiers jeux de la Francophonie qui réunissent pour la première fois les athlètes de la communauté francophone autour de la langue qu'ils partagent. En 1997, à Hanoï, capitale du Viêt nam, les États francophones adoptent la Charte institutionnelle de la Francophonie qui sera complétée en 2005 à Antananarivo, capitale de Madagascar, par la Charte de la Francophonie. Ces deux chartes présentent l'importance du multilinguisme pour le monde francophone, les valeurs de solidarité, d'égalité et de fraternité entre les peuples qui doivent être véhiculées par la langue française, vecteur de progrès et de modernité, ainsi que le rôle actif que doivent exercer les francophones pour la préservation de la diversité linguistique et culturelle. En 2010, l'Organisation des Nations unies déclare que le 20 mars de chaque année sera observée à travers le monde la Journée de la langue française en souvenir de la conférence de Niamey. Les organisations francophones proposent autour de cette date des semaines d'échanges et de discussions souvent appelées semaines de la langue française et de la francophonie. La langue française est un attribut culturel souverain pour de nombreux peuples et États comme en France où depuis 1992 « la langue de la République est le français » ou au Québec où depuis 1977 elle « permet au peuple québécois d'exprimer son identité ». Elle est également le principal véhicule des cultures francophones dans le monde et le moyen principal d'expression de leurs pensées. La langue, parfois surnommée « langue de Molière<sup>11</sup> », ne cesse de s'enrichir que ce soit de façon formelle, par des décrets par exemple, mais aussi de façon informelle. Le français est la deuxième langue parmi les langues étrangères le plus fréquemment enseignées à travers le monde, y compris aux États-Unis<sup>7</sup>. Il est également la quatrième langue la plus utilisée sur internet après l'espagnol, le mandarin et l'anglais<sup>12</sup>, langue dont le vocabulaire a été fortement enrichi par le français. L'édition francophone de Wikipédia est la 5<sup>e</sup> au monde en nombre d'articles et la 3<sup>e</sup> en nombre d'utilisateurs.

### Langues germaniques

- Balli Sh., Obshaya lingvistika i voprosi fransuzskogo yazika, per. s frans., M., 1955; Balli Sh., Fransuzskaya stilistika, per. s frans., M., 1961; Referovskaya Ye. A., Formirovaniye romanskix literaturnix yazikov. Fransuzskiy yazik, L., 1980; Gak V.G., Teoreticheskaya grammatika fransuzskogo yazika, ch. I—II, M., 1986.

## МЕХАНИЗМ ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ПРОВОДИМОСТИ


*Мансурова Гулчехра Алиджоновна, Тургунова Ойгул Валижон кизи,  
Профессиональная школа город Фергана.*

**Аннотация:** В статье описаны механизм электрической проводимости и оптические явления в полупроводниках. Поглощение света полупроводников.

**Ключевые слова:** полупроводник, непрямозонные полупроводники, дырка, электрон.

Вещества, способные проводить или не проводить электрический ток, не ограничиваются строгим разделением только на проводники и диэлектрики. Есть еще полупроводники, такие как: селен, кремний, германий, и другие минералы и сплавы, достойные того, чтобы их выделить в отдельную группу.

Эти вещества проводят электрический ток лучше, чем диэлектрики, но хуже чем металлы, а их удельная проводимость увеличивается с ростом температуры или освещенности. Данная особенность полупроводников делает их применимыми в датчиках освещенности и температуры, но основное их применение — все же электроника. (рис 1)



Если взглянуть, в качестве примера, на кристалл кремния, то можно обнаружить, что кремний обладает валентностью 4, то есть на внешней оболочке его атома есть 4 электрона, которые связаны с четырьмя соседними атомами кремния в кристалле. Если на такой кристалл подействовать теплом или светом, то валентные электроны получают приращение энергии, и покинут свои атомы, превратившись в свободные электроны — в подвергнутом воздействию объеме полупроводника появится электронный газ — как в металлах, то есть возникнет условие для проводимости.

Но в отличие от металлов, полупроводники отличаются электронной и дырочной проводимостью. Почему так происходит и что это такое? Когда валентные электроны покидают свои места, на этих прежних местах образуются области с недостатком отрицательного заряда - «дырки», имеющие теперь избыточный положительный заряд.

В образовавшуюся «дырку» легко перескочит соседний электрон, и как только эта дырка заполнится перескочившим в нее электроном, на месте перескочившего электрона опять же образуется дырка.

То есть получается, что дырка — это положительно заряженная подвижная область полупроводника. И при включении полупроводника в цепь с источником ЭДС, электроны станут двигаться к плюсовой клемме источника, а дырки — к минусовой. Так реализуется проводимость полупроводника собственная.

Движение в полупроводнике дырок и электронов проводимости без приложенного электрического поля будет хаотичным. Если же к кристаллу приложить внешнее электрическое поле, то электроны внутри него придут в движение против поля, а дырки — в движение по полю, то есть в полупроводнике возникнет явление собственной проводимости, которое будет обусловлено не только электронами, но и дырками.

У полупроводника проводимость всегда возникает лишь под влиянием каких-нибудь факторов извне: из-за облучения фотонами, от действия температуры, при наложении электрических полей и т. д.

Уровень Ферми в полупроводнике приходится на середину запрещенной зоны. Для перехода электрона из верхней валентной зоны в нижнюю зону проводимости нужна энергия активации, которая равна ширине запрещенной зоны  $\Delta E$ . И как только появляется электрон в зоне проводимости, тут же в валентной зоне рождается дырка. Таким образом, затраченная энергия делится поровну при образовании пары носителей тока.

Половина энергии (соответствует половине запрещенной зоны) расходуется на переброс электрона, а половина — на образование дырки, в итоге начало отсчета соответствует середине запрещенной зоны. Энергия Ферми в полупроводнике — это та энергия, при которой возбуждаются электроны и дырки. Положение о том, что уровень Ферми расположен для полупроводника в середине запрещенной зоны, может быть подтверждено математическими выкладками, однако здесь математические выкладки опустим.


Под действием внешних факторов, например при возрастающей температуре, тепловые колебания кристаллической решетки полупроводника приводят к разрушению некоторых валентных связей, вследствие чего часть электронов становятся, отщепляясь, свободными носителями заряда.

В полупроводниках наряду с процессом образования дырок и электронов действует процесс рекомбинации: электроны переходят в валентную зону из зоны проводимости, отдавая при этом свою энергию кристаллической решетке и излучая кванты электромагнитного излучения. Так, каждой температуре соответствует равновесная концентрация дырок и электронов, зависящая от температуры согласно следующему выражению:

$$\langle N(E) \rangle \approx e^{-\Delta E / (2kT)}$$


Есть еще примесная проводимость полупроводников, когда в кристалл чистого полупроводника вводят немного другого вещества, которое отличается более высокой или пониженной валентностью, по сравнению с основным веществом.

Если в чистом, скажем, в том же кремнии, количество дырок и свободных электронов равно, то есть они образуются все время парами, то в случае с добавленной в кремний примесью, например мышьяка, обладающего валентностью 5, количество дырок окажется меньше количества свободных электронов, то есть образуется полупроводник с большим количеством свободных электронов, отрицательно заряженных, это будет полупроводник n-типа (negative). А если подмешать индия, который обладает валентностью 3, то есть меньшей, чем у кремния, тогда будет больше дырок — это и будет полупроводник p-типа (positive).



**p-тип Si+In**

**Валентных элеткронов меньше**



**n-тип Si+As**

**Валентных элеткронов больше**

Теперь, если привести полупроводники разной проводимости в соприкосновение, то в месте контакта получим p-n-переход. Электроны, перемещающиеся из n-области и дырки, перемещающиеся из p-области, станут двигаться друг к другу на встречу, и по разные стороны от контакта получатся области, с разноименными зарядами (по разные стороны от p-n-перехода): в n-области скопится положительный заряд, а в p-области — отрицательный. Разные части кристалла по отношению к переходу будут заряжены противоположно. Это положение очень важно для работы всех полупроводниковых приборов.

Простейшим примером такого прибора является полупроводниковый диод, где используется всего один p-n-переход, чего достаточно для достижения поставленной задачи — проводить ток лишь в одном направлении.

Электроны из n-области движутся по направлению к положительному полюсу источника питания, а дырки из p-области — в сторону отрицательного

полюса. Вблизи перехода скопится достаточно положительных и отрицательных зарядов, сопротивление перехода сильно снизится, и по цепи пойдет ток.

В обратном включении диода ток пойдет в десятки тысяч раз меньший, поскольку электроны и дырки просто разнесет электрическим полем в разные стороны от перехода. На этом принципе работает диодный выпрямитель.

### Использованная литература

1. К. А. Турсунметов и др. Физика. Справочник. 2004
2. Физика. Энциклопедия. под. ред. Ю. В. Прохорова.-М.: Большая Российская энциклопедия, 2003.
3. П.С.Киреев. “Физика полупроводников”.
4. Сивухин Д.В. Курс общей физики. 3-т., Электричество. Учебное пособие для студентов физических специальностей высших учебных заведений.

## “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MILLIY TAROVAT

*Ikromov Amriddin Toyirovich,  
Toshkent davlat transport universiteti akademik litseyi  
Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari  
+99 646-32-83*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida yurt mustaqilligi, insonlar taqdiri, ota-ona, farzand, kelin, kundoshning burchlari, vazifalari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, romanda o‘zbek xalqining milliy tarovati namunalari aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** yozuvchi, Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek, O‘zbekoyim, milliy tarovat.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о независимости страны, судьбах людей, обязанностях и ответственности родителей, детей, невесток, супругов в романе Абдуллы Кадири «Ушедшие дни». Также в романе показаны образцы национальной свежести узбекского народа.

**Ключевые слова:** писатель, Отабек, Кумуш, Зайнаб, Юсуфбек, Узбекоим, национальная свежесть.

### ANNOTATION

This article talks about the independence of the country, the fate of people, the duties and responsibilities of parents, children, daughters-in-law, spouses in Abdulla Qadiri's novel "Gone Days". Also, the novel shows examples of the national freshness of the Uzbek people.

**Key words:** writer, Otabek, Kumush, Zainab, Yusufbek, Uzbekoyim, national freshness.

Ko‘p asrli o‘zbek adabiyoti tarixidagi ikki adabiy asrni milliy adabiyotimiz tarixining oltin sahifalari, desak adolatdan bo‘ladi. Agar shu ikki asrning biri buyuk Navoiy nomi bilan munavvar bo‘lgan XV asr bo‘lsa, ikkinchisi Abdulla Qodiriy, Fitrat va Cho‘lponning porloq ijodlari bilan boshlangan o‘zbek adabiyoti tarixining yangi davri — XX asrdir. Shu ikki oltin asrning mash‘allari bo‘lgan bu adiblarning har biri milliy adabiyotimiz tarixidagi mo‘jizaviy voqeadir.

Abdulla Qodiriy asarlari uning benazir poetik tafakkuridan darak beradi. Badiiy tafakkur esa nutq hodisasi bilan bog‘liq, albatta. Har bir millat adibi o‘z milliy tilida

fikr yuritadi, shu milliy tilning lug‘at boyligiga tayanib ijod qiladi. Abdulla Qodiriy yozadi: so‘z so‘zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining o‘zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi bo‘lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir. Bundan boshqa fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so‘z va jummalarga yozuvda aslo o‘rin berilmasligi lozim.

Abdulla Qodiriy dastlabki davrlardayoq adabiy-ijodiy ishga zo‘r mas‘uliyat bilan qaraydi. Shunga ko‘ra badiiy asar yozishda hayot haqiqatini yaqindan turib, puxta o‘rganishga alohida e‘tibor beradi. Ana shu maqsadda ko‘p joylarni yayov kezib chiqadi, turli toifa odamlar hayotini sinchiklab o‘rganadi, tadqiq etadi. Abdulla Qodiriy ijodiy prinsipini: “Men turmushda ko‘rmagan, bilmagan narsam haqida hech narsa yozmayman, har bir asarimning yozilishiga turmushda uchragan biror voqea sababchi bo‘ladi”<sup>1</sup>, – tarzida ifodalagan edi.

Abdulla Qodiriy nomi tilga olinganda bir entikib, hayratlar bilan Otabek va Kumush, Anvar va Ra‘nolar taqdirini esga olmaydigan o‘zbek ziyolisi, adabiyot muhibi topilmasa kerak. Adibning badiiy so‘zida betakror joziba mujassam bo‘lgani bois “O‘tkan kunlar”ni necha topqir o‘qilsa ham, odam to‘ymaydi, zerikmaydi; qayta o‘qishga zarurat sezaveradi. Roman zavq-shavq bilan yutoqib o‘qiladi. Qayta o‘qishda asarning yangidan-yangi qirralari ochilib boradi. Bir o‘qilganda e‘tiborsiz o‘tilgan tasvir va epizodlar boshqa safar diqqatni tortadi. Bu hol, tabiiyki, adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga, voqea-hodisalar bayon usuliga tegishlidir. Zero, adabiyotdek so‘z san‘at uchun badiiy til juda muhim sanaladi; so‘z vositasida obrazlar, manzaralar, tuyg‘ular suvratlantiriladi. Barchaga ayon bu haqiqat badiiy adabiyotning alifbosi.

Adibning ijodi, uning mazmunga boy asarlari yuzasidan taniqli ijodkorlarimiz o‘zlarining iliq fikrlarini aytib o‘tgan. Jumladan, adabiyotimizning ulkan jonkuyari akademik Izzat Sultonov: “Abdulla Qodiriyning asarlari badiiy mahorat namunasi. Bu asarlarda asosiy g‘oya doimo yaqqol ifoda qilinadi, odamlar va ularning hayot sharoiti xuddi “ko‘z oldimizda turgandek” tasvir etiladi, bu asarlarning syujeti doimo qiziqarli, tili boy va shirali. Bu asarlarning xalqqa manzur bo‘lgani bejiz emas”, - deb yozgan bo‘lsalar, Akademik Oybek esa adib mahoratini: “Abdulla Qodiriyning prozasi birinchi navbatda hayotiyli bilan ajralib turadi. Qodiriyning tilidan uning xalqning boy va ajoyib tilini g‘oyatda yaxshi bilganligi yaqqol seziladi; uning romanlari ana shunday go‘zal til bilan yozilgan. U tug‘ma epik yozuvchi, keng ko‘lamdagi master, yuksak ma‘nodagi realistik san‘atkor edi”<sup>2</sup>, - tarzida yuksak baholagan.

Abdulla Qodiriy o‘z davrining ilg‘or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri xususida qayg‘urdi. Zamon taloto‘plari adib qalbini iztirobga soldi. “O‘tkan kunlar”

<sup>1</sup> S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. T.: Yangi asar avlodi, 2005. 138-b

<sup>2</sup> S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. T.: Yangi asar avlodi, 2005. 136-b



romani orqali xalqning milliy ongini uygʻotmoqchi, “tariximizning eng kir, qora kunlari” — yurtni mustamlaka balosiga yoʻliqtirgan keyingi noahil “xon zamonlari”dan soʻz ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi boʻldi.

Romanning maʼno-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hoji shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yoʻliga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar sanaladi.

“Oʻtkan kunlar” romani bamisoli ulkan va tiniq koʻzgu, unda oʻzbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy-maʼnaviy dunyosi, boʻy-basti, qiyofasi keng koʻlamda aniq-ravshan tasvirlanadi.

“Oʻtkan kunlar”ni yozar ekanman, deydi Abdulla Qodiriy, doimo koʻz oʻngimda kitobxon ommamiz turar edi. Men bu kitobim bilan xalqimiz ragʻbatini bir oz boʻlsa ham yangilikka tortay, der edim... Modomiki, asar saviyasi oʻzimizga maʼlum shu xalq uchun yozilar ekan, yana bir muncha vaqt “soʻnggi priyom”lardan koʻz yumib turish, oraliqda soʻnggi priyomni oz-oz qistira borish lozimdir. Na uchunkim, soʻnggi priyomda yozilgan sheʼr va nasrlarimiz bir tabaqagagina xos boʻlib qola bergani daʼvomizga dalildir.

Romandagi Otabek va Kumushbibi oʻrtasidagi muhabbat qissasi roman syujetining asosini tashkil etadi. Biroq yozuvchi bu ishqi sarguzashtni tasvirlash bilan kifoyalaniq qolmaydi. Balki bu ikki yoshning sevgisini tasvirlash fonida oʻsha davr mamlakat hayotining tavsifnomasini yaratadi.

Romandagi uchlik — oshiq, maʼshuqa va agʻyor, bir qarashda, anʼanaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqi kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zoʻr mahorat bilan koʻrsatiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebaho” — ishq-muhabbat tuygʻusiga doir inja tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi. Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojaviy sahnalar kishini chuqur oʻyga toldiradi. Muallif oshiqning ishqi sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni — Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini koʻz oldimizda gavalantiradi. Ayni damda oʻlkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va oʻzaro ichki nizolardir, degan fikrni gʻoyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi.<sup>3</sup>

“Oʻtkan kunlar” romanining yana bir muhim fazilati shundaki, asarda milliy tarovat ufarib turadi. Bu xususiyat obrazlarning ichki va tashqi qiyofasida ham, peyzaj va syujet tasvirida ham yaqqol koʻrinadi. Romanda ifodalangan milliy tarovat asar taʼsirliligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kitobxonga xalqimizning urf-

<sup>3</sup> Jahon adabiyoti jurnali. 2013.

odatlari, rasm-rusumlari, mehmon kutish, sovchi yuborish, to‘y qilish, qiz uzatish, kelish tushirish kabi marosimlariga oid juda ko‘p qiziqarli ma‘lumotlar beradi.<sup>4</sup>

Abdulla Qodiriy romanda o‘zbekning sokin oilaviy hayot tarzini ham, kundosh kelinlar orasidagi o‘zaro nizolar va ularning yechimini ham juda ishonarli, bag‘oyat mahorat bilan tasvirlaydi. Romandagi tasvirlarga ko‘ra, Yusufbek hoji agar ikki kelin o‘rtasida “so‘z chiqqanini goho eshitsa, ikkala kelinni o‘z oldiga chaqirib” nasihat qiladi. “Avvalo Kumushdan o‘pka qilib: “Oyim, har nima siz kattasiz, Zaynab yosh, kattadan kichikka shafqat lozim, mundog‘ yaxshi emas!” degan gaplarni aytadi. So‘ngra Zaynabga nasihatlar berib, “keyin ikkisini duo qilib, bir-biriga salom” berdiradi. Qaynona-kelin munosabatlari ham Yusufbek hojidek dono-donishmand oila rahbari nazaridan chetda qolmaydi. Romandagi juda tabiiy obrazlardan biri bo‘lgan O‘zbek oyim bilan Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor bilan Oftob oyim munosabatlari ham butun salobati bilan kitobxon tasavvuriga muhrlanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbeklar turmushini, tarixini, tilini, urf-odatlarini yaxshi bilgan Abdulla Qodiriy ulardan o‘z asarlarida juda unumli va o‘rinli foydalandi. Adibdan qolgan muhtasham adabiy merosda o‘zbek adabiy tilining go‘zalligi, nafosati, tasvir va ifoda imkoniyatlari aynan amaliyotda o‘z aksini topdi. Kelajak-avlodga “O‘tkan kunlar”dek mazmun va ma‘noga boy asarlarni ularning qalbi-yu, ongiga singdira olsak, alardin ota-onaga tik qaramaydigan, do‘q-po‘pisa qilmaydigan Otabeklar, odob-axloqda barchaga namuna bo‘ladigan Kumushlar voyaga yetadi.

---

<sup>4</sup> S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. T.: Yangi asar avlodi, 2005. 149-b

## KONSTRUKTIV ELEMENTLARNING ESKIRGANLIK DARAJASINI BAHOLASH.

*Davlatov Diyor Dilshodovich*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 1-kurs talabasi*

*Qurbonov Feruzbek Abdulla o'g'li*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Barcha binolar vaqt o'tishi bilan tamir talab ahvolga kelib qoladi. Konstruktiv elementlarni eskirganlik darajasini bilish juda muhim. Shunga ko'ra ularga mablag' ajratiladi va rekonstruksiya ishlari olib boriladi. Maqolaning asosiy mazmuni qurilishda binolarning eskirganlik darajasini o'rganish va baholashdan iborat.

**Kalit so'z:** Konstruksiya, baholash, daraja, beton, temir.

Bino va inshootlarning tekshiralayotgan qurilish konstruksiyalari ko'rinishi, tavsifi, yuk ko'tarish qobiliyatiga bo'lgan ta'sir darajasiga ko'ra turli-tuman, nuqsonlarga va shikastlanishlarga ega bo'lishlari mumkin. Bu omillarni baholash uchun tekshiralayotgan konstruksiyani aniqlangan tavsifi deformatsiya va nuqsonlari bo'yicha tizimga tushirish va bu ma'lumotlarni ro'yxatga kiritish yo'li bilan turkumlash maqsadga muvofiqdir. Qurilish konstruksiyalari elementlarining shikastlanishini tahlil qilib va boshqa me'yoriy chekinishlarga ko'ra ularni kuchaytirish bo'yicha birinchi navbatdagi tadbirlar aniqlanadi. Qurilish konstruksiyalarining ayrim turlari (temirbeton, po'lat, toshli va boshqa) o'zlarigagina xos bo'lgan nuqson va shikastlanishlarga ega bo'lishlari mumkin, shunga ko'ra umumiy tekshirish va tashxis qo'yish usullari ham alohida xususiyatga ega bo'ladi. Rekonstruksiya qilinishi zarur bo'lgan bino va inshootlarni tekshirishda zamin va poydevorlarning yuk ko'tarish qobiliyati o'rnatilishi kerak. Tekshirish bo'yicha ishlar qurilish maydonining injenerlik-geologik va gidrogeologik tadqiqoti, zamin gruntini injenerlik-geologik tekshirish va poydevorlar holatini injenerlik tekshiruvidan o'tkazishni ko'zda tutadi. Zaminni tekshirish QMQ 2-02.01-98 asosida bajarilishi shart. Zamin va poydevorlar gruntini injenerlik-geologik tekshiruvini ishchi chizmalar bo'lmagan holda, hamda zaminda notekis cho'kish sababli bino va inshootning yer usti konstruksiyalarida deformatsiyalar topilganda o'tkaziladi. Bu tekshiruvlarni soni va joylanish o'rni har bir muayyan holda aniqlanadigan ochiq shurflar yordamida amalga oshiriladi. Bir-ikki shurflar har bir turdagi konstruksiya yonida ko'proq yuklangan va yuklanmagan qismlarda, tashqi va ichki devorlar yonida ustun, qurilma osti poydevorlari yonida amalga oshiriladi. Shurflarni albatta deformatsiyalangan konstruksiyalar yonidan

hamda binolarga loyihalashtirilgan qo'shimcha binolarga ustqurma ajratilgan uchastkalarda va yuklari sezilarli oshirilishi ko'zda tutilgan joylarda ochiladi. Shurflarning chuqurligi odatda poydevor ostidan kamida 0.5-1 m pastroq olinadi. Poydevorning turi va konstruksiyasi, o'lchamlari va joylanish chuqurligi, gidroizolyatsiyaning borligi va turi aniqlangandan keyin ma'lum usullar yordamida uning materiallini fizik-mexanik va fizik-ximiyaviy tavsiflari o'rnatiladi. Bunda nuqsonlar, shikastlanishlar va loyihadan chekinishlar aniqlanadi. Qoziqli (svayli) poydevorlarni tekshirishda ularning diametrlari, soni va chuqurligi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarni shurf ochish yoki geofizik usullar bilan aniqlash mumkin. Laboratoriya sinovlarini buzilgan va buzilmagan tizimli gruntlarning fizik-mexanik tavsiflarini: nisbiy og'irligi, zichligi, namligi, gruntning kesishga qarshiligini, siqiluvchanlikni, o'tiruvchanlik koeffitsientini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Eksploatatsiya qilinayotgan binolarning zaminini tekshirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, gruntning turi va uning namligiga lo'ra zaminni shibbalash hisobiga gruntning me'yoriy qarshiligi 25% gacha oshadi: zamin va poydevorlarni tekshiruv natijalarini tahlil etishda QMQ 2.02.01-98 „Bino va inshootlarning zaminlari“ QMQ 3.02.01-96 „ Zamin va poydevorlar „ QMQ 2.02.03-97 „Qoziqli poydevorlar“ ko'rsatmalariga asoslanish lozim. Toshli va armaturalangan toshli konstruksiyalarni tekshirishda me'yoriy talablardan va loyihaviy yechimlardan tavsifiy chekinishlarni ko'z yordamida va maxsus asboblardan aniqlanadi, Bunda konstruktiv elementlarning haqiqiy o'lchamlari, devorlarning o'zaro orayopma konstruksiyalari hamda karkas elementlari bilan birikuv tavsifi, toshli va armaturalangan toshli konstruksiyalarning xususiy tekisligida va unga parallel tekislikdagi deformatsiya kattaligi, plitalar balka va peremichkalarning tayanish bo'yicha talab qilingan sharoitlari, po'lat armatura va quyilma detallarining holati, korroziyadan zararlanish darajasi aniqlanadi.

Yoriqlar, darzlar va shu kabi buzilishlarning o'lchamlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash lozim. Nuqsonlarni kelib chiqishi mumkin bo'lgan sabablardan quyidagilarni ajratish mumkin: mexanik, dinamik, korroziya, temperatura, namlik ta'siri hamda zamin notekis deformatsiyasi bilan bog'liq nuqsonlar. Oxirgi nuqsonlar devorlarning qo'shni uchastkalardagi yuklanish darajasining turlicha ekanligidan (masalan: ko'ndalang, o'z-o'zini ko'taruvchi va bo'ylama yuk ko'taruvchi) hamda qo'shni uchastkalardagi geologik sharoitining farqidan, poydevor ostidagi gruntni yer osti suvlarining yoki avariya oqavalarini yuvib ketishidan, cho'kuvchan gruntni namlanishidan kelib chiqishi mumkin.

Tekshirish vaqtida darzlarning vaqt mobaynida o'sishini aniqlash maqsadga muvofiq. Shunday maqsad bilan darzlarga nishon o'rnatiladi. Yuk ko'taruvchi toshli konstruksiyalarda aniqlangan darzlarni termaning yuk ostida siqilishiga ishlashi nuqtayi nazaridan baholash kerak. Lekin termani olib borishda texnologiyani buzilishi

natijasida, masalan: qish vaqtida hamda kirishish deformatsiyalari oqibatida darz paydo bo'lishi imkoni ham mavjud. G'isht va tosh namunalari butun va darzsiz bo'lishi kerak. Noto'g'ri shakldagi toshdan qirralari 40 dan 200 mm gacha bo'lgan kublar qirqib olinadi, yoki diametri 40 dan 150 mm gacha keri burg'ulab olinadi. Qorishmalarni sinash uchun gips qorishmasi bila yelimgan 2 qorishma plastinadan tuzilgan o'lchamlari 20 dan 40 mm gacha kubiklar tayyorlanadi. Namunalari standart laboratoriya qurilmasidan foydalanib siqilishga sinaladi. G'isht yoki tosh termasidan sinash uchun namunalari olingan uchastkalar mustahkamlikni ta'minlash uchun butunlay qayta tiklangan bo'lishi lozim. Bu tekshiruvlarni QMQ 2.03.07-98 „Tosh va armaturalangan tosh konstruksiyalar“ hamda „Binolarning tosh konstruksiyalarini kuchaytirish bo'yicha tavsiflar“ning talablarini hisobga olgan holda bajarilishi lozim.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak binoning har qanday konstruktiv elementini eskirganlik darajasini baholashning o'zining qoidalari bor. Uylarni modernizatsiya qilish yaroqsiz holatga kelgan binolar uchun juda muhim hisoblanadi. Binolarni qaysi yilda qurilgan va qay ahvoldaligiga qarab modernizatsiya qilish ishlari olib boriladi. Agar bino butunlay yaroqsiz ahvolga kelib qolgan bo'lsa, uni buzib uning o'rniga yangi binoni loyihalash maslahat beriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.M.Vaxitov, Sh.R.Mirzaev Me'morchilik 1,2,3, qismlar. Toshkent, "Tafakkur", 2010
2. Зингир Б.И Встроенное оборудования для жилых зданий М.Строиздат
3. Nozilov D. Markaziy Osiyo me'morchiligida intryer T., 2005
4. Penny Drue Baird, The New French Interior. Monacelli Press, 2011
5. Miralimov M.M "Turar-joy va jamoat binolarining loyihalash asoslari". O'quv qo'llanma. Toshkent. 2010 y.

## BINOLARNING ORAYOPMALARI VA ULARNING KONSTRUKTIV YECHIMLARI.

*Davlatov Diyor Dilshodovich*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 1-kurs talabasi*

*Toshboyeva Hurshida Farhod qizi*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Binolarning orayopmalari binoning tom qismi og'irligini devorga va poydevorga taqsimlovchi qism desak ham bo'ladi. Ko'p qavatli binolarda esa qavatlararo to'siq ya'ni qavatlarni bir-biridan ajratib turuvchi qismi hisoblanadi. Orayopmalar qishloq uylarida yoki shaharlardagi ko'p qavatli uylarda turli xil foydalaniladi. Maqolaning asosiy mazmuni binolarning orayopmalari haqida umumiy ma'lumot berishdan iborat.

**Kalit so'z:** Arxitektura, tomyopma, orayopma, plita, beton, konstruksiya.

Orayopmalar - gorizontal yo'nalishdagi yuk ko'taruvchi va qavatlar orasida to'suvchi konstruksiya bo'lib, binoni qavatlariga ajratib turadi. Binodai joylashuviga ko'ra orayopmalar: sokoldagi, yerto'ladagi, qavatlararo, chordoqdagi orayopmaga bo'linadi. Hammaga ma'lumki, bino qurilishi boshlanibdiki uning ustini yopish muammosi bo'lgan va bu muammoni albatta o'sha vaqtning shart-sharoitidan kelib chiqqan holda hal qilib kelingan. Tarixda binolarning shiftlari va tomlari asosan tabiiy ashyolardan tosh, yog'och, qamish va loy; palma yog'ochlari, barglari va boshqalar bilan yopilgan. Vaqt o'tgan sari, ya'ni XVII-XVIII asrlardan boshlab qurilayotgan binolar murakkablashib, uning qavatlari ko'payib ketganligi munosabati bilan orayopma va tomlarning ashyolari ham o'zgardi. Hozirda esa asosan temir va temir-beton ashyolar ishlatilmoqda. Hozirgi vaqtda qavatlararo va boshqa turdagi orayopmalarga ham asosan temir-beton plitalaridan foydalanilmoqda.

Orayopmalar mustahkam va bikir bo'lishi kerak. Bunda orayopmaning solqilligi oraliqning 1/250 qismidan katta bo'lmasligi lozim. Bundan tashqari orayopmalar minimal qurilish balandligiga, issiqlik va tovush himoyasi kabi xususiyatlariga ega bo'lishi kerak. Konstruktiv yechimiga ko'ra: to'sinli va plitali bo'ladi. Kam qavatli bino qurilishida yog'och qavatlararo orayopmalar ishlatiladi. Bu kabi orayopmalar oddiy va arzon hisoblanadi, ammo yonuvchan, chirishga moyil va unchalik mustahka emas. Orayopmalar – yuk ko'taruvchi yog'och to'sin, to'sin oralig'i to'ldirgichlardan, pol konstruksiyasi va ship pardozlash qatlamidan tashkil topadi. To'sinlar kesimi to'g'ri burchak shaklidagi g'o'ladan iborat bo'lib, qalinligi: 180, 150, 180 va 200 mm eni: 75 va 100 mm ga teng. Yog'och to'sinlar oralig'i 600-1000 mm bo'ladi. To'sinni

120-180 mm ga devorga kiritish maqsadga muvofiq. Ichki devorga ilingan to'silar orasidagi tirqish yong'inga qarshi va tovush o'tkazmaydigan bo'lishi uchun qorishma bilan to'ldiriladi. Bikirlik va ustivorlikni oshirish maqsadida to'sin uchlari tashqi ko'taruvchi devorga ankerlar yordamida mahkamlanadi. Bunday po'lat anker bir uchi bilan to'singa mahkamlanib, ikkinchi uchi esa devorni terishda g'isht orasida qoldirib yuborladi. Yog'och qavatlararo orayopma ustidan o'rnatilgan pol konstruksiyasi oraliqlari 600-700 mm bo'lib, to'singa ko'ndalang yotqiziladi va ularga randalab tekislangan shpuntli taxtalardan to'shama mixlar yordamida qotiriladi. Xorijiy davlatlarda yog'och to'sinli orayopmalar keng qo'llaniladi. Temir beton orayopmalar yog'och orayopmalarga nisbatan mustahkam va chidamli bo'lganligi sabab keng ko'lamda qo'llaniladi. Ular yaxlit, yig'ma va yig'ma yaxlit bo'ladi. Yaxlit orayopmalar yordamchi va bosh to'sin hamda plitalardan tashkil topadi. Orayopmaning barcha elementlari o'zaro yaxlit (monolit) birikkan bo'lib, ko'pincha B15-30 sinfli betondan ishlanadi. Qovurg'ali yaxlit orayopmaning mohiyati shundan iboratki, bunda tejamkorlik maqsadida cho'zilish zonasidagi betonning anchagina qismi olib tashlanib, bu yerda faqat qovurg'a va cho'ziluvchan armatura qoldiriladi. Qovurg'aning tokchasi plita deb ataliab, yordamchi to'sinlarga esa o'z navbatida ustun yoki devorga tayanadi. Bosh to'sinlar bino uzunligi bo'ylab yoki unga ko'ndalang ravishda joylashishi mumkin. Yig'ma temir beton qovurg'ali orayopma plitalar yaxlit qovurg'ali orayopmalarga nisbatan ancha tejamlidir. Bunda xona ustiga mos tushadigan yaxlit orayopma plitalar eng samarali hisoblanadi. To'sinli temir beton orayopma plitalari bir yo'nalish bo'yicha bir-biridan 300-1000 mm masofada joylashtiriladi. Temir beton to'sinlar orasiga gips-beton yoki yengil betondan ishlangan plitalar joylashtiriladi. Monolit qism devor yaqiniga emas, plitalar oralig'iga yassi KR-1 karkasini yasash va sement-qum yoki beton bilan to'ldirish yo'li bilan tashkil etiladi. Shuningdek, orayopma plitasining ustiga si to'r bilan armaturalanib beton qorishmasi bilan to'ldiriladi. Shunday qilib, bino turg'unligini oshiruvchi va yetarlicha bikirlikka ega bo'lgan gorizonta disk hosil bo'ladi. Fuqaro binolari qurilishida to'sinsiz yaxlit temir-beton ora yopmalar keng qo'llaniladi. Bunda to'sinsiz yaxlit temir-beton ora yopmalar qalinligi 150-200 mm bo'lgan plitadan iborat bo'lib, ushbu plita to'g'ridan-to'g'ri usti kengaytirilgan ustunga tayangan bo'ladi. Bu kabi binolar ustunlarining to'ri odatda 6 metrni tashkil etadi. Ustun ko'ndalang kesimi kvadrat shaklga ega bo'lib, ushbu usti kengaytirilgan ustun kapiteley deb ataladi. Qavatlararo ora yopmalar tovush o'tkazmaydigan bo'lishi kerak. Shuning uchun ularda tovush izolatsiyasiga ega bo'lgan ko'p qatlamli konstruksiyalar ishlatiladi va asosiy konstruksiyalari tovush chiqarmaydigan yumshoq prokladkalar ustiga qo'yilgan bo'ladi. Bundan tashqari, qavatlararo ora yopmalari bino klassiga mos keladigan o'tga chidamlilik xususiyatlariga ega bo'lishi ham lozim. Ma'lum bir vazifaga mo'ljallangan xona orayopmalari suv o'tkazmaslik (sanitariya-texnika

kabinasi, hammom, kir yuvish xonasi yopmalari), yonmaslik (yong'in xavfi bor xonalarda), havo o'tkazmaslik (pastki qavatlarida laboratoriyalar joylashgan binolar, bug'xonalar va boshqalar) talablariga javob berish kerak. Qavatlararo yopma binoning qaysi joyida joylashishidan qat'iy nazar, o'rnatilishida industrial bo'lishi va shu bilan birga uning konstruktiv yechimi iqtisodiy jixatdan tejamli bo'lishi kerak. Qavatlararo orayopmlar konstruktiv yechimiga ko'ra xarili yoki xarisiz bo'lishi mumkin. Xarili orayopmalari asosiy ko'taruvchi element xari hisoblanib, unga qator yotqizilgan taxta, taxta to'shama va boshqa yopma elementlari o'rnashtiriladi. Bulardan tashqari, plitali orayopmalari ham bo'lib, ko'taruvchi plita yoki to'shamalar binoning vertikal tayanchlariga tutashtirilgan rigel yoki to'singa qo'yilgan bo'ladi.

**Xulosa.** Orayopmalar binoning qavatlariga qarab har xil bo'lishi mumkin. Asosan qishloq uylarida loy va somon aralashmasi orqali to'ldiriladi. Shaharlarda ko'p qavatli turar-joy binolarida plitalar yordamida yoki quyma monolit shaklda bo'ladi. Zilzila tez-tez sodir bo'ladigan joylarda esa albatta plitalardan foydalangan maqul. Orayopmalar binoning asosiy konstruktiv elementlaridan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

Devor mayda elementlardan tashkil topgan binolarda qavatlararo yopma yoki tom yopmasi konstruksiyalarini ko'taruvchi ichki, alohida tayanchlar g'isht yoki toshdan, temir-betondan, metall dan va asbovementdan bajariladi. Bunday vertikal tayanchlar g'ishtdan terilgan bolsa, ulaming ko'ndalang kesim yuzasi unga tushadigan yuk miqdoriga, tayanchlar oralig'iga, binoning qavatlari soniga va umumiy konstruktiv yechimga bog'liq bo'ladi. Ko'taruvchi g'isht ustunning minimal ko'ndalang kesimi 510x380 mm ga teng bo'ladi. Bunda g'ishtlar sifatli bo'lishi bilan bir qatorda uning markasi 100 dan, terishda ishlatiladigan qorishma markasi esa 50 dan kam bo'lmasligi kerak. G'ishtli ustunlarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish maqsadida diametri 5—6 mm bo'lgan po'lat simlardan katakchalari 100—150 mm bolgan to'rlar yasilib, har 2—4 qator g'ishtdan so'ng qo'yib boriladi. Ko'p hollarda g'ishtli ustunning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish maqsadida ustun qirralari burchaklik yoki tasmani po'lat lentani payvandlash yordamida hosil qilingan karkaslar orasiga olinib, ustidan metall to'r qoplanadi va suvoq qilinadi. Agar ustunga tushadigan yuk katta boisa, u holda g'ishtli ustunlar o'rniga temir-beton ustunlar ishlatilib, ular to'sin bilan birgalikda bino karkasini hosil qiladi. Ustunlar kesimi to'g'ri turtburchakli yoki doira shaklida bo'lishi mumkin. Asbovement quvur va metall tayanchlar ichi odatda beton bilan to'ldirilib, pavilpon xilidagi binolarda ishlatiladi. Tayanchlar sirti odatda moyli bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, tabiiy tuproq ustiga qo'yiladigan poydevor yig'ma beton va temir-betondan bo'lsa iqtisodiy samarali, quyma betondan bo'lsa bikr poydevor hosil qilishi mumkin. Imorat past yoki kam qavatli bo'lsa unda kontstruktiv yechimga doir variantlar ko'p, masalan past qavatli imoratga paxsa, xom g'isht, yog'och, temir-beton, metallardan qilingan sinchli devorni yechimlardan foydalanish mumkin. Undan tashqari, oxirgi o'n yillarda keng tarqalgan g'isht, mahalliy ashyolardan qilingan bloklar, yengil beton, ko'p qalinlikka ega materiallar, yengil va keramzit, penabeton, g'azashlakbeton, penosilikat beton hamda kompozit kabi turli zamonaviy materiallardan qilingan panellardan foydalanish mumkin. Qavatlar orasiga yopiladigan konstruksiyalarda, aksariyat yig'ma temir-betondan, monolit temir-betondan va ba'zida temir yoki yog'ochdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Albatta shunday konstruksiyalar uchun yengil beton, penabeton, keramzit beton kabi yengil, arzon va issiqni saqlaydigan materiallar qo'llanishi iqtisodiy samaraga egadir. Ko'p qavatli jamoat va sanoat binolarida yengil metall dan, trubalardan, turli profillardan kafel plitalar, kompozit qipiq va boshqa materiallardan siqib tayyorlangan plitalar va boshqa ashyolardan foydalanish bizga ko'proq samara beradi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.N.J. To'ychiyev «Bin ova inshootlar konstruksiyasi»
- 2.M.M. Miralimov «Arxitektura (bino inshootlar qurilish konstruksiyalari)»
3. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog'omova «Turar joy va Jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» Toshkent - 2009
- 4.M.M.Miralimov «Turar joy binolarini loyihalash asoslari» Toshkent-2008
- 5.P.Sh.Zohidov «Memor olami» Toshkent-1996

## BINO VA INSHOOTLAR HAQIDA TUSHUNCHALAR. BINOLAR VA ULARGA QO'YILGAN ASOSIY TALABLAR.

*Toshboyeva Hurshida Farhod qizi*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 2-kurs talabasi*

*Davlatov Diyor Dilshodovich*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 1-kurs talabasi*

**Anotatsiya:** Binolar hamda inshootlar ko'rinishlari, fazoviy ko'rsatkichlari, vazifalari va ularga qo'yilgan talablar bo'yicha ma'lum ta'rif va tushuncha.

**Kalit so'zlar:** Bino, inshoot, muhandislik inshootlar, tashqi kuchlar, tabiiy yuklar, sun'iy yuklar

Fuqaro va sanoat binolari hamda inshootlari ko'rinishlari, fazoviy ko'rsatkichlari, vazifalari va ularga qo'yilgan talablar bo'yicha ma'lum ta'rif va tushunchalarga ega. Quyida shu masalani sodda va tushunarli ko'rinishda ifodalash uchun tegishli ta'riflar va tushunchalar. BINO — kishilarning biror ish-faoliyatiga mo'ljallangan va moslashtirilgan, ichki fazoga bo'shliqqa ega bo'lgan yer usti inshooti. INSHOOT — jamiyatning moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun kishilar tomonidan bunyod etilgan barcha qurilmalar. MUHANDISLIK INSHOOTLARI — amaliy ish faoliyatida foydalaniladigan, binolarga aloqasi bo'lmagan inshootlar: to'g'onlar, ko'priklar, televizion minora, tunellar, metropoliten, turli mahsulotlarni saqlaydigan katta hajmdagi idishlar va boshqalar.

Binolar quyidagi qismlardan tashkil topishi mumkin: 1. Hajmiy elementlar, ya'ni bino hajmining yirik qismlari (alohida xonalar, sanitariya kabinalari va h.k.). 2. Konstruktiv elementlar, ya'ni bino tuzilishini belgilovchi asosiy qismlar (poydevorlar, devorlar, to'sinlar, qavatlararo yopmalar, yopmalar, tomlar va boshq.). 3. Qurilish ashyolari, ya'ni konstruktiv elementni tashkil etuvchi, nisbatan kichik qismlar (g'isht, beton, oyna, po'lat, armatura va boshqalar).

Binolarga qo'yiladigan asosiy talablar. Binolar quyidagi ko'rsatkichlarga binoan bir-biridan farq qiladilar: 1. Vazifasiga muvofiqligi, ya'ni bino qaysi jarayon (maqsad)ga mo'ljallangan bo'lsa, u shu jarayon talabiga to'liq javob berishi kerak (yashash uchun, mehnat qilish uchun qulay, dam olishga moslashgan va h.k.).

Bino va inshootlar ta'rifi. Binolarning tuzilishi.

1. Texnik tomondan muvofiqligi, ya'ni bino kishilarni tashqi ta'sirlar (past yoki yuqori harorat, yog'ingarchilik, shamol va h.k.)dan to'la asrashi, mustahkam va ustivor bo'lishi, ekspluatatsiya sifatlarini uzoq vaqtgacha saqlashi lozim.



2. Bino ko‘rinishi me‘morchilik va badiiylik talablariga mos holda tanlanishi, uning tashqi va ichki ko‘rinishi chiroyli, shinam, atrof-muhit bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

3. Iqtisodiy jihatdan qulayligi, ya'ni bino va inshoot qurilishida mehnat sarfini kamaytirish, qurilish ashyolarini va vaqtni tejash ko'zda tutiladi.

Binolarga ta'sir qiladigan tashqi ta'sirlar.

Yuqorida ta'riflangan bino konstruksiyalariga bir necha xil tashqi va ichki kuchlar ta'sir etadi, ularning ta'riflari quyidagilardan iborat:

1. Tashqi kuchlar — bino elementlari (qismlari)ning xususiy og'irligi, shamolning ta'sir kuchi (muvaqqat yuklar), zilzila, uskunalaming tasodifiy buzilishi natijasidagi ta'sirlar va boshqalar;

2. Atrof-muhit ta'siri — tashqi harorat (konstruksiya chiziqli o'lchamlarining o'zgarishiga olib keladi), atmosfera va tuproq namligi ta'siri (qurilish ashyolarining xususiyatlarini o'zgarishiga olib keladi), havo oqimi yo'nalishining ta'siri (xona ichidagi mikroiklimning o'zgarishiga olib keladi), quyosh nuri energiyasining ta'siri (qurilish ashyosi fizik-texnik xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi), havo tarkibidagi agressiv kimyoviy birikmalarning ta'siri (konstruksiyaning yemirilishiga va buzilishiga olib keladi), biologik ta'sir (mikroorganizmlar va qurt-qumursqalar konstruksiyani yemiradi), bino ichidagi yoki tashqarisidagi shovqin ta'siridan xonadagi normal akustik rejimning buzilishi.

Inshoot va binolarga ta'sir etadigan yuklar

Inshoot va binolarga ta'sir etadigan yuklar kelib chiqish sababiga ko'ra asosan ikki guruhga bo'linadi.

1. Tabiiy yuklar.

2. Sun'iy yuklar. Tabiiy yuklamalar o'zgaruvchan atrof-muhitga bog'liq bo'lib, uchga bo'linadi: 1. Meteorologik. 2. Gravitatsion. 3. Zilzilaviy.

Yuklar ta'siriga qarab quyidagicha bo'lishi mumkin:

-doimiy va vaqtincha;

-doimiy-tabiiy (binoning asosiy qismlarining vazni);

-Yerning bosimi. Vaqtincha yuklar uzoq muddatli, qisqa muddatli va o'ziga xos yuklarga bo'linadi:

-uzoq muddatli yuklar:

-binoning ichidagi texnik jihozlar;

-qisqa muddatli yuklamalar:

-odamlar vazni, saqlanadigan yuk, harakatdagi transport, qor va muz bilan qoplanish, shamol kuchi; — o'ziga xos yuklar:

-yer strukturasi buzilishiga bog'liq. Qor yuki. Qor yuki ko'p hollarda inshootlarni avariya holatiga olib keladi. Qor yuklari gidromet xizmati yordamida tog'li rayon, notekis joylarda avvaldan aniqlanadi. Respublikamizda qor, yomg'ir ma'lum

sharoitlarga bog'liq bo'lib, ularning binolarga ta'siri me'yoriy ko'rsatkichlarda keltirilgan. Ularning ta'sirlari, asosan, bino va inshootlar konstruksiyalarini loyihalash hamda hisoblashda alohida yuk sifatida inobatga olinadi. Shamol ta'siri. Dovul shamollari ko'pchilik muhandislik qurilmalarining vayron bo'lishiga sabab bo'ladi. Bino va inshootlarning shakli — ularning balandligiga qarab aerodinamik samarasi har xil bo'ladi. Bino tomi ikki nishabli bo'lsa, shamol keladigan tomoni ko'tarilishi mumkin. Binoning tomi yengil material bilan yopilganida esayotgan shamol kuchi uni og'irligidan ko'p kuch hosil qilib ko'tarib yuborishi mumkin. Binokor ustalar hamisha buni nazarda tutishlari lozim. Zilzila kuchi. Zilzila paytida tebranishning binolarga ta'siri. Zilzila ko'plab vayronalarga sabab bo'ladi. Shu sababli zilzila bo'ladigan hududlarda maxsus choralarni ko'rish kerak.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan katta hajmdagi kapital qurilishlar, qurilish konstruksiyalaridan samarali foydalanish rivojining juda tez jadallashuviga turtki bo'ldi. Konstruksiyalarning turlari va ulardan tayyorlanadigan xomashyolar to'xtovsiz takomillashib bormoqda. Shu boisdan ularni hisoblash, loyihalash va tiklash usullari ham takomillashtirilmoqda. Qurilishning samaradorligini oshirish yo'llaridan biri uning konstruktiv sxemalarini ixchamlashtirish va konstruksiyalarni tiplashtirish asosida, iloji boricha ko'proq tayyorligini oshirish bo'lsa, ikkinchisi: bu imoratlarni raqobatbardosh, yuqori sifatli, shinamva vazifaviy qulay bo'lishini ta'minlashdir. Shu tufayli mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni qo'llash bilan bir qatorda qurilish maydonchalarida bajariladigan ishlarga keng imkoniyatlar ochib berildi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.M.M. Miralimov «Arxitektura (bino inshootlar qurilish konstruksiyalari)»
2. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog'omova «Turar joy va Jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» Toshkent - 2009
- 3.M.M.Miralimov «Turar joy binolarini loyihalash asoslari» Toshkent-2008
- 4.P.Sh.Zohidov «Memor olami» Toshkent-1996
5. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog'omova «Turar joy va Jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» Toshkent - 2009

## RESPUBLIKADAGI HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI

*Toshboyeva Hurshida Farhod qizi*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 2-kurs talabasi*

*Davlatov Diyor Dilshodovich*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 1-kurs talabasi*

**Anotatsiya:** Respublikamizda aholiga sifatli bino va inshootlar qurishda alohida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan zarur talablar mavjud va ularni qurilish boshlashdan avval kurib chiqish eng to'g'ri yo'ldir.

**Kalit so'zlar:** QMQ - zilzilaviy hududlarda qurilish, seysmik talablar, yangi poydevorlar suvlarni qochiruvchi yerosti quvurlar, deformatsiya choklari

O'rta Osiyo respublikalarida hayot faoliyatiga doir muammolar va ulaming o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Respublikada katta ahamiyatga ega ekologik murrakkablikni chaqiradigan bir nechta salbiy omillar hayot faoliyatini keskinlashtirib kelmoqda. Shulardan asosiylari quyidagilardir zilzila, yer qimirlashi; — atmosfera holati, haroratning yil davomida keskin o'zgarishi;

- quyosh radiatsiyasi;
- sizot suvlarining ko'tarilganligi;
- tuproqlaming sertuzligi;
- havoning iflosligi;
- havoning keskin qizishi, insolatsiya;
- havoda ximikatlaming ko'pligi;
- shovqinning salbiy ta'siri;
- yong'in xavfi;
- suv bosish holatlari;
- yer ko'chishi va h.k.

Respublikadagi yuqorida ko'rsatilgan salbiy omillar qurilish uchun yer tanlayotganda imorat va inshootlar loyihalalanayotgan davrda, qurilish hamda binolardan foydalanish jarayonida keskin va sezilarli ta'sir qiladi hamda ularga qarshi ma'lum tadbirlar ko'rilishini taqozo qiladi. Masalan, yer qimirlashiga qarshi, ya'ni imoratni zilzilabardosh qilib loyihalash, qurish va undan foydalanishda turli ilmiy va amaliy asoslangan tadbirlar ko'rish, tegishli texnik-me'yoriy hujjatlarda (QMQ - zilzilaviy hududlarda qurilish) dasturda ko'rsatilgan. Buning uchun loyihalashning har bir bo'g'inida qo'shimcha tadbirlar ko'zda tutiladi.

Yangi binoning qurilishi lozim bo'lsa, avval qurilish rejalashtiriladigan tumanda mikro-rayonlashtirish xaritasiga asosan shu joy qanday zilzilaviy ko'rsatkichga

keltirilganligi aniqlanib, shu ko'rsatkichga mos konstruktiv yechim tanlash, yerosti tuprog'ini qo'shimcha o'rganish va uni tayyorlash, imoratni loyihalashda ma'lum ratsional forma tanlash, seysmik talablarga mos me'moriy-konstruktiv yechimlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, zilzilaga qarshilik ko'rsatadigan bir necha tadbirlar, ya'ni deformatsiya choklarini kiritish, imorat fazoviy birligini ratsional taqsimlash, konstruksiyalar birlashgan tugunlarni zilzilabardoshligini ta'minlash va h.k. Bunday tadbirlarga, aksariyat, katta xarajat qilishga to'g'ri keladi va tajribaga binoan har bir ball seysmik zilzilaga qarshi tadbirlar uchun binoning narxidan 8—12% qo'shimcha xarajatlar qilishga to'g'ri keladi. Respublikada tashqi haroratning keskin o'zgarishi, atmosferaning holati katta murakkabliklar keltirib chiqaradi. Masalan, Toshkent shahrining, yillar davomida olingan statistik ko'rsatkichlarga binoan, qishdagi o'rtacha hisobiy harorat «—18» gradus, yozda esa «+40» darajaga yetadi. Bir yil davomida umuman respublikada qish va yoz orasidagi haroratning farqi o'rtacha 50 daraja, ba'zi viloyatlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati va h.k. larda) haroratning og'ishi ba'zi yillari 50—65 darajaga yetadi va ba'zida undan oshib ham ketadi. Bu atmosferaning keskin o'zgarishiga, qurilish konstruksiyalarining ma'lum o'zgarishiga, ayniqsa, inson organizmiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Respublika tarixiga qaralsa, ba'zi yillarda yozgi temperatura 50 darajadan ortib ketadigan hollar ham uchraydi va radiatsiya xavfi keskin ortadi. Shuning uchun respublikada bu omillarga katta e'tibor beriladi. Shaharlar, tumanlar va mikrotumanlar bosh rejalarida istiqboldagi (20 yildan so'ng) ijtimoiy-iqtisodiy, arxitektura-qurilish, sanitar- gigiyenik va muhandis-texnik masalalar inobatga olinadi. Bu loyihada ayniqsa, turar-joylarni ijobiy joylashishiga, yuqorida ko'rsatilgan salbiy omillarga katta ahamiyat beriladi. Respublika xususiyatlaridan biri bo'lmish tuproq namligining yuqoriligi, yerosti suvlarining yuqori yurishi va tuproqlarning cho'kuvchanligi. qolaversa, yerosti tuzlarining ko'pligi qurilish amaliyotiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu murakkablikni yengish uchun ma'lum tadbirlar, yangi poydevorlar suvlarni qochiruvchi yerosti quvurlar, deformatsiya choklari kabi choralar ko'rishga to'g'ri keladi. Respublikada bir nechta gaz, neft va boshqa foydali qazilmalar ko'pligi hamda ularning tashqi muhitga ta'sirlari binolarni qurish jarayonida keskin seziladi. Undan tashqari, shaharlarda, ayniqsa, katta shaharlarda (Samarqand, Andijon, Jizzax, Xorazm, Nukus kabi) havoni keskin ifloslanishi sezilmoqda. Bu shaharlarda bir necha omillar, ya'ni transport tutuni, zavod va korxonalaridan tashqariga chiqayotgan tutun va hidlar, axlat va turli salbiy omillar shahar ekologiyasini buzib kelmoqda. Imoratni loyihalashda ularga katta e'tibor berish zarurligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun uy-joy, jamoa va fuqaro hamda sog'lomlashtirish bino va inshootlarini loyihalashda tegishli tadbirlar ko'rishga to'g'ri keladi. Respublikaning qishloq joylarida, ayniqsa. paxta ekiladigan hududlarda bir necha o'n yillab kimyoviy moddalardan foydalanish natijasida tuproq strukturasi buzilib, zaharlanish darajasi keskin ortgan. Yemi

oziqlantirish, defolatsiya qilish uchun katta miqdorda kimyoviy moddalar keltirish va ularni aholi yashayotgan joylarda saqlash, ulardan turli ko'rinishda foydalanish inson sog'ligiga katta salbiy ta'sir etishi va xunuk natijalarga olib kelishi allaqachon hammaga ayon bo'lgan. Shuning uchun qishloq joylarda quriladigan turar-joy va fuqaro binolarini loyihalashda, binolarga yer ajratilayotgan davrda ko'rsatilgan omillarga binoan kamroq zarar keltiruvchi tegishli yechimlar qabul qilish darkor. Albatta, binolar kimyoviy moddalar foydalaniladigan joydan kamida 1000—1200 m narida qurilgani ma'qul. Shaharlarda katta salbiy kuchga ega bo'lgan omillardan biri bu shovqin, salbiy tovushlardir. Bu omil tabiiy va sun'iy manbalardan kelib chiqib, inson sog'lig'iga keskin salbiy ta'sir etishi mumkin. Binokorlikda olovbardoshlik va yong'in xavflarini inobatga olgan holda loyihalash ishlari va tadbirlariga doimo amal qilish talab etiladi. Masalan, binolar orasidagi masofalar kamida binoning olovbardoshligiga qarab, I, II darajali olovbardoshlikda 6—10 m, III — 8—10 m, IV, V — 10—15 m etib tayinlanadi. Salbiy omillar manbalaridan turar-joylar sanitar muhofaza zonalari orqali chegaralanadi. Sanitar zonalari me'yoriy hujjatlarda, sanoatda besh sinfga bo'linadi. Sanoatda atrof-muhitni ifloslantiruvchi korxonalar mavjud bo'lib, bunday manbalar va qurilish orasida sanitar-muhofaza zonalari quyidagi o'lchamlarga teng bo'lishi lozim. Masalan I sinf manbadan - 1000 m, II sinfdan - 500 m. III — 300 m, IV— 100 m, V- 50 m dan iborat maydon qoldiriladi. Yong'in va uning oqibatlarini yer yuzini larzaga va ortiqcha tashvishga solib keladigan salbiy omillardir. Imoratlar yong'inida unda yashayotganlardan tashqari, atrofdagi hayot faoliyatiga va, qolaversa, atrof-muhitga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun bino va inshootlarni loyihalashda yong'in ta'siri inobatga olinadi. Hamma imoratlarda yong'inga qarshi tadbirlar va yong'indan saqlanish masalalari hal qilinadi. Imoratlardan xodim va yashovchilarni, yong'in holatida, tezlik bilan tashqariga chiqazish uchun alohida yo'laklar va xonalar, eshiklar, zinalar va yo'llar, bino loyihasidagidek inobatga olinadi. Ba'zi antiqa, insonlar ko'plab yig'ilishi mumkin bo'lgan mehmonxona, teatr, konsert zallari, sirk kabi binolarda, undan tashqari, ko'plab sanoat obyektlarida, alohida strategik ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarda yong'inga qarshi avtomatik ishga tushadigan zamonaviy uskunalari o'rnatiladi. Respublika xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko'p shaharlarimiz (G'azalkent, Chirchiq, Kattaqo'rg'on. va boshq.), turar-joylar sun'iy suv havzalari ta'sirida suv bosish xavfiga ega. Shunday xavflar, albatta, shaharsozlikda bosh rejalarda asosiy omillar qatorida hisobga olinishi va har qaysi loyihada tahlil qilinishi darkor.

Xulosa qilganda: qurilayotgan bino va inshootlarni har tomonlama kurib chiqqan holatda qurilishni boshlash eng to'g'ri ishdir. Shaharsozlikning bosh rejasida yuqorida keltirilgan omillar albatta hisobga olishi kerak qurilayotgan bino va inshootlarda. Qurilish pudrat tashkilotlari yuqoridagi omillarga barcha xafvsizlik chorasini korishlari shartdir. Aholining turmish tarzini yaxshilash har birimizni burchimizdir.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. M.M. Miralimov «Arxitektura (bino inshootlar qurilish konstruksiyalari)»
2. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog'omova «Turar joy va Jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» Toshkent - 2009
3. M.M. Miralimov «Turar joy binolarini loyihalash asoslari» Toshkent-2008
4. P.Sh. Zohidov «Memor olami» Toshkent-1996
5. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog'omova «Turar joy va Jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» Toshkent - 2009

## O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA QO'LLANGAN AYRIM FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

*Yangiboyeva Marjona*  
*SamDChTi talabasi*

**Annotasiya:** Maqolada frazeologik iboralarning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Badiiy asarlarda frazeologik birliklarning o'zni xususida fikr yuritiladi. Asarlardagi frazalarning qiyosiy tahlili bir nechta misollar bilan tahlil qilingan. Ba'zi iboralarning ma'nolari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birikma; ibora; uslubiy jihatlari: grammatik, semantik, funksional; ma'nodoshlik; antonimli; omonimlik.

Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh. Balli asos soldi. Frazeologiyalarning grammatik, semantik, funksional—uslubiy jihatlari rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, V. Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariga ko'ra tasniflaydi. V. Jukov esa frazeologizmlarning kategorial ma'nolarini aniqlagan.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan. (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), Frazeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan.

Frazeologik birikmalar – iboralar. Iboralar - ma'nosi bir so'zga teng keladigan gap yoki so'z birikmalari. Iboralar har doim ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga “frazeologizm”lar deyiladi. [ A. Anorbekova, Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011, 73-74-betlar ]

Frazeologizmlar tilimizni yanada boyitishga, nutqimizni rivojlantirishga yordam beradi va asosan, so'zlashuv va badiiy uslublarda keng qo'llaniladi. Masalan: bir yoqadan bosh chiqarib - ahil bo'lib; ko'ngli joyiga tushdi - xotirjam bo'ldi; tepa sochi tikka bo'ldi - jahli chiqdi, achchiqlandi; xamirdan qil sug'irganday - oson; qo'y og'zidan cho'p olmagan - yuvosh; aravani quruq olib qochadi - maqtanchoq, yolg'onchi; do'ppisi yarimta - beg'am. Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lgi vazifasida keladi. Iborani tashkil etgan so'zlar uning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Masalan: Rais daladagi hosilni ko'rib boshi osmonga yetdi. Bu gapda boshi osmonga yetdi iborasi butun holda murakkab kesim vazifasini bajargan. ( tuzilishi: ot+ot+fe'l) Yoki: Ayolga qo'l ko'tarish gunoh hisoblanadi gapida qo'l ko'tarish iborasi yaxlit holda ega vazifasini bajargan ( tuzilishi:ot+fe'l). Iboralar, asosan, so'zlashuv va badiiy uslubda keng qo'llanilsa,rasmiy va ilmiy uslublarda qo'llanilmaydi. Iboralar ma'nodoshlik (yaxshi ko'rmoq -- ko'ngil bermoq), antonimlik (ko'ngli joyiga tushmoq- yuragiga g'ulg'ula tushmoq), omonimlik (so'z bermoq I – va'da bermoq, so'z bermoq II – gapirishga ruxsat bermoq) xususiyatiga ega. [R. Sayfullayeva va boshqalar, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2009, 133-bet]

Frazeologik birliklar nutqda tayyor holda uchraydi, ular turg'un biirikmalar bo'lib, funksional va semantik jihatdan bo'linmas yoki ajralmas birliklardir. [ I. G'afurov, O. Mo'minov, N.Qambarov , Tarjima nazariyasi. – Toshkent, 2012, 161-bet]

Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.

Frazeologizimlar badiiy adabiyotlarda qo'llanilganda kuchliroq ma'no ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek adabiyotida frazeologizimlar, ayniqsa, O'tkir Hoshimov asarlarida mahorat bilan qo'llanganligini ko'p guvohi bo'lamiz.

Quyida "Dunyoning ishlari" qissasidagi bir nechta iboralarni ko'rib chiqamiz.

1) -To'kilib ketdi, - dedi oyim boshini quyi solib. (21-b). **Boshini quyi solmoq** – mayus turmoq, xafa bo'lmoq . Tuzilishi: ot+ravish+fe'l

2) Noiloj mashinani tislantirib olib keldim, qovog'imdan qor yog'ayotganini o'zim ham sezib turardim. (23-b). **Qovog'idan qor yog'moq** – xafa bo'lmoq. Tuzilishi: ot+ot+fe'l

3) Shu kuni nima yumush buyurishsa, oyog'im olti , qo'lim yetti bo'lib yugurib yurdim. (24-b). **Oolti, qo'li yetti bo'lmoq** – tez harakatlanmoq. Tuzilishi: ot+son+ot+son+fe'l

4) – Isanmisiz? – deb so'rashadi-yu , hasratini to'kib soladi. (71-b). **Hasratini to'kib solmoq** – bayon qilmoq. Tuzilishi: ot+fe'l

5) Rostini aytsam, tovonimdagi jonim hiqildog'imga keldi. (80-b). **Joni hiqildog'iga kelmoq** – o'lar holatga kelmoq, qiynalib ketmoq. Tuzilishi: ot+ot+fe'l

6) Saini qulog'ini tishlagandan ko'ra kuchugimning qulog'ini tishlayman (127-b). **Qulog'ini tishlamoq** – o'ziniki qilib qo'ymoq. Tuzilishi: ot+fe'l

7) Qani, bo'yniga olmay ko'rsin-chi. (133-b). **Bo'yniga olmoq** – iqror bo'lmoq. Tuzilishi: ot+fe'l

8) – Qani, yana bir marta qo'lini tegizib ko'rsin-chi , qo'lini sindirib o'choqqa tiqaman ! (146-b). **Qo'lini tekkizmoq** – kaltaklamoq. Tuzilishi: ot+fe'l



9) Yugurib borarkanman, yig‘lardim, nimaga yig‘layotganimni o‘zim bilmasdim-u , hech o‘pkamni tutolmadim. (184-b). **O‘pkasini tuta olmay qolmoq** – yig‘idan o‘zini to‘xtatolmay qolmoq. Tuzilishi : ot +fe‘l+fe‘l

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma‘no hodisasidir. Frazeologizm va so‘z bo‘lmasa, nutqiy-sintaktik butunlik ham bo‘lmaydi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologizmlar bilan boyib boradi. Frazeologizmlar so‘zlovchi nutqini ta‘sirchan va kuchli emotsiyaga boy bo‘lishini ta‘minlovchi muhim birlik hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Anorbekova, Hozirgi o‘zbek adabiy tili , Toshkent, “NOSHIR” nashriyot”, 2021, jami 334 sahifa
2. R. Sayfullaveva, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent – “Fan va texnologiya”-2009, jami 414 sahifa
3. I. G‘afurov, O. Mo‘minov, N. Qambarov, Tarjima nazariyasi, Toshkent, “Tafakkur Bo‘stoni”, 2012, jami 215 sahifa

## AVVALGI VA HOZIRGI MATEMATIKA

*G'ijduvon tuman 2- son Kasb-hunar maktabining  
MATEMATIKA fani o'qituvchisi  
Nurullayeva Shahnoza Luqmon qizi  
Tel: (93)6222358*

**Annotatsiya :** Matematikaning bundan keyingi taraqqiyotida asosiy o'rinni egallashini ko'rsatmoqda. Elektron hisoblash vositalari bilan birga Matematika tatbiqlarining kengayishi (biometriya, sotsiometriya, ekonometrika, psixometriya va boshqalar), matematik usullar hayotining turli sohalariga jadal sur'atlar bilan kirib borayotgani ham Matematika predmetini ixcham ta'rif bilan qamrab bo'lmaydigan darajada kengaytirib

**Kalit so'zlar:** Matematika, [geometriya](#), Yunoniston, modellar, algebra, „Arifmetika, soni 3,1415926, „Arximed, differensial va integral hisob

**Matematika** (yun. thematike, mathema — bilim, fan) — aniq  [mantiqiy](#) mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi [fan](#). Dastlabki ob'yekti sanoq bo'lgani uchun ko'pincha unga „hisob-kitob haqidagi fan“ deb qaralgan (bugungi matematikada hisoblashlar, hatto  [formulalar](#) ustidagi amallar juda kichik o'rin egallaydi). Matematika eng qadimiy fanlardan biri bo'lib, uzoq rivojlanish tarixini bosib o'tgan va buning barobarida „matematika nima?“ degan savolga javob ham o'zgarib, chuqurlashib borgan. [Yunonistonda](#) matematika deganda [geometriya](#) tushunilgan. IX-XIII asrlarda matematika tushunchasini [algebra](#) va [trigonometriya](#) kengaytirgan. 17—18-asrlarda matematikada [analitik geometriya](#), [differensial](#) va [integral hisob](#) asosiy o'rinni egallaganidan so'ng, to [XX asr](#) boshlarigacha u „miqdoriy munosabatlar va fazoviy shakllar haqidagi fan“ mazmunida ta'riflangan. [XIX asr](#) oxiri va XX asr boshlarida turli geometriyalar ([Lobachevskiy geometriyasi](#), [proyektiv geometriya](#), [Riman geometriyasi](#) kabi), algebralar ([Bul algebrasi](#), [kvaternionlar algebrasi](#), [Keli algebrasi](#) kabi), cheksiz o'lchovli fazolar kabi mazmunan juda xilma-xil, ko'pincha sun'iy tabiatli ob'yektlar o'rganila boshlanishi bilan matematikaning yuqoridagi ta'rifi o'ta tor bo'lib qolgan. Bu davrda matematik mantiq va to'plamlar nazariyasi asosida o'ziga xos mushohada uslubi hamda tili shakllanishi natijasida matematikada eng asosiy xususiyat — qat'iy mantiqiy mushohada, degan g'oya vujudga keldi (J. Peano, G. Frege, [B. Rassel](#), [D. Xilbert](#)). XX asr o'rtalarida Burbaki taxallusi ostida matematika ta'rifini qayta ko'rib chiqqan bir guruh [fransuz](#) matematiklari bu g'oyani rivojlantirib, „Matematika — matematik strukturalar haqidagi fan“ degan ta'rif kiritdi. Bu yondashuv avvalgi ta'riflarga ko'ra kengroq va aniqroq bo'lsada, baribir cheklangan edi — strukturalar o'rtasidagi munosabatlar (masalan, matematika,

turkumlar nazariyasi, [algebraik topologiya](#)), amaliy hamda tatbiqiy nazariyalar, xususan, [fizika](#), [texnika](#) va [ijtimoiy fanlarda matematik modellar](#) bu ta'rif doirasiga sig'avermas edi. So'nggi asrda xilma-xil matematik ob'yektlar orasida juda chuqur munosabatlar mavjudligi va aynan shunga asoslangan natijalar Matematikaning bundan keyingi taraqqiyotida asosiy o'rinni egallashini ko'rsatmoqda. Elektron hisoblash vositalari bilan birga Matematika tatbiqlarining kengayishi (biometriya, sotsiometriya, ekonometrika, psixometriya va boshqalar), matematik usullar hayotining turli sohalariga jadal sur'atlar bilan kirib borayotgani ham Matematika predmetini ixcham ta'rif bilan qamrab bo'lmaydigan darajada kengaytirib yubordi. Demak, Matematika aksiomatik nazariyalar va matematik modellarni, ular orasidagi munosabatlarni o'rganadigan, xulosalari qat'iy mantiqiy mushohadalar orqali asoslanadigan fandır. Dastlab oddiy sanoq sonlar va ular ustidagi arifmetik amallardan boshlangan tematik bilimlar umuminsoniy taraqqiyot bilan birga kengayib va chuqurlashib borgan. Eng qadimgi yozma manbalardayoq (masalan, matematik papiruslar) kayerlar ustida amallar va chiziqli tenglamalarni yechishga doir misollar uchraydi. Sug'orma dehqonchilik, me'morlikning rivojlanishi, astronomik kuzatuvlarning ahamiyati ortishi geometriyaga oid dalillar jamg'arilishiga olib kelgan. Masalan, Qadimgi Misrda tomonlari 3, 4 va 5 birlik bo'lgan uchburchak to'g'ri burchakli bulishidan foydalanilgan. Bu davr Matematikasining oliy yutuqlarini muntazam to'rtburchakli kesik piramida hajmini hisoblash qoidasi (hozirgi yozuvda  $V = (a^2 + ab + b^2) L/3$  formulaga mos keladi) va  $l = (16/9)^2$  taqribiy qiymatini misollarida ko'rish mumkin.

Yunonistonda geometrik xossalar faqat kuzatuv va tajriba yo'li bilangina topilmay, avvaldan ma'lum xossalardan keltirib chiqarilishi mumkinligi ham payqalgan hamda deduktiv isbot g'oyasi rivojlantirilgan (Fales, Pifagor va boshqalar). Bu g'oyaning cho'qqisi Yevklidning „Negizlar“ asarida geometriyaning aksiomatik qurilishi bo'ldi. Bu kitob Matematikaning keyingi rivojiga katta ta'sir qildi va XIX asr boshlarigacha mantiqiy bayonning mukammalligi bo'yicha namuna bo'lib keldi. Yunonlar Matematikani geometriya bilan tenglashtirib, san'at darajasiga ko'targanlar. Buning natijasida planimetriya va [stereometriya](#) ancha mukammal darajaga yetgan. Faqat 5 xil qavariq muntazam kupyoylikning mavjudligi (Platon), kvadratning tomoni bilan diagonali umumiy o'lchovga ega emasligi (Pifagor), nisbatlar nazariyasiga asoslangan son tushunchasi (Evdoks), qamrash usuli bilan egri chiziqli shakllar yuzi va yer uzunligini, jismlar hajmini hisoblash, Geron formulasi, konus kesimlari (Apolloniy, Pergayos), stereografik proyeksiya (Ptolemey), geometrik yasashlar va shu munosabat bilan turli egri chiziqlarning o'rganilishi yunon geometriyasining taraqqiyot darajasi haqida tasavvur beradi. Yunon olimlari qo'ygan burchak triseksiyasi, kubni ikkilash, doira kvadraturasi, muntazam ko'pburchak yasash masalalari XIX asrga kelib o'z yechimini topdi, mukammal va „do'st“ sonlar haqidagi

muammolar esa hamon ochiqligicha qolmoqda. Ayniqsa, Arximed tadqiqotlarida yunon Matematikasi o'z davridan juda ilgarilab ketgan — u integral hisob, og'irlik markazi g'oyalari qo'llagan. Yunon olimlari trigonometriyaga oid dastlabki ma'lumotlarga ham ega bo'lganlar (Gipparx, Ptolemey), Diofantning „Arifmetika“ asarida sonlar nazariyasiga oid masalalar qaralgan.

Ayni paytda Matematika Qadimgi Xitoy va Hindistonda ham taraqqiy topdi. „To'qqiz kitobli matematika“ nomli xitoy manbasida (miloddan avvalgi II-I asrlar) natural sonlardan kvadrat va kub ildiz chiqarish qoidalari berilgan. Keyinroq xitoy olimlari chiziqli tenglamalar sistemasi va chegirmalar nazariyasi bilan shu-g'ullanib, xususan, „qoldiqlar haqidagi xitoy teoremasi“ni topganlar. V asrda Szu Chun-chji  $\pi$  soni 3,1415926 bilan 3,1415927 oralig'ida bo'lishini ko'rsatgan.

Hindistonda Matematika Ariabhata (V asr), Brahmagupta (VII asr), Bxaskara (XII asr) ishlarida rivojlantirilgan. Hind Matematikasining olamshumul yutug'i o'nli sanoq sistemasi va 0 raqamining ixtiro qilinishidir. Shuningdek, hind olimlari manfiy sonlar va irratsional ifodalar bilan tanish bo'lganlar, geometriyada muhim natijalarni qo'lga kiritganlar.

Yunon, xitoy va hind Matematikasi bir-biridan deyarli mustaqil holda mavjud bo'lgan. III-IV asrlarga kelib Yunonistonda fan inqirozga uchraydi, mavjud asarlar ham unutila boshlaydi. Yevropa sivilizatsiyasining bundan keyin to Uyg'onish davrigacha bo'lgan davri „zulmat asrlari“ deb atalgan (A. Mets). VII asrda islom dini tarqalishi va Arab xalifaligi vujudga kelishi bilan fan hamda madaniyat yuksalishi uchun yangi sharoit tug'ildi. Horun ar Rashid davrida xalifalik poytaxti Bag'dod yirik shaharga aylanib, bu yerga turli mintaqalardan olimlar kela boshlaydi. Ular dastlab yunon, suryoniy va hind tilidagi asarlarni arabchaga o'girish bilan shug'ullangan. Xuroson va Movarounnahr voliyasi etib tayinlangan Horun ar Rashidning o'g'li Ma'munning ilmparvarligi tufayli Marvga o'rta Osiyolik olimlar yig'ila boshlaydi. 813-yilda xalifalikka o'tirgan Ma'mun Marvdagi olimlar to'garagini Bag'dodga olib ketadi va mashhur „Bayt ul-hikma“ (Ma'mun akademiyasi)ga asos soladi. Bu ilmiy muassasaga Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy rahbarlik qilgani haqida ma'lumotlar saqlangan. „Bayt ul-hikma“da, shuningdek, Ahmad al-Farg'oniy, Ibn Turk al-Xuttaliy, Habash Hosib al-Marvaziy, Muso ibn Shokir o'g'illari kabi ko'plab o'rta Osiyolik olimlar faoliyat ko'rsatgani bu o'lkada arablar istilosiga qadar ham fan rivojlanganligi, xususan, yosh iqtidorli olimlar chiqishi uchun qulay muhit mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

IX asrdan fan tarixi „Musulmon renessansi“ deb nomlangan yangi yuksalish davriga kiradi. „Bayt ul-xikma“da Yunoniston, Hindiston, Xorazm va Xitoyda jamg'arilgan bilimlar sintez qilinib, Matematika izchil rivojlantirila boshlandi. Xorazmiy tarqoq bilimlarni tartibga keltirib, algebraga asos soladi. Uning o'nli sanoq

sistemasi bayon qilingan asari tufayli bu qulay hisoblash vositasi dunyoga yoyildi. Asarlari o‘qimishli bo‘lishi uchun Xorazmiy aniq va lo‘nda bayon uslubini qo‘llagan. Shu tufayli uning asarlari keng tarqalgan. Xorazmiy uslubi yevropalik tarjimonlar tomonidan muallif nomi bilan algoritm deb atalgan.

Musulmon Sharqi olimlari geometriyani ham rivojlantirgan (Sobit ibn Qurra, Abulvafo, Umar Xayyom), trigonometriyaga fan sifatida asos solganlar (Ibn al-Xaysam, Beruniy, Tusiy), xususan, Ahmad al-Farg‘oniy tomonidan Ptolemeyning stereografik proyeksiya haqidagi teoremasining isbotlanishi Bag‘dod akademiyasida geometriya chuqur o‘rganilganini ko‘rsatdi. Arab tilida ijod qilgan matematiklarning uchinchi va to‘rtinchi darajali tenglamalarni geometrik usulda yechish yo‘llari keyinchalik analitik geometriya yaratilishiga turtki bo‘lgan.

Matematika rivojlanishida Xorazm Ma‘mun akademiyasi (Ibn Iroq, Beruniy) ham muhim rol o‘ynagan. Sharq Matematikasi rivojining cho‘qqisi esa Samarqand ilmiy maktabi davriga to‘g‘ri keladi. Ulug‘bek va uning rahbarligidagi olimlar (Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Miram Chalabiy, Husayn Birjaniy va boshqalar) ulkan rasadxona qurish, yulduzlar koordinatalari va sayyoralar harakatini katta aniqlikda kuzatish ishlari bilan birga kuzatuv natijalari bo‘yicha yoritqichlarning sferik koordinatalarini hisoblash usullarini, interpolyasiya formulalari, keyinchalik Gornor sxemasi deb atalgan usulni hamda ketma-ket yaqinlashishlar usulini ishlab chiqadilar. Ulug‘bekning „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ asaridan o‘ta aniqlikdagi trigonometrik funksiyalar jadvallari ham o‘rin olgan.

Ulkan hajmdagi hisoblash ishlarini bajarish uchun Ulug‘bek rasadxonasi qoshida maxsus guruh — o‘ziga xos hisoblash markazi tuzilgan. Bunda masalan,  $x = \sin G$  ni aniqlash uchun avval geometrik usul bilan  $\sin 3^\circ$  hisoblangan, so‘ngra  $\sin 3a = 3\sin a \cos^2 a - \sin^3 a$  formula asosida  $x^3 - 45x^2 + 0,785039343364006 = 0$  tenglama tuzilib,  $\sin G = 0,0174524066437283571$  qiymati topilgan. Koshiy aylanaga muntazam 3-228 burchak chizish yo‘li bilan  $j$  sonini verguldan so‘ng 17 xona aniqlikda hisoblangan.

XVI asrdan Sharqda fan inqiroz sari yuz tutdi. Islom dunyosi olimlarining asarlari X-XII asrlardan Yevropaga tarqalib, tarjima qilina boshlangan va Matematikaning XVI asrdan jadal rivojlanish yo‘liga kirishi uchun zamin hozirlagan. Jumladan, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy asarlari Ispaniya va Italiya orqali, Ulug‘bekning „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ asari Istanbul orqali Yevropaga kirib borgan. Bu asarlar ta‘sirida Italiyada Matematikaga qiziqish kuchaydi (L. Fibonachchi, L. Pacholi, N. Tartalya). Arifmetik amallar qatoridan daraja, ildiz va logarifm o‘rin egallaydi. Uchinchi va to‘rtinchi darajali tenglamalarning ildizlari haqiqiy bo‘lsada, manfiy sondan kvadrat ildiz vositasidagina yechish mumkinligi [kompleks sonlarga](#) ehtiyoj tug‘diradi.

XVII asrdan Matematika tarixining J. Vallis, I. Kepler, R. Dekart, B. Kavalyeri, P. Ferma, F. Viyet va boshqa Paskal nomlari bilan bogʻliq yangi davri boshlanadi. Matematik belgilashlar keng joriy etiladi. Bu, oʻz navbatida, Matematika rivojiga ijobiy taʼsir etadi, analitik geometriya, proyektiv geometriya, ehtimollar nazariyasi va sonlar nazariyasiga asos soladi. Birin-ketin ochila boshlagan universitetlarda Matematika asosiy predmetga aylanadi.

Bu davrda fransuz olimi M. Mersenn orqali dunyo olimlari oʻrtasida olib borilgan oʻzaro yozishmalar tufayli dastlabki xalqaro matematiklar jamoasi vujudga keldi, ular oʻrtasida ilmiy musobaqa muhiti kuchaydi, natijada yangi obʼyektlar (chiziqlar va tenglamalar) tadqiqotga tortildi, ekstremum topish, urinma yasash, yuzlarni hisoblash, [kombinatorikaga](#) oid yangi masalalar qoʻyish rayem boʻldi, funksiyalar, yaʼni oʻzgarishi bir-biri bilan bogʻliq kattaliklar bilan ishlashga toʻgʻri kela boshladi. Bunday masalalarni yechishda elementar usullar yetishmagani uchun cheksiz marta takrorlanadigan amallarga murojaat eta boshladilar. [B. Kavalyeri](#) aylanma jismlar hajmini hisoblashda „boʻlinmaslar usuli“ni qoʻlladi, F. Viyet ayniyatni, J. Vallis 12.32.52.72,. tenglikni, N. Merkator formulani topdi. I. Barrou egri chiziqli temperaturapetsiya yuzi bilan urinmaning oʻzgarishi orasidagi munosabatni payqadi. XVII asr oxirida bu yoʻnalishdagi izlanishlar differensial va integral hisob yaratilishiga olib keladi. [G. Leybnits](#) yangi hisobga „cheksiz kichik“ kattaliklar tushunchasini asos qilib oldi — bunday kattaliklar oʻz holicha aniq maʼnoga ega boʻlmasada, ularning nisbatlari va cheksiz yigʻindilari tayin qiymatlarga teng chiqar edi. Leybnits bu usul bilan geometriyaning avvaldan yechilmay kelgan koʻplab muammolarini hal etish mumkinligini koʻrsatdi (1782—86 yy.).

[I. Nyuton](#) differensial va integral hisob gʻoyasiga boshqa tomondan — mexanika masalalari orqali yondashdi. Bu yerda ham ahvol geometriyaga oʻxshash edi: tekis harakatlarni oʻrgangan G. Galiley uchun elementar geometriya ki-foya qilgan boʻlsa, murakkabroq harakatlar murakkabroq chiziqlarni tekshirishni talab etar edi. I. Nyuton 1669-yilda bu mavzudagi tadqiqotlari jamlangan „Flyuksiyalar metodi“ nomli asarini I. Barrou va J. Kollinzga taqdim etgan, lekin u 1736-yilda nashr etilgan.

18-asrda M. taraqqiyoti, asosan, differensial va integral hisobni rivojlantirish hamda tatbiq etish bilan bogʻliq boʻldi. Bernullilar oilasi, Eyler, Dʼalamber, Lagranj, Lejandr va Laplas kabi koʻplab atoqli olimlar yangi sohani atroflicha rivojlantirib, matematik analiz nomi bilan kuchli tadqiqot quroliga aylantirdilar. Uning asosida differensial tenglamalar, variatsion hisob va differensial geometriya kabi mustaqil sohalar vujudga keldi.

Bu davrda Parij, Berlin, Peterburg akademiyalari va Kembrij universiteti yirik fan markazlariga aylangani, dastlabki ilmiy jur.lar nashr etila boshlagani M. taraqqiyotini jadallashtirdi. Proyektiv geometriya, ehtimollar nazariyasi, chiziqli algebra va sonlar

nazariyasi rivoj topdi, kompleks sonlar keng qo'llanib, kompleks o'zgaruvchili funksiyalar o'rganila boshladi.

19-asrda ham M.ning rivoji asosan 2 yo'nalishda: ham bo'yiga, ham ildizi tomon o'sishda davom etdi. Bu davrda M.ning hozir universitetlar quyi kurslarining dasturini tashkil etadigan sohalari: matematik analiz, analitik geometriya va chiziqli algebra, differensial tenglamalar, haqiqiy hamda kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyalari asosan shakllanib bo'ldi va ular asosida mutlaqo yangi g'oyalar kun tartibiga chiqa boshladi.

K. F. Gauss 1 darajali ko'phad kompleks sonlar maydonida pta chiziqli ko'paytuvchiga ajralishini (algebraning asosiy teoremasini) bekamu ko'st isbotladi. Bir necha asr davomida 5 darajali tenglamani yechish masalasi matematiklarni bezovta qilib kelgan edi. P. Ruffini va N. Abel bu tenglama ildizini uning koeffitsiyentlari orqali to'rt arifmetik amal hamda ildiz chiqarish orqali ifodalash mumkin emasligini asosladilar. E. Galua esa Lagranj, Lejandr g'oyalarini davom ettirib, algebraik tenglama ana shu ma'noda yechilish hechilmasligi masalasi ildizlarining simmetrik funksiyalari tenglamaning koeffitsiyentlari orqali ifodalanishiga bog'liq bo'lishini ko'rsatdi. Bu yerda Galua birinchi marta simmetriyaning o'lchovi vazifasini bajaradigan gruppaga tushunchasini qo'lladi. Bundan avvalroq shunga yaqin g'oya asosida Gauss sirkul va chizg'ich yordamida muntazam ko'pburchak yasash muammosini hal qilgan edi. Galua g'oyalaridan hosil bo'lgan maydonlar nazariyasi bunday yasashlar masalasini umumiy holda hal qilish im-konini berdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Varden V., Probujdayushayasya nauka, M., 1959;
2. Istoriya matematiki (v 3 tomax), M., 1970—72;
3. Matviyevskaya G. P., Ucheniye o chisle na srednevekovom Vostoke, T., 1967;
4. Burbaki N., Ocherki po istorii matematiki, M., 1963.
5. Metodologiyasi: Puankare A., O nauke, M., 1990; Klayn M., Matematika.
6. Utrata opredelyonnosti, M., 1984; Klayn M., Matematika. Poisk istini, M., 1988;
7. Matematicheskoye modelirovaniye, M., 1979; M. tarixi, to'plamlar, T. 2000;
8. Froydental G., Matematika kak pedagogicheskaya zadacha, Chasti 1 i 2, M., 1982-83.

## KIMYOVIY MODDA

*G'ijduvon tuman 2- son Kasb-hunar maktabining  
MATEMATIKA fani o'qituvchisi  
ISROILOVA DILNOZA  
Tel: (90)7310779*

**Annotatsiya :** kimyoviy modda shaklidir [materiya](#) doimiy kimyoviy tarkibi va xarakterli xususiyatlariga ega.<sup>[1]</sup> Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, kimyoviy moddani uning tarkibiy qismiga ajratib bo'lmaydi [elementlar](#) jismoniy ajratish usullari bilan, ya'ni buzilmasdan [kimyoviy aloqalar](#). Kimyoviy moddalar bo'lishi mumkin [oddiy moddalar](#), [kimyoviy birikmalar](#)

**Kalit so'zlar:** kimyoviy modda, [materiya](#) kimyoviy tarkib, xarakterli xususiyatlarig, kimyoviy moddani tarkibiy qismiga, [elementlar](#) jismoniy ajratish usullari, [kimyoviy aloqalar](#), Kimyoviy moddalar, [oddiy moddalar](#), [kimyoviy birikmalar](#)

Kimyoviy" yo'naltirishlar. Boshqa maqsadlar uchun qarang [Kimyoviy \(ajratish\)](#).



Bug 'va suyuq suv - bu bir xil kimyoviy (toza) moddaning ikki xil shakli: suv.

A **kimyoviy modda** shaklidir [materiya](#) doimiy kimyoviy tarkibi va xarakterli xususiyatlariga ega.<sup>[1][2]</sup> Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, kimyoviy moddani uning tarkibiy qismiga ajratib bo'lmaydi [elementlar](#) jismoniy ajratish usullari bilan, ya'ni buzilmasdan [kimyoviy aloqalar](#).<sup>[3]</sup> Kimyoviy moddalar bo'lishi mumkin [oddiy moddalar](#),<sup>[4]</sup> [kimyoviy birikmalar](#), yoki [qotishmalar](#). [Kimyoviy elementlar](#) ekspert nuqtai nazariga qarab, ta'rifga kiritilishi yoki kiritilmasligi mumkin.<sup>[4]</sup>

Kimyoviy moddalar ko'pincha ularni ajratish uchun "toza" deb nomlanadi [aralashmalar](#). Kimyoviy moddaning keng tarqalgan misoli toza [suv](#); u bir xil xususiyatlarga ega va bir xil [nisbat](#) ning [vodorod](#) ga [kislород](#) u daryodan ajratilganmi yoki a [laboratoriya](#). Odatda toza shaklda uchraydigan boshqa kimyoviy moddalar [olmos](#) (uglerod), [oltin](#), [osh tuzi](#) ([natriy xlorid](#)) va tozalangan [shakar](#) ([saxaroza](#)). Ammo, amalda, hech qanday modda butunlay toza



emas va kimyoviy tozaligi kimyoviy moddadan maqsadga muvofiq foydalanishga qarab belgilanadi.

Kimyoviy moddalar mavjud [qattiq moddalar](#), [suyuqliklar](#), [gazlar](#), yoki [plazma](#), va ular orasida o'zgarishi mumkin [moddaning fazalari](#) o'zgarishlar bilan [harorat](#) yoki [bosim](#). Kimyoviy moddalar yordamida birlashtirilishi yoki boshqalarga o'tkazilishi mumkin [kimyoviy reaksiyalar](#).

Shakllari [energiya](#), kabi [yorug'lik](#) va [issiqlik](#), bu muhim emas va shuning uchun bu borada "moddalar" emas.



Bitta kimyoviy rang ([Nil qizil](#)) turli xil erituvchilarda, ko'rinadigan va ultrabinafsha nurlar ostida, kimyoviy moddalarning hal qiluvchi muhiti bilan qanday qilib o'zaro ta'sirlashishini ko'rsatib beradi.

Kimyoviy modda "har qanday" deb ta'riflanishi mumkin [material](#) aniq kimyoviy tarkibi bilan "umumiy kimyoviy kimyo darsligida."<sup>[5]</sup> Ushbu ta'rifga ko'ra kimyoviy moddalar toza bo'lishi mumkin [kimyoviy element](#) yoki toza kimyoviy birikma. Ammo, bu ta'rifda istisnolar mavjud; sof moddani shakli sifatida ham aniqlash mumkin [materiya](#) ham aniq tarkibga, ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.<sup>[6]</sup> Tomonidan nashr etilgan kimyoviy moddalar indeksi [CAS](#) shuningdek, bir nechtasini o'z ichiga oladi [gotishmalar](#) noaniq tarkibi.<sup>[7]</sup> [Stoxiometrik bo'lmagan birikmalar](#) alohida holat (in [noorganik kimyo](#)) doimiy tarkibi qonunini buzadigan va ular uchun ba'zan aralash va birikma orasidagi chiziqni chizish qiyin bo'lgani kabi [palladiy gidrid](#). Masalan, kimyoviy yoki kimyoviy moddalarga nisbatan kengroq ta'riflarni topish mumkin: "" kimyoviy moddalar "atamasi ma'lum bir molekulyar identifikatsiyaning har qanday organik yoki noorganik moddalarini, shu jumladan - (i) bunday moddalarning to'liq yoki qisman sodir bo'lgan har qanday birikmalarini anglatadi kimyoviy reaksiya natijasi yoki tabiatda paydo bo'lishi ".<sup>[8]</sup>

Yilda [geologiya](#), bir xil tarkibli moddalar deyiladi [minerallar](#), fizik aralashmalar esa ([agregatlar](#)) bir nechta minerallarning (turli xil moddalar) quyidagicha ta'riflanadi [toshlar](#). Ammo ko'plab minerallar o'zaro eriydi [qattiq eritmalar](#), shunday qilib, bitta tosh, stoxiometrik atamada aralashma bo'lishiga qaramay, bir hil moddadir. [Dala shpatlari](#) umumiy misol: [anortoklaz](#) gidroksidi alyuminiy silikatdir, bu erda gidroksidi metall bir-birining o'rnini bosadigan natriy yoki kaliy hisoblanadi.

Qonunda "kimyoviy moddalar" tarkibiga sof moddalar ham, aniqlangan tarkibi yoki ishlab chiqarish jarayoni bilan aralashmalar ham kirishi mumkin. Masalan, [EI](#) tartibga

solish [YETISH](#) "monokonstituent moddalar", "ko'pkomponentli moddalar" va "tarkibi noma'lum yoki o'zgaruvchan moddalar" ni belgilaydi. Oxirgi ikkitasi bir nechta kimyoviy moddalardan iborat; ammo, ularning kimligi to'g'ridan-to'g'ri kimyoviy tahlil yoki bitta ishlab chiqarish jarayoniga murojaat qilish orqali aniqlanishi mumkin. Masalan, [ko'mir](#) bu juda murakkab, qisman polimer aralashmasi bo'lib, uni ishlab chiqarish jarayoni bilan belgilanishi mumkin. Shuning uchun, aniq kimyoviy identifikatsiya noma'lum bo'lsa-da, identifikatsiya etarlicha aniqlikda amalga oshirilishi mumkin. CAS indeksiga aralashmalar ham kiradi.

[Polimerlar](#) deyarli har doim ko'p miqdordagi molyar massali molekulalarning aralashmalari sifatida namoyon bo'ladi, ularning har biri alohida kimyoviy moddalar deb hisoblanishi mumkin. Biroq, polimer ma'lum bo'lgan oldingi yoki reaksiya (lar) tomonidan belgilanishi mumkin va [molyar massa taqsimoti](#). Masalan, [polietilen](#) -CH ning juda uzun zanjirlari aralashmasi<sub>2</sub>- takrorlanadigan birliklar va odatda bir necha molyar massali taqsimotlarda sotiladi, [LDPE](#), [MDPE](#), [HDPE](#) va [UHMWPE](#).

The [kontsepsiya](#) "kimyoviy modda" XVIII asr oxirida kimyogar ishlaganidan so'ng mustahkam o'rnashdi [Jozef Prust](#) kabi ba'zi toza kimyoviy birikmalar tarkibi to'g'risida [asosiy mis karbonat](#).<sup>[9]</sup> U shunday xulosaga keldi: "Murakkabning barcha namunalari bir xil tarkibga ega; ya'ni barcha namunalari aralashmada mavjud bo'lgan elementlarning massasi bo'yicha bir xil nisbatga ega". Bu endi sifatida tanilgan [doimiy tarkibi qonuni](#).<sup>[10]</sup> Keyinchalik uchun usullarning rivojlanishi bilan [kimyoviy sintez](#) xususan [organik kimyo](#); sohasidagi yana ko'plab kimyoviy elementlar va yangi texnikalarni kashf etish [analitik kimyo](#) elementlarni va birikmalarni kimyoviy moddalardan ajratish va tozalash uchun ishlatiladi, bu zamonaviylikni yaratishga olib keldi [kimyo](#), kontsepsiya kimyo darsliklarining aksariyat qismida aniqlangan. Shu bilan birga, ushbu ta'rif bilan bog'liq ba'zi tortishuvlar mavjud, chunki kimyo bo'yicha adabiyotlarda keltirilgan ko'plab kimyoviy moddalarni indeksatsiya qilish kerak.

[Izomeriya](#) dastlabki tadqiqotchilarni hayratda qoldirdi, chunki [izomerlar](#) aynan bir xil tarkibga ega, ammo atomlarning konfiguratsiyasi (joylashishi) bilan farq qiladi. Masalan, kimyoviy kimligi haqida ko'p taxminlar mavjud edi [benzol](#), to'g'ri tuzilish tomonidan tavsiflanmaguncha [Fridrix Avgust Kekule](#). Xuddi shunday, g'oyasi [stereoizomerizm](#) - atomlarning qattiq uch o'lchovli tuzilishga ega bo'lishi va shu bilan faqat uch o'lchovli joylashuvi bilan farq qiladigan izomerlarni hosil qilishi mumkinligi - bu aniq kimyoviy moddalar tushunchasini tushunishda yana bir muhim qadam bo'ldi. Masalan, [tartarik kislota](#) uchta aniq izomerga ega, jufti [diastereomerlar](#) bitta diastereomer ikkitasini tashkil etishi bilan [enantiomerlar](#).

Kimyoviy elementlar

[Advertisement](#)



Mahalliy oltingugurt kristallari. Oltingugurt tabiiy ravishda elementar oltingugurt sifatida uchraydi [sulfid](#) va [sulfat](#) minerallar va [vodorod sulfidi](#).

Asosiy maqola: [Kimyoviy element](#)

Shuningdek qarang: [Elementlar ro'yxati](#)

An [element](#) bu ma'lum bir atom turidan tashkil topgan kimyoviy moddadir va shuning uchun uni kimyoviy element reaksiyasi bilan boshqa elementga aylantira olmaydi, lekin uni boshqa elementga [yadro reaksiyasi](#). Buning sababi shundaki, element namunasidagi barcha atomlarning soni bir xil bo'ladi [protonlar](#), garchi ular boshqacha bo'lishi mumkin [izotoplar](#), ning turli xil raqamlari bilan [neytronlar](#).

2019 yildan boshlab 118 ta ma'lum element mavjud bo'lib, ularning taxminan 80 tasi barqaror - ya'ni ular o'zgarmaydi [radioaktiv parchalanish](#) boshqa elementlarga. Ba'zi elementlar bitta kimyoviy moddadan ko'proq bo'lishi mumkin ([allotropalar](#)). Masalan, kislorod ikkala diatomik kislorod sifatida mavjud ( $O_2$ ) va [ozon](#) ( $O_3$ ). Elementlarning aksariyati quyidagicha tasniflanadi [metallar](#). Bu xarakteristikaga ega elementlar [yorqinlik](#) kabi [temir](#), [mis](#) va [oltin](#). Metall odatda elektr va issiqlikni yaxshi o'tkazadi va ular ham shunday [egiluvchan](#) va [egiluvchan](#).<sup>[11]</sup> Taxminan o'nlab elementlar,<sup>[12]</sup> kabi [uglerod](#), [azot](#) va [kislorod](#), deb tasniflanadi [metall bo'lmaganlar](#). Metall bo'lmagan metallar yuqorida tavsiflangan metall xususiyatlariga ega emas, ular ham yuqori [elektr manfiyligi](#) va shakllanish tendentsiyasi [salbiy ionlar](#). Kabi ba'zi bir elementlar [kremniy](#) ba'zan metallarga o'xshaydi, ba'zan esa metall bo'lmaganlarga o'xshaydi va ular sifatida tanilgan [metalloidlar](#).

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xeyl, Bob (2013-09-19). [Kerakli mavjudotlar: Ontologiya, modallik va ular o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida esse](#). Oksford. ISBN 9780191648342. [Arxivlandi asl nusxasidan 2018-01-13](#).
2. <sup>^</sup> IUPAC, [Kimyoviy terminologiya to'plami](#), 2-nashr. ("Oltin kitob") (1997). Onlayn tuzatilgan versiya: (2006–) "[Kimyoviy moddalar](#)". doi:10.1351 / goldbook.C01039
3. <sup>^</sup> Hunter, Lourens E. (2012-01-13). [Hayot jarayonlari: Molekulyar biologiyaga kirish](#). MIT Press. ISBN 9780262299947. [Arxivlandi asl nusxasidan 2018-01-13](#).
4. <sup>^</sup> <sup>a</sup> <sup>b</sup> Scerri, Erik (2005). "[Oddiy va aralashmalar](#)". www.iupac.org. Olingan 15 may 2018.

5. <sup>^</sup> Xill, J. V.; Petrucci, R. H.; Makkreari, T. V.; Perri, S. S. *Umumiy kimyo*, 4th ed., P5, Pearson Prentice Hall, Yuqori Saddle River, Nyu-Jersi, 2005
6. <sup>^</sup> "[Sof moddalar - DiracDelta Science & Engineering Entsiklopediyasi](#)". *Diracdelta.co.uk*. Arxivlandi [asl nusxasi](#) 2013-05-11. Olingan 2013-06-06.
7. <sup>^</sup> [Ilova IV: Kimyoviy moddalar indeksleri nomlari](#) Arxivlandi 2007-12-03 da [Orqaga qaytish mashinasi](#)
8. <sup>^</sup> "[TSCA kimyoviy moddalarini inventarizatsiyasi](#)

## BINOM FORMULASI

TDPU dotsenti Tajiboyeva X.X.  
TAFU bakalavri Karimova N.Q

**Annotatsiya:** Algebra va analiz asoslari o`qitish texnologiyasi asosida o`quvchilar matematik modellar tuzishni bayon etdi. Bunda amaliy, tabiiy masalalar ko`rib o`tildi. Jumladan hayotdagi to`lov hujjatlari, avtomobillarni nomerlash, shaxsiy va boshqa hujjatlarni nomerlash, juda zarur bo`lgan masalalar yechish ko`rsatib o`tildi. Bu esa ishimizning amaliy ahamiyatini ko`rsatadi.

## Natural ko`rsatkichli binom formulasi

Quyidagi ifodalar bizga tanish

$$(a + b)^1 = a + b \quad (1)$$

$$(a + b)^2 = a^2 + 2ab + b^2 \quad (2)$$

$$(a + b)^3 = a^3 + 3a^2b + 3ab^2 + b^3 \quad (3)$$

$a$  va  $b$  koeffitsientlarga e`tibor beramiz. (1)-formulaning chap tomonida bu son 1,1 bu faktni  $C_1^0 = 1$ ,  $C_1^1 = 1$  bu yerda  $C_n^m$  n elementdan to m gacha kombinatsiya sonidir. (3) formuladagi koeffitsientlar  $C_3^0 = 1$ ,  $C_3^1 = 3$ ,  $C_3^2 = 3$ ,  $C_3^3 = 1$  ko`rinishda yozish mumkin.

Endi (2) va (3) larni quyidagi ko`rinishda yozamiz.

$$(a + b)^2 = C_2^0 a^2 + C_2^1 ab + C_2^2 b^2$$

$$(a + b)^3 = C_3^0 a^3 + C_3^1 a^2 b + C_3^2 ab^2 + C_3^3 b^3$$

Bu tengliklar bizga n chi darajali N son uchun quyidagi formulani keltirib chiqarishga yordam beradi.

$$(a + b)^n = C_n^0 a^n + C_n^1 a^{n-1} b + C_n^2 a^{n-2} b^2 + \dots + C_n^n b^n \quad (4)$$

Buni biz matematik induksiya orqali isbotlashimiz mumkin.

$n=1$  da (4)-quyidagi ko`rinishni oladi

$$(a + b)^1 = C_1^0 a + C_1^1 b$$

Ya`ni (1)- tenglik.

Faraz qilaylik (4)  $n=m$  da isbotlangan, ya`ni quyidagi ko`rinishni oladi.

$$(a + b)^m = C_m^0 a^m + C_m^1 a^{m-1} b + \dots + C_m^m b^m \quad (5)$$

(4) formula  $n=m+1$  ham to`g`riligini isbotlaymiz.

Buning uchun (5) ning ikkala qismi  $(a+b)$  ga ko`paytiriladi.

$$(a + b)^{m+1} = (C_m^0 a^m + C_m^1 a^{m-1} b + C_m^2 a^{m-2} b^2 + \dots + C_m^m b^m)(a + b) = \\ = C_m^0 a^{m+1} + (C_m^0 + C_m^1) a^m b + (C_m^1 + C_m^2) a^{m-1} b^2 + \dots + C_m^m b^{m+1}$$

$C_m^k$  xossasini isbotlaymiz.

$$C_m^0 = C_{m+1}^0 = 1, \quad C_m^m = C_{m+1}^m = 1, \quad C_m^k + C_m^{k-1} = C_{m+1}^k$$

Unda (6) – tenglik quyidagi ko' rinishni oladi.

$$(a + b)^{m+1} = C_{m+1}^0 a^{m+1} + C_{m+1}^1 a^m b + C_{m+1}^2 a^{m-1} b^2 + \dots + C_{m+1}^{m+1} b^{m+1} \quad (7)$$

(7)- tenglik  $n=m+1$  da (4) – formulani anglatadi. SHu narsani anglatish kerak edi.

**(4)- formula Binom formulasi** deyiladi.

### **Kasr va manfiy ko'rsatkichli binom formulasi**

SHu narsani aytishimiz kerakki (4)-formula Nyuon`onga ham ma'lum edi. Bu yo'nalishdagi ishlar o'rta Osiyolik olim G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy (1420 yy.) asarlarida uchraydi. Nyuon`onning xissasi shundaki u (4) ni manfiy va kasrli ko'rsatkichlari bo'yicha isbotlab beradi. Lekin aniq isbotlab bermagan. Bo'tun musbat ko'rsatkichli sonlar uchun Yakob Bernulli tomonidan isbotlangan manfiy va kasrli ko' rinishlar uchun (4) formula quyidagicha yoziladi.

$$(a + b)^\alpha = \binom{\alpha}{0} a^\alpha + \binom{\alpha}{1} a^{\alpha-1} b + \binom{\alpha}{2} a^{\alpha-2} b^2 + \dots + \binom{\alpha}{n} a^{\alpha-n} b^n + \dots \quad (8)$$

Bu yerda

$$\binom{\alpha}{n} = \frac{\alpha(\alpha-1)(\alpha-2)\dots(\alpha-(n-1))}{n!}, \quad \alpha \neq 0$$

(8) formulani isboti.

$$f(x) = (1+x)^\alpha$$

funktsiyani ko' rib o' tamiz. Faraz qilaylik bu funktsiya quyidagiko' rinishda ifodalangan bo' lsin.

$$f^0(x) = A_0 + A_1x + A_2x^2 + \dots + A_nx^n + \dots \quad (9)$$

Bu yerda .  $A_0, A_1, A_2$  noma' lum koeffitsienlardir. Koeffitsienlarni aniqlash uchun (9) dan xosilalar topamiz

$$\left. \begin{aligned} f'(x) &= A_1 + 2A_2x + 3A_3x^2 + \dots + nA_nx^{n-1} + \dots \\ f''(x) &= 1 \cdot 2A_2 + 2 \cdot 3A_3x + \dots + n \cdot (n-1)A_nx^{n-2} + \dots \\ f'''(x) &= 1 \cdot 2 \cdot 3A_3 + 2 \cdot 3 \cdot 4A_4x + \dots \\ &\dots \\ f^{(n)}(x) &= n(n-1)(n-2)\dots 2 \cdot 1A_n + \dots \end{aligned} \right\} \quad (10)$$

$x=0$  da (9) va (10) dan quyidagilarni topamiz

$$f(0) = A_0$$

$$f'(x) = A_1 = 1! A_1$$

$$f''(0) = 1 \cdot 2 \cdot A_2 = 2! A_2$$

$$f'''(0) = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot A_3 = 3! A_3$$

.....

$$f^{(n)}(0) = n! A_n$$

$$A_0 = f(0)$$

$$A_1 = \frac{1}{1!} f'(0)$$

$$A_2 = \frac{1}{2!} f''(0)$$

$$A_3 = \frac{1}{3!} f'''(0)$$

.....

$$A_n = \frac{1}{n!} f^{(n)}(0)$$

Endi bu  $f(x) = (1+x)^\alpha$  funktsiyadan xosilalar

$$f'(x) = \alpha(1+x)^{\alpha-1}$$

$$f''(x) = \alpha(\alpha-1)(1+x)^{\alpha-2}$$

$$f'''(x) = \alpha(\alpha-1)(\alpha-2)(1+x)^{\alpha-3}$$

.....

$$f^{(n)}(x) = \alpha(\alpha-1)(\alpha-2) \dots [\alpha-(n-1)](1+x)^{\alpha-n}$$

$x=0$  da quyidagilarni topamiz.

$$f(0) = 1$$

$$f'(0) = \alpha$$

$$f''(0) = \alpha(\alpha-1) \tag{12}$$

$$f'''(0) = \alpha(\alpha-1)(\alpha-2)$$

.....

$$f^{(n)}(0) = \alpha(\alpha-1)(\alpha-2) \dots [\alpha-(n-1)]$$

(12) va (11) lani qo' yib quyidagini topamiz

$$A_0 = 1$$

$$A_1 = \frac{\alpha}{1!}$$

$$A_2 = \frac{\alpha(\alpha-1)}{2!}$$

$$A_3 = \frac{\alpha(\alpha-1)(\alpha-2)}{3!} \tag{13}$$

.....

$$A_n = \frac{\alpha(\alpha-1)(\alpha-2)\dots[\alpha-(n-1)]}{n!}$$

(13) va (9)ni kuyib kuyidagilarni topamiz.

$$(1+x)^\alpha = 1 + \frac{\alpha}{1!}x + \frac{\alpha(\alpha-1)}{2!}x^2 + \frac{\alpha(\alpha-1)(\alpha-2)}{3!}x^3 + \dots + \frac{\alpha(\alpha-1)(\alpha-2)\dots[\alpha-(n-1)]}{n!}x^n + \dots$$

$\alpha$  ixtiyoriy son bo'lgani uchun unda  $C_\alpha^n$  gacha o'zgartirish kiritamiz.

$$\frac{\alpha(\alpha-1)(\alpha-2)\dots[\alpha-(n-1)]}{n!} = \binom{n}{\alpha}$$

A N sonlarda  $\binom{n}{\alpha} = C_\alpha^n$  shunday qilib

$$(1+x)^\alpha = \binom{0}{\alpha} + \binom{1}{\alpha}x + \binom{2}{\alpha}x^2 + \binom{3}{\alpha}x^3 + \dots + \binom{n}{\alpha}x^n + \dots$$

olamiz.

Endi  $x = \frac{b}{a}$  shundan

$$(a+b)^\alpha = \binom{0}{\alpha}a^\alpha + \binom{1}{\alpha}a^{\alpha-1}b + \binom{2}{\alpha}a^{\alpha-2}b^2 + \dots + \binom{n}{\alpha}a^{\alpha-n}b^n$$

olamiz (8) formula isbotlandi.

Masalan:

1. Nyuoton Binomi formulasi bo'yicha yoyib chiqamiz.

$$(1+x)^{-1} \quad a=1, \quad b=x, \quad \alpha=-1$$

$$1) (1+x)^{-1} = 1 - x + x^2 - x^3 + \dots + (-1)^n x^n + \dots$$

$$2) (1+x)^{\frac{1}{2}} = \sqrt{1+x} \quad a=1, \quad b=x, \quad \alpha=\frac{1}{2}$$

$$\sqrt{1+x} = 1 + \frac{1}{2}x - \frac{1}{8}x^2 + \dots$$

$$3) (1+x)^{-\frac{1}{2}} = 1 - \frac{1}{2}x + \frac{3}{8}x^2 - \dots$$

### Binom formulasini umumlashtirish

Endi umumiyroq formulani isbotlaymiz.

$$(a_1 + a_2 + \dots + a_k)^n = \sum_{\alpha_1 + \alpha_2 + \dots + \alpha_k = n} \frac{n!}{\alpha_1! \alpha_2! \dots \alpha_k!} a_1^{\alpha_1} a_2^{\alpha_2} \dots a_k^{\alpha_k}$$

Isbot: n bir xil to'plamlarni ko'rib chiqamiz.



$$n \left\{ \begin{array}{l} (a_1 + a_2 + \dots + a_k) \\ (a_1 + a_2 + \dots + a_k) \\ \dots \\ (a_1 + a_2 + \dots + a_k) \end{array} \right.$$

Ularni ko' paytirish qoidalari bo' yicha ko' paytirib chiqamiz. Natijada biz quyidagi summaga ega bo' lamiz va u

$$a_1 a_2 \dots a_n \quad (15)$$

ko' rinishga ega bo' ladi. Indekslar uchun 1,2,...,k sonlar o' rinlidir. k elementdan  $a_1, \dots, a_k$  to n takrorlanishlar bilan hosil bo' lgan (15) ifodalarning soni tengdir, ya' ni  $k^n$  dan olingan hadlar, qaysiki  $a_1$   $\alpha_1$  marta,  $a_2$   $\alpha_2$  marta va boshqalar shuncha marta tashkil etadi. .... marta tashkil etadi va quyidagiga tengdir:

$$\alpha_1 + \alpha_2 + \dots + \alpha_n = n$$

Har qaysi had **o' rinlashtirishlarga bog' liq bo' lib, takrorlanadi:**

$$a_1 a_2 \dots a_n$$

Qaysiki bunda  $a_1$   $\alpha_1$  marta uchraydi,  $a_2$   $\alpha_2$  marta uchraydi va h.o,  $a_k$   $\alpha_k$  marta uchraydi. Bu hadlarning qiymati mumkin bo' lgan takrorlanishlar bilan o' rinlashtirishlar soniga tengdir. Bunda  $a_1, a_2, \dots, a_n$  elementlarda ko' rsatilgan son bo' yicha shuncha marta uchraydi va h.o.

$$\frac{n!}{\alpha_1! \alpha_2! \dots \alpha_k!} \quad (16)$$

Mulohazaning ko' rinishida

$$(a_1 + a_2 + \dots + a_k)^n$$

Ko' paytmalar summa ko' rinishda

$$a_1^{\alpha_1} a_2^{\alpha_2} \dots a_k^{\alpha_k}$$

(16) koeffitsient bo' lib kiradi, bu yerda

$$\alpha_1 + \alpha_2 + \dots + \alpha_n = n$$

Bu bilan (14) – formula isboti tugaydi.

(14) formula k=2 da (4) Nyuon-Binomi formulasi hisoblanadi.

**Masalan:**

Isbotlangan formula bo'yicha hisoblaymiz.  $(a_1 + a_2 + a_3)^3$

$$\begin{aligned}(a_1 + a_2 + a_3)^3 &= \frac{3!}{3!0!0!} \cdot a_1^3 + \frac{3!}{0!3!0!} \cdot a_2^3 + \frac{3!}{0!0!3!} \cdot a_3^3 + \frac{3!}{2!1!0!} \cdot a_1^2 a_2 + \frac{3!}{2!0!1!} \cdot a_1^2 a_3 + \frac{3!}{0!2!1!} \cdot a_2^2 a_3 + \\ &+ \frac{3!}{1!2!0!} \cdot a_2 a_1^2 + \frac{3!}{1!0!2!} \cdot a_1 a_2^2 + \frac{3!}{0!1!2!} \cdot a_2 a_3^2 + \frac{3!}{1!1!1!} \cdot a_1 a_2 a_3 = \\ &= a_1^3 + a_2^3 + a_3^3 + 3(a_1^2 a_2 + a_1^2 a_3 + a_2^2 a_3 + a_1 a_2^2 + (a_1 a_2^2 + a_2 a_3^2)) + 6 a_1 a_2 a_3\end{aligned}$$

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Айерленд К., Раузен М. Классическое введение в современную теория чисел. Перевод с английского. –М. Мир 1987.
2. Гаимназаров О.Г. Математикадан амалий масалалар ечиш намуналари. Т.: «Фан», 2006 й.
3. Боревич З.И., Шафаревич И.Р. Теория чисел. –М. наука, 1985.

## FIZIKA O'QITISHDA OLIMPIADA MASALALARINING O'RNI VA ROLI

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Sheraliev S.S*  
*TDTUOF o'qituvchisi Qodirov S.P*  
*TAFU bakalavri Karimova N.Q*

**Annotatsiya:** Fizikadan qiyin masalalarni yoki olimpiada masalalarini yechish o'quvchilarning ilmiy dunyoga kirishdagi dastlabki qadami hisoblanadi. Har bir masala mustaqil ravishda hal qilinishi lozim bo'lgan kichik ilmiy muammodir. Olimpiada masalalari - bu olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlarida uchraydigan ilmiy muammolarning bir turidir .

Fan va texnikaning bugungi taraqqiyoti tabiiy va texnika sohalarida ko'proq yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni taqozo etadi. Buning uchun fizika fanini o'qitish samaradorligini oshirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish shu kunning dolzarb muammolaridan biridir. Agar ta'lim dargohida to'garaklar tashkil qilinsa, o'quvchilar o'rtasida fizik bellashuvlar o'tkazilsa, fanlar bo'yicha sirtqi olimpiadalarni o'tkazish yo'lga qo'yilsa, o'quvchilarni qiziqishi oshadi, qobiliyati shakllanadi va o'ziga bo'lgan ishonchi yanada yuksaladi.

Fizikadan masalalarni yechish o'quvchilarning ilmiy dunyoga kirishdagi dastlabki qadami hisoblanadi. Har bir masala mustaqil ravishda hal qilinishi lozim bo'lgan kichik ilmiy muammodir. Ammo hozirgi kunda fizikadan masala yechish kitoblari sanoqlidir, ayniqsa uzluksiz ta'limning asosiy bosqichi bo'lmish Oliy ta'lim dargohlariga tayyorlab beruvchi akademik litseylarda masala yechish naqadar muhim bo'lishiga qaramasdan o'zbek tilidagi adabiyotlar soni cheklangan. Ayniqsa masalalar yechish usullari ko'rsatib o'tilgan darsliklar juda kam.

Masala yechish - fizika o'qitish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u fizik tushunchalarni shakllantirishga katta xissa qo'shadi, fizik fikrlarni rivojlantiradi, bilimni amalda qo'llash malakasini orttiradi. Fizika masalalarini yechish quyidagi hollarda keng qo'llaniladi:

- a) yangi axborotlar berishda;
- b) muammoli vaziyat hosil qilish va o'quvchilarga muammo qo'yishda;
- d) amaliy malaka va ko'nikmani shakllantirishda;
- e) o'quvchilar bilimining mustaxkamligi va chuqurligini sinashda;
- f) materialni mustaxkamlash, umumlashtirish va takrorlashda;
- g) texnika yutuqlari bilan tanishtirishda va politexnik ta'lim berishda;
- h) o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda.[7]

Masala yechish orqali o`quvchilarning mehnatsevarligi, sinchkovligi, mustaqil Mulohaza yuritishi, o`qishga qiziqishi va xulqi, qo`yilgan maqsadga erishishdagi qat`iyligi tarbiyalanadi. Fizikadan masala yechish o`quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi, ularni olimlarning ishlari, fan va texnikaning yutuqlari bilan tanishtirib boradi. Masala yechish ko`p hollarda fizika darslarining tarkibiy qismi bo`lib keladi. O`qituvchi yangi mavzuni bayon qilishda va uni mustaxkamlashda, o`tilganlarni takrorlashda, o`quvchilarning mustaqil ishlarida va bilimlarini sinab ko`rishda masala yechishdan foydalanadi. Fizikaga qiziquvchi o`quvchilar bilan sinfdan tashqari mashg`ulotlarda ham masalalar yechiladi, ular olimpiadaga tayyorlanadi. Olimpiadaga yechilishi qiyin va yangilik elementlarini o`z ichiga olgan masalalar tanlanadi.

Masala yechish - olingan nazariy bilimni amaliyotga qo`llashdir. Bu esa o`quvchilarning fizik tafakkurini (fikrlashini) rivojlantirishda, jumladan hodisalarni tahlil qilishda, ular xaqidagi ma`lumotlarni umumlashtirishda, o`xshash tomonlarini va farqini aniqlashda katta ahamiyatga egadir. Mantiqiy xulosalar, matematik amallar va fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan xolda yoki eksperiment yordamida yechiladigan muammo fizik masala deyiladi. Fizik masalada qo`yilgan muammoni xal etish, masala yechishdan iboratdir Masala yechish orqali talabalar bilimlarini kengaytiradilar. Qonun va formulalarni chuqurroq bilishni o`rganadilar, ularni qo`llanish chegaralarini ko`rib chiqadilar. Umumiy qonuniyatlarni aniq bir vaziyatlarga qo`llash malakasini egallaydilar.

Masala yechish jarayonida hisoblash, adabiyotlar va ma`lumotnomalar bilan ishlash malakalari hosil bo`ladi. Masala yechish aqliy faoliyatni, fizik hodisalarga maxsus yondashish yo`llarini shakllantiradi. O`quvchilar ma`lum bir mavzuga oid masala yechishda keng hodisalar ko`lamini bilishga jiddiy yondashishni o`rganadilar.

Masala yechish bo`yicha amaliy mashg`ulotlarda hisoblash malakasini oshirishga mo`ljallangan mashq-masalalar, u yoki bu qonunlarning qo`llanishlarini namoyish qiluvchi masalalar, bilimni mustahkamlash va nazorat qilish masalalari va bilimni orttirishga xizmat qiladigan masalalar ko`rib boriladi. Bilimni mustahkamlash va nazorat qilishga oid masalalar va mashqlar ma`ruzadan va kitobdan olingan tayyor bilimni qo`llashga mo`ljallanadi. Bu masalalar asosan xotira va diqqat mexanizmiga asoslanadi. Masalan, berilgan sharoitda (haroratda) molekularning o`rtacha kvadratik tezligini hisoblashga oid mashq-masala yechish orqali o`quvchi molekula tezligining juda kattaligiga ishonch hosil qiladi, formulalar takrorlanadi. Bularning hammasi fizikani o`rganishda foydalidir.

Avval ma`lum bo`lganlar bilan yangi no`malumlar orasida bog`lanishlarni o`rnatuvchi masalalar aqliy faoliyatni qo`zg`atuvchi bo`lib xizmat qiladi. Bunday masalalar bilimni orttirishga xizmat qiluvchi masalalardir. Ularni yechish orqali talabalar yangi bilimlar oladilar. Agar talaba nazariy jihatdan bo`sh bo`lsa, bunday

masalalarni yecha olmasligi mumkin. Shuning uchun o'quvchilarning nazariy tayyorgarligiga e'tibor qilish lozim, aks holda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Texnik sabablarga ko'ra (integral ololmaydi, tenglamani yechish yo'lini unutmagan) o'quvchi masalani yecha olmasa, u bundan qo'rqmaydi, lekin masalaning mohiyatiga tushunmasa, uni yechish uchun ko'p ishlash lozimligini anglasa, mustaqil ishlashga hoxishi kamayishi mumkin. Shuning uchun mashq-masalalardan sekin asta bilimni orttirishga xizmat qiluvchi masalalarga o'tib borish lozim, bunda o'quvchilarning ko'pchiligi ularni yecha oladigan bo'ladilar.[4]

### Fan olimpiadalari to'rt bosqichda o'tkaziladi:

Olimpiada bosqichlari	Bosqich qamrovi	O'tkazish muddati
<b>I-bosqich</b>	<b>O'qish joyi bo'yicha</b>	<b>25 noyabr - 10 dekabr</b>
<b>II-bosqich</b>	<b>Tuman (shahar)larda</b>	<b>2-10-yanvar</b>
<b>III-bosqich</b>	<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida</b>	<b>25-30 mart</b>
<b>IV-bosqich</b>	<b>Respublika bo'yicha</b>	<b>25-30 may</b>

Fan olimpiadalarini o'tkazish kuni, olimpiada turlarini o'tkazish ketma-ketligi tashkiliy qo'mita tomonidan belgilanadi va tasdiqlangan maxsus jadval asosida tashkil etiladi.

O'quvchilar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarga ajratiladigan vaqt va ularga qo'yiladigan ballar fanlar bo'yicha tayyorlangan baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi. Olimpiada o'tkaziladigan fanlar bo'yicha baholash mezonlari Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va qo'shma buyruq bilan tasdiqlanadi.

Barcha fanlar bo'yicha g'oliblar baholash mezonlari asosida aniqlanadi. G'oliblikka da'vogar o'quvchilarning umumiy to'plagan ballar yig'indisi teng bo'lib qolganda, ularga qo'shimcha 5 tadan test topshiriqlari beriladi. Mazkur 5 ta test savollariga berilgan javoblar ballari teng bo'lsa, g'olib aniqlangunga qadar test-sinovi davom ettiriladi.

Ota-onalar vakillari qur'a tashlash yo'li bilan auditoriyaga taqsimlanadi. Ishtirokchi o'quvchi va uning ota-onasini bir auditoriyada bo'lishi taqiqlanadi.

Olimpiada sinoviga belgilangan vaqtdan kechikib kelgan ishtirokchi o'quvchilar auditoriyaga kiritilmaydi.

Fan olimpiadasi jarayonida belgilangan tartib va qoidalarga amal qilmagan o'quvchi auditoriya rahbari va nazoratchilar dalolatnomasi asosida olimpiadadan chetlashtiriladi. Bu haqida tegishli dalolatnoma tuzilib, uni auditoriya rahbari va nazoratchilar imzolaydilar. Ushbu dalolatnomalar hakamlar hay'ati raisiga topshiriladi.

Eslatma: o'quvchilar olimpiada boshlanishi oldidan zaruriy hojat ishlarini bajarishlari haqida ogohlantiriladi. Yozma ish va test paytida o'quvchilarning auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi. Auditoriyadan chiqqan o'quvchi qayta test sinovlariga qo'yilmaydi. Yozma ishlar va test sinovi davomida o'quvchilarning bir-birlari bilan gaplashishi, javoblarni bir-biriga ko'rsatishi, kitoblardan, kalkulyatorlardan, uyali telefon aloqa vositalaridan foydalanishi va boshqalarga ko'maklashishi taqiqlanadi.

### **Fan olimpiadalarining birinchi bosqichini o'tkazish tartibi**

Fan olimpiadasining birinchi bosqichini o'tkazish mas'uliyati akademik litsey va umumta'lim maktablari direktorlari zimmasiga yuklanadi.

Mazkur bosqichda matematika, informatika, tarix, huquqshunoslik, iqtisodiy bilim asoslari, geografiya va chizmachilik fanidan olimpiada ikki turda (test sinovi, amaliy ish), ona tili va adabiyot, o'zbek tili (ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda), rus tili va adabiyoti (o'zbek va boshqa tillarda o'qitiladigan guruhlarda), rus tili va adabiyoti (rus guruhlarida), ingliz, nemis, fransuz, qozoq va tojik tili hamda qoraqalpoq tili va adabiyoti fanlari uch turda (test sinovi, og'zaki va yozma), fizika, biologiya, kimyo fanlaridan uch turda (yozma ish, laboratoriya ishi, test sinovlari) o'tkaziladi.[6]

Olimpiadaning birinchi bosqichida o'quvchilarga bir yoki ikki fandan o'z imkoniyatlarini sinab ko'rishlari uchun sharoit yaratiladi. Olimpiadaning qolgan bosqichlarida har bir o'quvchi o'zi istagan va eng yaxshi natijalarga erishgan faqat bitta fan bo'yicha ishtirok etishi mumkin.

Fan olimpiadalarining birinchi bosqich natijalari ta'lim muassasasining pedagogika kengashlarida muhokama etiladi, g'oliblarning olimpiadaning II tuman (shahar) bosqichida qatnashishi to'g'risida qaror qabul qilinadi va 1-2-3-o'rinni egallagan g'oliblarning II-bosqichda ishtirok etishi haqidagi buyurtmalari olimpiadaning ikkinchi bosqichini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi. Birinchi bosqich g'olib o'quvchilari akademik litsey yoki umuta'lim maktabi ma'muriyati tomonidan rag'batlantiriladi.

### **Fan olimpiadalarining ikkinchi bosqichini o'tkazish tartibi**

Fan olimpiadasining ikkinchi bosqichini o'tkazish mas'uliyati O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasi va tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari rahbarlarining zimmasiga yuklanadi.

Mazkur bosqichda olimpiada matematika, informatika, tarix, huquqshunoslik, iqtisodiy bilim asoslari, geografiya va chizmachilik fanidan ikki turda (test sinovi, amaliy ish), ona tili va adabiyot, o'zbek tili (ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda), rus tili va adabiyoti (o'zbek va boshqa tillarda o'qitiladigan guruhlarda), rus tili va adabiyoti (rus guruhlarida), ingliz, nemis, fransuz, qozoq va tojik tillari hamda qoraqalpoq tili va adabiyoti fanlaridan uch turda (test sinovi, og'zaki va yozma ish), fizika, biologiya, kimyo fanlaridan uch turda (test sinovi, yozma ish, laboratoriya ishi) o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqich uchun test sinovi, yozma ish va amaliy topshiriqlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari hamda tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi metodika kabinetlari, viloyat pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Ushbu materiallar tuman (shahar) bosqichini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanib, maxfiyligi ta'minlanadi va joylarga fan olimpiadalarini o'tkazish kuni etkaziladi.

Fan olimpiadalarining ikkinchi bosqich natijalari tuman tashkiliy ko'mitasida muhokama etiladi, g'oliblarning III viloyat olimpiadasida qatnashishi to'g'risida qaror qabul qilinadi va olimpiada o'tkaziladigan fanlardan I-II-III- o'rinni egallagan g'oliblarning uchinchi bosqichda ishtirok etishi haqidagi buyurtmalar olimpiadaning III-bosqichini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi

Ikkinchi bosqich g'olib o'quvchilari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasi va tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan rag'batlantiriladi.

Fan olimpiadalarining uchinchi bosqichini o'tkazish tartib

Fan olimpiadalarining uchinchi bosqichini tashkil etish O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda Xalq ta'limi vazirligining hududiy bo'linmalari rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

Fan olimpiadalarining uchinchi bosqichi ikki turda (yozma (amaliy) ish va test sinovi ko'rinishida) o'tkaziladi.

Uchinchi bosqichda qatnashgan o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishlar viloyat tashkiliy qo'mitasi tomonidan chuqur tahlil etiladi. Fanlar bo'yicha g'olib bo'lgan o'quvchilarning bajargan test topshiriqlari, yozma (amaliy) ish topshiriqlari hamda tavsiya etilgan boshqa hujjatlar behato rasmiylashtirilgan holda bevosita Respublika tashkiliy qo'mitasining vakiliga olimpiada tugagan kunning ertasiga viloyat tashkiliy qo'mitasi raisi yoki mas'ul kotibi tomonidan shaxsan topshiriladi.

Hujjatlari o'z vaqtida topshirilmagan jamoa a'zosi to'rtinchi bosqich olimpiadalarida qatnashish huquqidan mahrum etiladi.

Fan olimpiadalarining III bosqichida test-sinovlari, yozma (amaliy) ishlardan jami 76-100 ball oralig'ida ball to'plab 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining III-kurs o'quvchilari hamda umumta'lim

maktablari (shu jumladan ayrim fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlar)ning 11-sinf o'quvchilari fan olimpiadalarining IV bosqichiga qo'yiladi.

Fan olimpiadalarining to'rtinchi bosqichini o'tkazish tartibi

Fan olimpiadalarining IV bosqichini tashkil etish va o'tkazish mas'uliyati O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi hamda Xalq ta'limi vazirligiga yuklanadi.

Fan olimpiadalarining to'rtinchi bosqichi ikki turda (yozma ish va test sinovi ko'rinishda) o'tkaziladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`lmasova M.X. Mexanika va molekulyar fizika: Akademik litseylar uchun qo`llanma. 2-nashri – T,: “O`qituvchi”, 2004. – 432 bet.
2. Turdiev N.Sh.. VI -sinf Fizika darsligi. Toshkent 2006 yil. 18-b
3. Akademik listeylar uchun fizika fanidan o`quv dasturi. T, 1999.  
Mahmudov Y.G'. Fizikadan savol - masalalar to`plami. T. O`qituvchi. 1994. 224b
4. Pyorishkin A.V., Razumovskiy V.G, Fabrikant V.A. taxriri ostida. Fizika o'qitish metodikasi asoslari Toshkent. «O`qituvchi». 1990.
5. Воробьев И.И., Зубков П.И, Савченко О.Я. ва бошқалар. Задачи по физике. М.: “Наука” 1981.



## QATTIQ JISM ELEKTRONLAR NAZARIYASI ELEMENTLARI

*TDPU dotsenti Tajiboyeva X.X*  
*TDTUOF o'qituvchisi Qodirov S.P*  
*TAFU bakalavri Karimova N.Q*

**Annotatsiya:** Tabiatdagi moddalar gaz, suyuqlik, qattiq jism va plazma holatlarida bo'ladi. Bu holatlar moddaning agregat holatlarideb atalib, bir-biridan fizik xossalari bilan farq qiladilar. Qattiq jismlarning suyuqlik va gazlardan farqishundaki, ular o'z shakllarini saqlaydi va ularda oquvchanlikko'zatiilmaydi. Mikroskopik nuqtai nazardan bunday farqning bo'lishi, moddani tashkil etuvchi atom va molekular orasidagi o'zaro ta'sir energiyasining katta yoki kichikligi bilan tushuntiriladi.

Suyuqlik va gazlarda ularni tashkil qiluvchi atom va molekular orasidagi o'zaro ta'sirlashish energiyasi ularning issiqlik harakati energiyasidan kichik bo'ladi. Shuning uchun suyuqlik yoki gazni tashkil etuvchi atom va molekular bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko'chib yurishimumkin, ya'ni okuvchanlik xossasiga ega. Qattiq jismlarda esamolekula yoki atomlar orasidagi ta'sirlashuv energiyasi ularning issiqlik harakati energiyasidan ancha katta bo'ladi, shuning uchun ular erkin ko'chib yura olmaydi va muvozanat vaziyatlari atrofida tebranma harakat qilib turadi. Demak, qattiq jismni boshqa agregat holatlardan ajratib turuvchi asosiyfarqlari:

- a) birinchidan, uning normal sharoitda o'z shaklinisaklashi;
- b) ikkinchidan, ularni tashkil etuvchi atom molekularning tebranma harakatda bo'lishidir.

Qattiq jismlar tuzilishiga ko'ra amorf, kristall, shisha-simon va polimer qattik jismlarga bo'linadi. Bundan tashqari qattiq jismlar uni tashkil qiluvchi atom yoki molekularning o'zaro boglanishiga ko'ra ham farqlanadi.

Biz bilamizki boshqa moddalarga qaraganda metallarda elektr o'tkazuvchanlik juda yaxshi bo'ladi. Elektr tokini yaxshi o'tkazishi ularning zonaviy strukturasi bilan tushuntiriladi. Elektr toki oqa boshlashi uchun elektronlar elektr maydonida tezlanish olish,o'z energiyasini oshirish imkoniga ega bo'lishi kerak. Agar zona qismangina to'lgan bo'lsa u holda elektron energiyasi deyarli uzluksiz o'zgarishi mumkin(elektron bunda bo'sh qo'shni sathga o'tadi) va elektr maydoni osongina tok hosil qiladi..Metall o'tkazgichdan o'tayotgan tokning zichligi unga qo'yilgan elektr maydon kuchlanganligiga to'g'ri proporsional.

$$j = \sigma \cdot E \quad (1.1.1)$$

Bu ifoda Om qonuni deb nomlanadi. Proporsionallik koeffitsienti  $\sigma$  solishtirma elektr o'tkazuvchanlik unga teskari proporsional

$$\rho = \frac{1}{\sigma} \quad (1.1.2)$$

(1.1.2) formuladagi  $\rho$  kattalik esa solishtirma elektr qarshilik deyiladi. Metallarning qashiligi  $10^{-8} \div 10^{-6} \text{ om}\cdot\text{m}$  oralig'ida qiymatlarga ega. Metallarning elektr o'tkazuvchanligini tushuntirib beruvchi modellardan birinchisi Drude ishlab chiqdi. J.J. Tomson 1897 yili elektronni kashf qilgandan uch yil o'tgach, Drude o'zining elektr va issiqlik o'tkazishning klassik nazariyasini ishlab chiqdi. Ushbu nazariyaga asosan metallarni erkin elektronlar gaziga botirilgan ionlardan iborat deb tasavvur qilinadi. Undan tashqari, nazariya yana quyidagi farazlarga asoslangan:

A) elektronlar kristall bo'ylab erkin ko'chib yura oladi. Ular o'z harakati davomida kristall panjarasi tugunlaridagi ionlar bilan to'qnashadi.

Elektronlarning bir-biri bilan to'qnashuvlari hisobga olinmaydi. Ikki to'qnashuv orasida elektron Nyuton qonuniga asosan to'g'ri chiziq bo'ylab harakat qiladi.

V) elektronlarning metall ionlari bilan to'qnashuvi oddiy zaryadsiz sharchalar to'qnashuvidек sodir bo'ladi.

S) elektronlarning ikki ketma-ket to'qnashuvlar orasidagi harakati o'rtacha vaqti  $\bar{\tau}$  kiritilgan va uni elektronning o'rtacha erkin yugurish vaqti deb nomlanadi. Elektronning vaqt birligidagi to'qnashuvlar ehtimolligi  $1/\bar{\tau}$  ga teng deb olinadi.

D) elektronlar gazi to'qnashuvlar tufayli termodinamik muvozanatda bo'ladi. Ularning to'qnashishdan oldingi va keyingi tezliklari o'zaro bog'liq emas.

Metalldagi hamma elektronlar bir xil o'rtacha tezlikka ega bo'lib, ularni bir atomli ideal gazdek tasavvur qilingan. Metall o'tkazgich uchlariga elektr kuchlanish qo'yilmaganda undagi erkin elektronlar tartibsiz issiqlik harakatida bo'ladi. Klassik fizikaning energiyaning erkinlik darajalari bo'yicha teng taqsimot qonuniga asosan, har bir elektronga to'g'ri keluvchi o'rtacha kinetik energiya  $\frac{3}{2}kT$  ga teng. Bundan o'rtacha tezlikni topishimiz mumkin:

$$\frac{mv^2}{2} = \frac{3}{2}kT \quad (1.1.3)$$

va

$$|v| = \sqrt{\frac{3kT}{m}} \quad (1.1.4)$$

Hajm birligidagi elektronlar soni  $n$  ga teng bo'lsin, unda elektronlarning hajm birligidagi kinetik energiyasi quyidagicha

$$W_k = \frac{3}{2}nkT \quad (1.1.5)$$

Metallga elektr maydon qo‘ yilganda undagi erkin elektronlarning tartibsiz issiqlik harakatiga maydonning ta‘sir kuchi yo‘ nalishida tartibli harakat qo‘ shiladi. Elektronlarning harakatiga bir tomonga qarab siljish kuzatiladi. Elektronlarning tashqi elektr maydon ta‘siridagi bunday harakati dreyf harakati va harakat tezligi dreyf tezlik deb ataladi. Tashqi maydon elektronga  $-eE$  kuch bilan ta‘sir qiladi, bu kuch ta‘sirida elektron

$$a = -\frac{eE}{m} \quad (1.1.6)$$

tezlanish oladi. Elektronning ionlar bilan ikki ketma-ket to‘ qnashuvlari orasida olgan dreyf tezligi

$$v = a\tau = -\frac{eE\bar{\tau}}{m} \quad (1.1.7)$$

bunda  $e$ -elektronning zaryadi,  $m$ -uning massasi.

Ma‘lumki, metall o‘ tkazgichdagi tok zichligini quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$J = -nev \quad (1.1.8)$$

Bu erda  $n$ -birlik hajmdagi elektronlar soni. U holda (1.1.7) va (1.1.8) munosabatdan foydalanib,

$$J = ne \frac{eE\tau}{m} = \frac{ne^2\bar{\tau}}{m} \cdot E \quad (1.1.9)$$

ifodani hosil qilamiz. (1.1.9) va (1.1.1)ni taqqoslaymiz va elektr o‘tkazuvchanlikni topamiz.

$$\sigma = \frac{ne^2\bar{\tau}}{m} \quad (1.1.10)$$

Ushbu ifoda yordamida metallning solishtirma qarshiligi  $\rho$  ni bilgan holda  $\bar{\tau}$  ni aniqlashimiz mumkin.

$$\bar{\tau} = \frac{\sigma m}{ne^2} = \frac{m}{n\rho e^2} \quad (1.1.11)$$

$\rho$ - ning xona temperaturasidagi qiymatini olib  $\bar{\tau}$  ni hisoblaganimizda  $\tau = 10^{-14} \div 10^{-15} c$  bo‘ ladi. Elektronning dreyf tezligi uning issiqlik tezligidan ancha kichikligi uchun  $\bar{\tau}$  ni erkin yugurish masofasi  $\bar{l}$  orqali quyidagicha yozib olishimiz mumkin:

$$\bar{\tau} = \frac{\bar{l}}{\bar{u}_T} \quad (1.1.12)$$

Oxirgi munosabatdan  $\bar{\tau}$  ni bilgan holda va xona temperaturasi uchun (1.1.4) dan  $\bar{u}_T$  ni hisoblab ( $\bar{u}_T \cong 10^7 m/c$  bo‘ ladi), metalldagi erkin elektronlar uchun  $\bar{l} = (1 \div 10) \text{ \AA}$  bo‘ lishini aniqlaymiz. Kristall panjarasi ionlari orasidagi masofa ham ana

shu tartibda bo'lishini e'tiborga olsak, Drude modeli juda yaxshi natijaga olib kelishiga ishonch hosil qilamiz. Biroq past temperaturalarda nazariya bilan tajriba natijalari bir-biridan uzoqlashib ketadi. Tajriba past temperaturalarda  $\bar{l} \sim 10^3 \text{ \AA}$  gacha va hatto toza namunalarda  $10^8 \text{ \AA} = 1 \text{ cm}$  bo'lishini ko'rsatadi.

Bu holni Drude nazariyasi yordamida tushuntirish qiyin. Endi  $\bar{\tau}$  ning temperaturaga bog'liqligini ko'ramiz. (1.4) va (1.12) lardan

$$\bar{\tau} = \bar{l} \sqrt{\frac{m}{3kT}} \quad (1.1.13)$$

uni (1.10) ga qo'yib, quyidagi natijaga kelamiz:

$$\sigma = ne^2 \bar{l} \sqrt{\frac{1}{3kTm}} \quad (1.1.14)$$

Ko'rinib turibdiki, Drude modelida o'tkazuvchanlik  $\sigma \sim T^{-1/2}$  ekan. Tajribalar esa  $\sigma$  ning  $T^{-1}$  ga proporsionalligini ko'rsatadi. Bu ham metallarning ushbu modeli qiyinchiliklaridan biridir.

Drude nazariyasining yana bir yutug'i uni Videman-Frans qonuni uchun to'g'ri natijaga kelishidir. Tajriba usuli bilan 1853 yilda aniqlangan Videman-Frans qonuniga ko'ra, metallning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti ularning elektr o'tkazuvchanligiga nisbati ma'lum bir temperaturada barcha metallar uchun bir xil qiymatga egadir, ya'ni

$$\frac{\chi}{\sigma} = LT \quad (1.1.15)$$

Bunda L o'zgarish son bo'lib, uni Lorens soni deb ham ataladi. Ushbu qonunni tekshirib ko'rish uchun Drude nazariyasiga asoslanib Lorens sonini keltirib chiqaramiz. Bizga  $\chi$  ning ko'rinishi ma'lum. Demak, metallning issiqlik o'tkazuvchanligini topishimiz kerak. Ta'rifga ko'ra, issiqlik o'tkazuvchanlik biror jismdagi issiqlik oqimi zichligi bilan temperatura gradienti orasidagi bog'lanish koeffitsientidir.

$$q = -\chi \nabla T \quad (1.1.16)$$

Bunda  $q$  -issiqlik oqimi zichligi, ya'ni vaqt birligida birlik yuzadan o'tayotgan issiqlik miqdori,

$$\nabla T = \frac{\partial T}{\partial x} \vec{i} + \frac{\partial T}{\partial y} \vec{j} + \frac{\partial T}{\partial z} \vec{k} = \text{grad} T \quad (1.1.17)$$

esa temperatura gradientidir.

$\chi$  ni topish uchun uchlarida doimiy temperaturalar farqi mavjud bo‘lgan metall sterjenni ko‘rib chiqaylik.  $X$  – o‘qini sterjen uzunasi bo‘ylab yo‘naltiramiz. Bunday statsionar bir o‘lchovli hol uchun (1.16) ifoda

$$q = -\chi \frac{\partial T}{\partial x} \quad (1.1.18)$$

Ko‘rinishga keladi. Sterjenning turli nuqtalarida temperatura turlicha bo‘lgani uchun elektronning o‘rtacha issiqlik energiyasi koordinata va temperaturaga bog‘liq bo‘ladi.

Sterjenning bir uchidan  $x$  masofada joylashgan kesimi orqali o‘tayotgan issiqlik oqimini hisoblaymiz. Bu issiqlik oqimi vaqt birligida kesimning chap tomonidan o‘ng tomoniga o‘tayotgan elektronlar energiyasi bilan o‘ng tomondan chap tomonga o‘tayotgan elektronlar energiyasi farqiga teng bo‘ladi. Tok yo‘qligi nazarda tutilgani uchun elektronlar soni, albatta teng bo‘lishi kerak. U holda issiqlik oqimi zichligi uchun

$$q = -\frac{C_v \Delta T \Delta V}{S \Delta t} \quad (1.1.19)$$

Ifodani hosil qilamiz. Bunda  $C_v$ -hajm o‘zgarish bo‘lgandagi metallning issiqlik sig‘imi,  $\Delta T$  -sterjenning  $\Delta x$  ga teng bo‘lgan masofadagi ikki nuqta orasidagi temperaturalar farqi va  $\Delta V$  sterjenning uzunligi  $\Delta x$  bo‘lgandagi hajmi.  $\Delta x$  ni nolga yaqinlashtirib ( $\Delta x \rightarrow 0$ ),  $x$  nuqtadagi kesmadan o‘tayotgan oqimni topamiz.

$$q = C_v \left( -\frac{dT}{dx} \right) \frac{dx}{dt} dx = -C_v v_x \frac{dT}{dx} dx \quad (1.1.20)$$

Erkin yugurish masofasi kichik bo‘lgan hollarda  $dx \approx v_x \bar{\tau}$  deb olishimiz mumkin.

Unda

$$q = -C_v v_x^2 \bar{\tau} \frac{dT}{dx} \quad (1.1.21)$$

Bir o‘lchovli holdan uch o‘lchovlik holga o‘tamiz. Bu holda

$$v_x^2 = \frac{1}{3} v^2 \quad (1.1.22)$$

va  $\frac{dT}{dx}$  o‘rniga  $\nabla T$  yoziladi. Natijada

$$q = -\frac{1}{3} C_v v_T^2 \bar{\tau} \nabla T \quad (1.1.23)$$

Munosabatni hosil qilamiz. Uni (1.16) bilan taqqoslab issiqlik o‘tkazuvchanlik uchun

$$\chi = \frac{1}{3} C_v v_T^2 \bar{\tau} = \frac{1}{3} C_v v_T \bar{l} \quad (1.1.24)$$

ifodaga ega bo‘lamiz. Bu munosabat metallardagi erkin elektronlarning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsientidir. Endi Lorens sonini topishimiz mumkin.

$$\chi = \frac{C_v m v_T^2}{n e^2} \quad (1.1.25)$$

(1.1.5) ifodadan S ni topamiz.

$$C_v = \left( \frac{\partial W_k}{\partial T} \right)_v = \frac{3}{2} k n \quad (1.1.26)$$

va (1.13) ni hisobga olgan holda,

$$\frac{\chi}{\sigma} = \frac{3}{2} \left( \frac{k}{e} \right)^2 T \quad (1.1.27)$$

ni hosil qilamiz. U holda Lorens soni

$$L = \frac{\chi}{\sigma T} = \frac{3}{2} \left( \frac{k}{e} \right)^2 \quad (1.1.28)$$

qiymat kelib chiqadi. Unihisoblasak,  $L=1,11 \cdot 10^{-8}$  Vtombo‘ladi. Bu qiymat tajribadagi natijadan ikki marta kam. Shunga qaramay ushbu natija Drude modeli yutuqlaridan hisoblanadi, chunki u Lorens soni metallarning turiga bog‘liq emasligini tasdiqlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. O‘lmasova, J.Kamolov, T.Lutfullaev. Fizika (mexanika, molekulyar fizika a issiqlik) T. «O‘qituvchi», 1987 y.
2. M.O‘lmasova, J.Kamolov, F.Toshmexammedov. Fizika (elektr, optika, atom va yadro fizikasi) T. «O‘qituvchi», 1996 y.
3. V.G.Razumovskiy, B.M.Mirzaxmedov va boshqalar. «Fizika o‘qitish metodikasi asoslari» T. «O‘qituvchi», 1990 y.
4. G.YA.Myakishev, B.B.Buxovtsev. Fizika-10, T., 1991 y.
5. M.Ismoilov, P.Xabibullaev, M.Xalilulin. «Fizika kursi» Toshkent- 2000

## СОВРЕМЕННЫЕ ОБУЧАЮЩИЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ПРИМЕРЕ ИЗУЧЕНИЯ РОДИТЕЛЬНОГО ПАДЕЖА

*Хамдам-Зода Лейло Хасановна*  
*ст. преподаватель кафедры*  
*«Узбекский язык и литература»*  
*ТГУВ*  
*Телефон: (93) 5567422*

**Аннотация:** Изучение падежной системы играет важную роль в овладении языком, что отмечается многими лингвистами и языковедами. Освоение языка строится на теоретическом изучении данной категории, рассмотрении разных ее сторон формы, функции и т.д. При обучении языку как неродному мы сталкиваемся с рядом специфических трудностей. Одну из таких трудностей представляет усвоение функций и форм падежей.

**Опорные слова и выражения:** современные обучающие технологии, функции и формы падежей, практические навыки, падежная система, склонение, флексия, родительный падеж, грамматические и лексические значения

By the 1960s, the audio-lingual and situational approaches to English language teaching had passed their time, the linguistic theories developed on their basis did not meet the requirements of the time, the communicative and functional characteristics of individual sentences were inadequately interpreted in these theories promoting structure. articles and theses of authors such as N. Chomsky, K. Kendlin, H. Windowson, T. Pika, R. Oxford about the need to prioritize the development of communicative skills in English language teaching rather than memorizing the structure (speech patterns) was published. In this context, the concept of "Learning to use English and using English to learn it" was developed.

### **References**

1. Canale S., Swain M. Theoretical basis of communicative approaches to second language teaching and testing. - UK.: Oxford University Press, 2002. - 48 p.
2. Celce-Murcia M., Brinton D.M., Snow A.M. Teaching English as a Second or Foreign Language. - USA. Boston. National Geographic Learning. 2014. – 706 p.
3. Richards J.C., Rodgers Th.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – NY.: Cambridge University Press, 2009. – 270 p.
4. Shchukin A.N. Obuchenie inostrannymy yazykam. Theory and practice. - M.: Filomatis, 2006. - 480 p.

## “YANGI O‘ZBEKISTONNING YOSHLARGA VA TA‘LIM TIZIMIGA OID DAVLAT ISLOHATLARI VA UNING MAZMUN-MOHİYATI”

*Isomiddinov Sardorbek Davronbekovich*

*Sharof Rashidov nomidgi Samarqand davlat universiteti*

*Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti*

*Sotsiologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mamlakatimida olib borilayotgan islohatlarning asosi bo‘lmish yoshlar masalasiga e‘tiborning dolzarbligi, yoshlarga oid islohatlar va yaratilayotgan imkoniyatlardan ularni xabardor qilishga qaratilgan bo‘lib bundan tashqari mamlakatimida yoshlarga nisbatan olib borilayotgan oqilona va samarali siyosatining ustuvor xususiyatlari, mamlakatimizda mustaqillikdan keyingi yillar davomida ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohatlarning qisqacha talqini yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati, “Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati”, “Yoshlar ishlari agentligi”, “Yoshlar ittifoqi”

Hozirgi kunda davlat ravnaqi va kelajagini ilimli, bilimli, aql-zakovatli va eng asosiysi vatanparvar yoshlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hech qaysi bir davlat yo‘qki o‘zining yosh va barkamol avlodiga e‘tibor qaratmagan.

Bizning tug‘ilib o‘sgan diyorimiz kindik qonimiz to‘kilgan yurtimizda ham azal-azaldan yoshlarga nisbatan bolgan e‘tibor avlod-dan-avlodga o‘tib kelmoqda. Yosh avlodni bilimli, ilimli zakovatli va har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda avvalambor bizga me‘ros bo‘lib kelayotgan ilimli, ma‘rifatli ota-bobolarimizning va buyuk siymolarizining ilmiy me‘roslari, bebaho kitoblari biz yoshlarga qoldirib ketgan fidokorona mehnatlari juda ham katta ahamiyat kasb etadi. Bizning qanchadan-qancha ota-bobolarimiz o‘zining ilmi, ma‘rifati bilan dunyoni titratgan. Misol qilib aytadigan bo‘lsak “G‘azal mulkingning Sultoni” Alisher Navoiy bobomiz o‘zining “Xamsa”si, dostonlari, g‘azallari bilan nom taratgan, Hadis ilmining sultoni bo‘lmish Imom al-Buxoriyning “Al-jome‘ as-sahih” asari “Qur‘on”dan keying o‘rinda turuvchi asar hisoblanadi bundan tashqari Al-Xorazmiy bobomiz Algebra, Astronomiya, Geografiya fanlarini rivojlanishida eng buyuk kashfiyotlari bilan fanga katta xissa qo‘shgan.

Bizning Ona Vatanimiz ko‘p yillar davomida turli xil bosqinchiliklar, bosim va zulm iskanjasida bo‘lgan. Qanchadan-qancha ajdodlarimiz ilm-fan, ma‘rifat yo‘lida jonlarini qurbon qilgan va biz yoshlarga kelajak uchun buyuk xizmatlar qilishgan.

Mamlakatimiz demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli avlodni tarbiyalash vazifasini o‘zining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yib kelmoqda



va amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson- jamiyat-davlat uchligi mustahkam o‘rin olgan. Davlat Statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 36 milliondan ortiq aholining 67%ini yoshlar, ya’ni 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tashkil etadi. (2013-2014 yillarda bu ko‘rsatkich 35%ini tashkil etgan).

**Yoshlar** – har bir davlatning eng katta boyligi va taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchi ekanligi nuqtai nazaridan Yoshlarga oid siyosat O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Albatta yosh avlodni yetuk, malakali kadr qilib tarbiyalashda ta’lim- tarbiyaning roli nihoyatda kattadir. Yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashni eng muhim vazifa sifatida belgilagan Prezidentimiz

**Shavkat Mirziyoyev BMT ning 72-sessiyasida:** Bugungi dunyo yoshlari-son jihatdan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz-yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi”tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston globallashuv va axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat-BMTning **“Yoshlar huquqlari to‘grisida”gi** xalqaro konvensiyani ishlab chiqishni taklif etadi. Demak yoshlar uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga faqatgina mamlakatimiz emas, balki butun dunyo mas’ul ekanligini ta’kidlash lozim. O‘tgan yillar davomida mamlakatimizda yoshlarga oid islohotlarga nazar soladigan bo‘lsak: **1996-yilda “Kamolot” yoshlar jamg‘armasi tuzilib, jamg‘arma 2001-yilda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirildi.2017 yil 30-iyun sanasida Prezident Qaroriga asosan, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati “Yoshlar Ittifoqi” etib qayta tashkil etildi.2016-yilda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.** Ushbu qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar mas’uliyatini kuchaytirishga, ushbu sohada sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. - Yoshlar bilan bog‘liq muammolarni yechish, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish maqsadida **2020-yil 20-iyundagi PF-6017-son farmoni bilan Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi va 30-iyun sanasi “Yoshlar” kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda.**

Yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish,

ularni „Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari!“g‘oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash, shuningdek, iqtidorli yoshlarni yetakchi xorijiy oliy ta‘lim muassasalariga ta‘lim olish uchun yuborish, xalqaro tanlovlarda ishtirok etishini ta‘minlash, yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash vazifalarini qamrab olgan beshta muhim tashabbusni keng joriy etishga qaratilgan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning intellektual salohiyati va iste‘dodini rivojlantirish agentlikning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilab qo‘yildi.

Joriy yilda davlat oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta‘lim shakliga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to‘plagan 200 nafar yoshlar uchun davlat byudjeti mablag‘i hisobidan moliyalashtiriladigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti granti joriy etildi.

Xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishi hamda bandligini ta‘minlashga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida Mahalla va oilani qo‘llabquvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo‘lgan xotin-qizlar uchun davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari ajratilib, ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan xotinqizlar uchun ajratilgan davlat grantlari soni 2 barobarga oshirish orqali 2000 taga yetkazildi.

Prezidentning aholi o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish borasidagi tashabbusiga asosan «Yosh kitobxon» respublika tanlovining an‘anaviy ravishda o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi. Respublika tanlovida g‘olib bo‘lganlarga Prezident sovg‘asi – «Spark» avtomobilining berilishi ko‘plab yoshlar uchun kitobxonlikka motivatsiya vazifasini o‘tab kelmoqda. Maqolada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tildi.

**Xulosa:** Biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar talaygina, undan o‘z vaqtida foydalanish uchun faqat bilim va mahorat talab qilinadi xolos, ya‘ni egallayotgan kasbimizning malakali mutaxassisi bo‘lib, yurtimizni farovon va yuksak demokratik davlat bo‘lishiga hissa qo‘shishimiz lozim. Albatta islohot- islohot uchun emas, avvalo inson va uning manfaatlari uchun xizmat qilmog‘i lozim. Yoshlarga shunday imkoniyatlar yaratilar ekan, biz ham ularga munosib bo‘lib shakllanishimiz lozim va xalqimiz eng avvalo insonlarning farovonligi uchun ximat qilishga intilishimiz kerak deb o‘ylayman.

### Foydalanilgan manbalar

1. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi. Manba. Kun.uz
2. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6017-son farmon.

## МАТЕМАТИКА DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

*Ergashov Sardor Tolib o'g'li**Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani 76-umumiy o'rta ta'lim maktabi**Matematika fani o'qituvchisi**Maxmatqulov Sordorbek Vohid o'g'li**Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani 78-umumiy o'rta ta'lim maktabi**Matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** O'z o'rnida matematika fanini o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqdir. Matematik o'yinlar, rasmlar topishmoqlar kundalik darslarga joziba bag'ishlaydi. Didaktik o'yinlar darsda ishni individuallashtirish, har bir o'quvchining kuchiga mos topshiriq berish, uning qobiliyatlarini maksimal o'stirish imkoniyatini beradi. O'yin orqali o'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, ularni hayotga tadbiq eta olishga tayyorlanadilar.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiya, Xususiy texnologiya, "Klassik juftliklar" usuli, "Juft-juft muloqot" usuli, Pazl metodi, "Matematik bozor" o'yini.

**Abstract:** In turn, didactic games are used in the teaching of mathematics. The level of organization of the lessons also depends on the creativity of the teacher. Math games and picture puzzles add charm to everyday lessons. Didactic games provide an opportunity to individualize the work in the classroom, to assign tasks to the strength of each student, to maximize his abilities. Through the game, students consolidate the knowledge they have learned from the lesson, preparing to be able to apply it in life.

**Keywords:** Innovative technology, Private technology, "Classic couples" method, "Pair-to-couple communication" method, Puzzle method, "Mathematical market" game.

**KIRISH**

Hozirgi paytda an'anaviy ta'lim bo'yicha katta tajriba to'plangan va an'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etmoqda, lekin uning obyektiv imkoniyatlari cheklangan. Amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atda rivojlanayotgan fan-texnika talablari ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji tafovudni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim. Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va

muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlar, tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi. Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos o'rni inobatga olingan holda mazkur fan birinchi sinfdanoq maktab darsliklariga kiritilgan bo'lib, yurtimizda barcha aniq fanlar qatori matematika ta'limini zamon talablari asosida takomillashtirib borish, uni o'qitishda eng so'nggi pedagogik va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Innovatsion texnologiyalarni amaliy mashg'ulot darslarida qo'llash ham o'qituvchidan katta mahorat va bilim talab qiladi. Innovatsion texnologiya o'z o'rnida qo'llansa qo'yilgan maqsadiga erishiladi. O'qituvchi dars davomida darsning mavzusiga qarab xususiy texnologiyalarni qo'llab ham yuqori natijalarga erishsa bo'ladi. ASOSIY QISM Xususiy texnologiya bu - ta'lim-tarbiya mazmunining ayrim yo'nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuini o'z ichiga oluvchi innovatsion tizimlarni qamrab oladi. Bunga ayrim fanlarni o'qitish texnologiyalari va o'qituvchining o'quvchi bilan ishlash texnologiyalari kiradi. "Klassik juftliklar" ("Klassik uchliklar") - bunda ishtirokchilarga ustiga o'zaro klassik yoki barchaga ma'lum bog'liqlikka ega bo'lgan tushunchalar, odamlar familiyalari, ertak va folklor qahramonlarining nomlari yozilgan (bosib chiqarilgan) kichik kartochkalar tarqatiladi. Masalan: Klassik juftliklar: Klassik uchliklar: Funksiya - jadval Quyosh - havo - suv Parabola - giperbola Minus - plyus - modul Elektron - proton Mediana - balandlik - bissektrisa Kenglik - uzunlik ..... Bissektrisa - burchak Nyuton - olma So'zlar tartibsiz ahvolda bir varaq qog'ozga yozilgan, masalan, plyus, parabola, uzunlik, burchak, mediana, minus, funksiya, giperbola, jadval va hokazo. O'quvchilar shu so'zlar orasida klassik juftlik yoki uchlikni topib, tuzishlari va ana shu bog'liqlikni asoslab berishlari kerak. Mashq ham individual tartibda, ham kichik guruhlarda o'tkazilishi mumkin. "Juft-juft muloqot" usuli - Biror mavzu bo'yicha yonma-yon o'tirgan o'quvchilarga biror topshiriq (yoki alohida-alohida topshiriqlar) berish va ularni birgalikda topshiriqda keltirilgan muammo (masala) yechimini topishga chorlash, yechimlarni eshitish va baholash. Ba'zi hollarda o'quvchilar bir-birlariga navbatma-navbat savol (masala) bilan yuzlanishlari ham mumkin. Bunday holda savol javobi (masala yechimi) savol (masala) bergan o'quvchi tomonidan tinglanishi (tekshirilishi) va baholanishi lozim bo'ladi. Juftlikda ishlash mavzusini tanlayotganda alohida ehtiyot bo'lish zarur. Bu mavzu ko'pchilik tomonidan o'zlashtirilgan bo'lishi lozim, aks holda juftlarda ish ketmasligi mumkin. Topshiriqlardan namunalar: a) Har bir o'quvchi 1 minut davomida "O'nli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazo sonlarga bo'lish" mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o'z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin. b) Har bir o'quvchi 1 minut davomida

“O‘nli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazo sonlarga ko‘paytirish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin. c) Har bir o‘quvchi 1 minut davomida “O‘nli kasrlarni 0,1, 0,01, 0,001 va hokazo sonlarga ko‘paytirish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin. d) Har bir o‘quvchi 1 minut davomida “O‘nli kasrlarni 0,1, 0,01, 0,001 va hokazo sonlarga bo‘lish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin. Matematika darslarida Pazl (“Bo‘laklardan butunni tuz”) metodi. Pazl (inglizcha puzzle - topishmoq, boshqotirma) - rasmni uning bo‘laklari yordamida tiklashdan iborat bolalar o‘yining nomi. Shuning uchun bu metod nomini o‘zbek tilida “Bo‘laklardan butunni tuz” deb ham atash mumkin. O‘tilgan mavzuga oid asosiy jumla, formula, teorema, tenglama, chizma va boshqa ko‘rinishidagi asosiy ma‘lumotlar qog‘ozga yozilib, so‘ng bir nechta bo‘laklarga bo‘linib aralashtirib yuboriladi. O‘quvchilar bu bo‘laklar ichidan faqat bitta ma‘lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar. Bu metod o‘quvchilarda ziyraklik, topqirlik, diqqatni to‘plash, tahlil va sintez qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Uni yakka tartibda ham, sinfni guruhlariga bo‘lib ham o‘tkazish mumkin. Masalan: Parallel to‘g‘ri chiziqlar, “To‘g‘ri chiziqlarning parallellik alomatleri” va “Ikki to‘g‘ri chiziqni uchinchi to‘g‘ri chiziq kesib o‘tganda hosil bo‘ladigan burchaklar haqidagi teoraemalar” mavzulari o‘tib bo‘linganidan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi ko‘rinishdagi 24 ta varaqchalar (kartochkalar)dan iborat to‘plam taqdim qilinadi. Bu to‘plamda 6 ta teorema keltirilgan bo‘lib, ularning har bir haqida 4 ta varaqchada ma‘lumot berilgan bo‘ladi. 1-kartochkada: teoremaning yozma bayoni, 2-kartochkada: teoreмага mos chizma, 3-kartochkada: teorema sharti va xulosasining qisqacha matematik bayoni, 4-kartochkada: teoremaning matematik isboti yozuvi. Topshiriq: 6 ta o‘quvchiga (yoki guruhga) 6 ta teorema beriladi va taqdim qilingan to‘plam ichidan faqat o‘z teoremasi bo‘yicha ma‘lumotlarni to‘la yig‘ish vazifasi topshiriladi. “Matematik bozor” o‘yini - Bu mashg‘ulotni odatda biror katta bo‘lim yoki bobning oxiridagi takrorlash darslarida o‘tkazish mumkin. Biror bob yakunlangandan keyin o‘qituvchi shu bobda o‘rganilgan materiallarga taalluqli misollarni kartochkalarga yozib tayyorlaydi. Har bir kartochkada 2-3 tadan turli qiyinlikdagi misollar yoziladi va har bir misolga qiyinlik darajasiga qarab “narx” belgilanadi (masalan 50so‘m, 100so‘m, 200so‘m,...). Kartochkalar soni sinfdagi o‘quvchilar soniga qarab tuziladi. O‘quvchilar 4 tadan qilib guruhlariga bo‘linadi, bunda sinfda o‘rtacha 8-10 ta guruh tashkil qilish mumkin. Demak, har bir kartochkadan guruhlar soniga mos ravishda 8-10 tadan tayyorlash kerak bo‘ladi. Kartochkalarining turi esa 4- 5 xil bo‘lsa yetarli bo‘ladi (jami 32-40 ta kartochka). Har bir guruh kartochkalardan bittadan oladi, ya’ni

har bir guruhda 4 yoki 5 xil kartochka bo'ladi, "narxlar" kartochkalarda har bir misol (savol) to'g'risida ko'rsatilgan bo'lishi kerak. 1-variant 1. Topshiriq 100s. 2. Topshiriq 150s. 3. Topshiriq 200s. Biror guruh 1-variantdagi topshiriqlarni birichi bo'lib bajarsa, o'qituvchiga ko'rsatadi va o'qituvchi yechimni tekshirib shu guruh ishlagan pulni doskada tayyorlab qo'yilgan jadvalga yozib qo'yadi. Shu 1-variantni keyingi bo'lib ishlagan guruhga har bir topshiriqdan 25 so'mdan chiqarib tashlanadi. Shu tariqa guruhlar har bir variantdagi topshiriqlardan iloji boricha ko'proq va tezroq yechishga va ko'proq pul to'plashga harakat qiladilar. Variantlardagi topshiriqlar xilma-xil va har xil narxli bo'lishi mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Ma'lum vaqtdan so'ng (masalan 30 minutdan keyin) "bozor" to'xtatiladi va o'qituvchi guruhlar to'plagan pullarni jadval yordamida hisoblaydi. Guruhlarni nomerlash yoki ularning o'zlari guruhga nom tanlashlari mumkin. Qaysi guruh ko'proq pul to'plagan bo'lsa, shu guruh g'olib topiladi, qolgan guruhlariga ham o'rinlar beriladi. O'qituvchi guruhlarning bajargan ishlarini kuzatib, qaysi guruh biror topshiriqni bajarishga qiynalgan yoki bajara olmagan bo'lsa, shu topshiriqni bajargan guruhlar yechimini doskada namoyish qilib berishlari mumkin. Biror topshiriqni har bir guruh bajara olmagan bo'lsa, o'qituvchining o'zi shu topshiriqni yechish yo'llarini ko'rsatib berishi mumkin va shu kabi misollar ustida ishlash zarurligini bilib olishi mumkin. So'ngra o'qituvchi guruhlarning to'plagan pullariga qarab o'quvchilarni baholaydi. Besh balli tizimda eng ko'p pul to'plagan guruh o'quvchilariga 5 ball, keyingi 2 ta guruhga 4 balldan, keyingi 3ta guruhga 3 balldan va hokazo, qo'yish mumkin. Yakuniy jadval 1-V 2-V 3-V 4-V 5-V Jami O'rin Ball 1-G 500 425 2-G 425 350 3-G 350 500 Bu usullardan foydalanish doiralari: Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda. Afzalliklari - ushbu mashq o'quvchilarga maktabda o'rganiladigan fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi, o'quvchilar birmuncha dastlabki ishni bajarishga ulgurgan mavzular o'rtasidagi aloqani o'rganish uchun juda qulay imkon yaratadi. Zamonaviy o'qituvchining muammolardan biri - muammolarni aniqlash va aniq misollar bilan talabalarga tushuntirish. Bu sifat ta'lim tizimini barpo etishning juda muhim shartidir. Chunki ilm murakkabligi amaliy muammolarni hal qilish uchun qo'llash samaradorligi bilan bevosita bog'liq. XULOSA Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kun o'quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o'qitish lozim. Zero, yangi texnologiyalar zamonida dunyoga kelayotgan o'g'il-qizlar o'zining bir qator umumiy sifatlari bilan ajralib turadi. Turmush tarzimiz, qiziqish va xohish-istaklarimiz global makonda qariyb o'xshash tus olayotgan bir vaqtda kechagi o'qitish usullari bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Zamon bilan hamqadam rivojlanib borgandagina yuksak intellektual avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga texnologik yondashish mumkin. Hamda bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchitalabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga

tayyorlaydi. Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadidagi ilmiy natijalarni o'rganish va nazariy ma'lumotlarni tayyorlash, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan bir qatorda yoshlarni olimpiadalarga tayyorlash mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish [1-27] ham maqsadga muvofiq. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, mashg'ulotlar davomida matematikaning amaliyotga tadbirlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar [28-29] bo'yicha qisqacha ma'lumotlar berilishi, ularda fanga bo'lgan qiziqishni ortishi va dunyoqarashlarini kengayishiga hamda ilmiy ishlar [30] chop qilishlariga sabab bo'lmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умарова У.У. “Муносабатлар. Бинар муносабатлар” мавзуси бўйича маъруза ва амалий машғулотлари учун “Ажурли апра” ва “Домино” методлар // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 982-988.
2. Умарова У.У. Мулоҳазалар устида мантиқий амаллар мавзусини ўқитишда «Кичик гуруҳларда ишлаш» методи // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 803-809.
3. Умарова У.У. “Формулалар ва уларнинг нормал шакллари” мавзусини ўқитишда ўйинли методлар (pp. 810-817).
4. Умарова У.У. “Мулоҳазалар алгебраси асосий тенг кучли формулалари” мавзусини ўқитишда “Ақлий хужум” ва “Case Study” методлари // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 818-824.
5. Умарова У.У. Мулоҳазалар алгебраси бўлимини такрорлашда график органайзер методлари // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 825-831.
6. Умарова У.У. Чинлик жадвали ёрдамида формулани топишда муаммоли ўқитиш технологияси // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 832-838.

## ИНФОРМАТИКА VA КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИ

*Turayeva Mavluda Ergashevna**Surxandaryo viloyati Shurchi tumani Komil Yormatov nomidagi  
3-umumta'lim maktabi Informatika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika va kompyuter grafikasidan samarali foydalanish haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** fundamental, paper part, ottenok, eksplikatsiya

Kompyuter grafikasi jaxonda yangi fundamental fan xisoblanib, iqtisodiyot soxasida kadrlar tayyorlab berishda o'ziga xos mustaqil ahamiyatga egadir. Maxsus kompyuter programmalar xuddi bir varaq oq qog'ozga qalam yoki ruchka bilan xar xil rasmlarni solish singari kompyuter ekranida sichqoncha yordamida rasm chizish, ya'ni tasvir tuzish, tuzatish va ularni xarakatlantirish imkonini yaratdi. Bu programmalar rasm solish programmalar yoki grafik redaktorlar xisoblanib, ular yordamida rasmning elementlari boshqarib boriladi. Kompyuter grafikasining juda tez rivojlanib borishi va uning texnikaviy va programmaviy vositalarining yangilanib turilishi kursni xamisha takomillashtirishga, bu soxadagi yangi yo'nalishlarni tinmay o'rganib borishni taqozo etadi. Oxirgi yillarda bu soxada juda katta o'zgarishlar (siljishlar) yuz berdi, ya'ni 16 mln.dan ortiq rang va rang turlarini (ottenok) uzida aks ettira oladigan displeylar, grafik axborotlarni (paper part) kirituvchi moslama- skanerlar, grafik ish stantsiyalari; programmaviy vositalar soxasida esa haqiqiy kompyuter dunyosini kashf qila oladigan programmalar dunyoga keldi. Bundan tashqari jamiyat ongida xam o'zgarishlar sodir bo'ldi, endi kompyuter grafikasi kirib bormagan soxa qolmaydi. Kompyuter grafikasi asta-sekin informatika o'quv rejalarining ajralmas qismi bo'lib bormoqda va 80-chi yillarning boshidan boshlab injenerlik ma'lumotini egallashda markaziy urinni egallab turibdi. Xozirgi vaqtda kompyuter grafikasi quyidagi kurslarning tarkibiy qismi xisoblanadi:

“Iqtisodiy informatika va xisoblash texnikasi”

“Kompyuter informatsion sistemalari”

“Moddiy resurslarning kompyuter informatsion sistemalari (marketing)”

ADP (amaliy dasturlar paketi)

“Kompyuter tarmoklari” va boshqalar. Shaxsiy kompyuterlarda amalga oshiriladigan xozirgi zamon grafikasi sistemali iqtisodiy izlanishlarda, berilgan ma'lumotlarni taxlil qilishda, olingan natijalarni ko'rimli qilib ko'rsatishda va taqdimot (prezentatsiya) uchun materiallar tayyorlashda va boshqa soxalarda ko'plab ishlatiladi. Grafikni tuzish va uni tushunish uchun grafika elementlari ma'nosi va ularni turli xolatlarda qo'shilishini o'rganish zarur. Grafika yordamida tayyorlanadigan



voqealikalarni to'g'ri tushunish uni tashkil etuvchi xamma elementlarini to'plami mavjud bo'lgandagina mumkin. (shkalalar, sarlavxalar va sh.o'.) Tasvirlashning grafik usuli yoki grafik til - bu fikrni ifodalashning fazoviy tasvirlash, yoki qandaydir tekislikda shartli ravishda aks ettirish usullarining to'plamidir. Grafik tasvirlashning namunalari - geometrik kartalar, iqtisodiy analizning diagrammalar tizimi, korxonlarning struktura sxemalari va boshqalar. Qandaydir fikrlar to'plamini ifodalovchi chertejlarni tuzish jarayoni grafiklashtirish deyiladi, uning natijasi esa - grafika deyiladi. Grafik shartli ravishda voqelikni yoki qandaydir jarayonni tasvirlaydi. Grafikada qo'llaniladigan xamma belgilar - bu g'oyalar belgisi, grafikni o'zi yaxlit xolatda g'oyalar to'plamini ifodalashdir. Grafikada uning ikki xil elementi ajralib turadi: grafik qiyofa va eksplikatsiya. Grafik qiyofa - bu chizmalar to'plami bo'lib, o'zaro bog'lanishlari bilan birgalikda tushuniladi. Eksplikatsiya - grafik obrazning ma'nosini ochib beradigan ma'lumotlar to'plami. Grafik obraz simvollik yoki geometrik shaklda bo'lishi mumkin. Shartli belgilar yordamida tuzilgan, ma'nosi uning geometrik shakliga bog'lanmagan bo'lib, sharoitga bog'liq xolda tushuniladigan obrazlar simvolik obrazlarga tegishlidir. Shartli belgilar qandaydir tushunchalar (simvollar) bilan puxta bog'langan bo'lishi, aniq bir oblast belgilar to'plami esa simvolikalar bilan ifodalanishi mumkin. Simvolik ko'rinishdagi ikki o'lchovli grafik obrazlar grafikani tashkil etadi. Geometrik ma'noga ega bo'lgan, shu shaklda biror tenglamani yoki tengsizlikni ifodalovchi obraz geometrik grafika deyiladi. Masalan, inflyatsiyani o'sishini ko'rsatuvchi egri chiziq shu ko'rinishda emas, balki iqtisodiy kategoriya sifatida qiziqarlidir. Grafik obraz koordinat sistemasi yordamida masshtablashtirilgan shkala, o'lchov birligi nomli to'r, grafika umumiy sarlavhasi, umumiy va xususiy tushuntirish usuli, sonlar chizig'i to'ldiruvchisi va qaytariluvchi sonlar sifatida tushuniladi. Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalaridir. Odatda bu atama ostida kompyuter texnologiyalari tushuniladi. Axborot texnologiyalari sohasida turli axborotni EHM va kompyuter tarmoqlari orqali yig'ish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi. Axborot texnologiyasi asosiy texnik vositalari sifatida hisoblash- tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari – telefon, teletayp, telefaks va boshqalar qo'llaniladi. Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, xozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda. Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'liq faoliyat soxalari tashkil kiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda "saqlovchi,

ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi" turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi. Yaratuvchi (ijodiy) axborot texnologiyalari axborotni ishlab chiqaradigan, undan foydalanadigan va insonni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat. Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-taxnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Axborotlashtirish haqida» O'zbekiston Respublikasi qonuni. -T.: 1993. 7- may.
2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini axborotlashtirish kontseptsiyasi. Loyiha. O'zbekiston «O'qituvchi» 2004. 9 aprel.
3. «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200- sonli qarori.
4. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik //Mualliflar jamoasi: S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, X.S.Lutfullaev va boshqalar - Toshkent.: «Sharq». 2000.

## JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Muhammadov Nomozbek Nosirjon o'g'li*  
*Farg'ona viloyati Quva tuman kasb-hunar maktabining*  
*Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarida yangi pedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati hamda soglom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya darslarining afzalliklari xususida soz yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** tarbiya, axloq, jismoniy tarbiya, uslub, metodika, talim oluvchi, sportchi.

Ta'limda texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligini, bir butunligini va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi. Hozirgi davrda yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish haqida matbuotda turli-tuman fikrlar bildirilmoqda. Ta'limga yangicha, texnologik yondashish xaqida fikr yuritilishi tasodifiy hol emas. Yangi pedagogik texnologiya asosida O'qitishni yo'lga ko'yish, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Shunday qilish kerakki, o'quvchilar pedagogik jarayonning faol sub'ektlariga aylansinlar. Barcha ta'lim turlari kabi jismoniy tarbiya darslarida ham pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Chunki jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, o'quvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlashga o'rgatish, ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarning ta'lim jarayonining faol sub'ektlariga aylanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin pedagogik adabiyotlarda jismoniy tarbiya darslari ta'lim texnologiyasi masalalariga kam e'tibor berilgan. Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda jismoniy tarbiya ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday usullarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarda dars mazmunini teran anglash ko'nikmasini shakllantiradi.

Sport-imkoniyat. Sport mamlakatni dunyoga tanitishning eng samarali usuli. Sport-go'zallik, halollik, salomatlik komposi. Yurtimizda yaratib berilayotgan imkoniyatlarning eng ko'pi ham sportga bag'ishlangan. Eng yuqori natijalar ham fan olimpiadalaridan oldin sport musobaqalariga berilishini inobatga olgan holda fanni yoshlar o'rtasida ommalashtirish, sportchi chempionlarni yetkazishda biz pedagoglarning ham oldimizda ulkann vazifa turadi. Maqola davomida esa shunday

yaxshi natijaga erishishda samarali foydalanib kelinayotgan metodlar xususida soʻz yuritmoqchimiz.

Shu oʻrinda ayrim darsliklarga ham eʼtiborni qaratar ekanmiz jismoniy tarbiyada qoʻllaniladigan metodlar xususidagi maʼlumotlarga duch kelamiz. Xususan, R.S.Salomov, A.K.Sharipovlarning “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” hamda S.R.Salomovning “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” darsliklarida metodlardan namunalar keltiriladi. Masalan, darslikda koʻrgazmalilik metodi haqida toʻxtalar ekan, metod haqida quyidagi maʼlumotlar beriladi. Unda taʼkidlanishicha, bu metod jismoniy tarbiyada keng qoʻllanilar ekan. Yaʼni hamma sezgi organlariga taʼsir etib, bor narsalar bilan aloqa oʻrnatiladi. Bunda koʻrish, harakat va boshqa sezgilardan foydalaniladi. Keng maʼnodagi koʻrgazmalikni amalga oshirishda mashqlarning xarakteristikasi, bajarish sharoitlariga asoslangan metodlar majmuasidan foydalanib bu metodlar quyidagi guruhchalarga boʻlinadi. Ular bevosita namoyish qilishni oʻqituvchi tomonidan yoki bir oʻquvchi yordamida metodik koʻrsatishidan iborat. Mashqlarni bajarilishini harakat taʼsirining, qoidalari haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish uchun namoyishning yordamchi vositalaridan yaʼni bevosita koʻrgazmali metodidan keng foydalaniladi. Bunday bevosita namoyish metodlari quyidagilarga boʻlinadi:

- \* rasm, sxema, fotosurʼat va shu kabi koʻrgazma qurollarini namoyish etish;
- \* Buyum modellar va maketlarni namoyish etish;
- \* Kino va videomagnitafonli namoyish;
- \* Tanlab olingan - apparatlar yordamida masalan: mikrofon,
- \* radioapparatura, yorugʻlik elektrosignallari;
- \* Yoʻnaltirilgan sezish harakat metodlari (masalan, tre.-lar);
- \* Orientirovka (moʻljal) metodlari (osilgan toʻplar, bayroqchalar, zal va maydonchalardagi belgilar va h.k).
- \* Lider va kundalik sensor rejalashtirilgan metodlar;
- \* Tez informatsiya metodi (videomagnitafon).

Quyidagi hikoya orqali sportning mohiyatini toʻla-toʻkis tahlil qilib oʻtamiz. “Boshqalarga qaraganda Sunnatilloning tarbiyasi biroz mushkulroq. Otasi boshqa ayol bilan ketganidan keyin uning tarbiyasida salbiy xarakterlar koʻrina boshladi. Hayotda hamma narsaga mushtim zoʻrlilik bilan egallanadi, degan uy uni qamrab oldi. Oqibatda aqlini emas jismoniy imkoniyatlariga zoʻr berdi. U bir kuni oʻgʻrilikka ham qoʻl urdi. Zoʻravonlik, oʻgʻrilik, betgachoparlik unga odatiy tusga kirdi. Bunda u jismoniy kuchini biroz chiniqtirish orqali erishilgan imkoniyatlaridan foydalandi. Dabdurustdan aʼlo baholarga oʻqiyotgan Sunnatilloning bu oʻzgarishlarini payqagan jismoniy tarbiya oʻqituvchisi payqab qoldi. Va yigitni bu yoʻldan qaytarish uchun, oʻzgacha metod qoʻlladi”. Boshiga Sunnatillo bu koʻchaga allaqachon kirib qolgani, bu odatlar uning qon-qoniga singib ketgani uni oʻzgartirishga biroz qiyinchilik tugʻdirdi. Ammo

pedagogning bu uslubi unga katta yordam berdi. Metodning birinchi rejasi unga soʻz orqali, yaʼni Sunnatilloning sevimli sport mashgʻuloti kurash, futbolda katta yutuqqa erishish uchun faqat mashq qilish kerakligini, undan kelajakda zoʻr sportchi chiqishiga umid qilayotganini aytib ruxlantirdi. Birinchi gʻalabadan keyin Sunnatillo mashgʻulotlarga kirishib ketdi. Barcha alamlarini sportdan olishiga qaramay, ustoziga unga sport bu doʻstlik, imkoniyatlar eshigi, mehr-oqibatlar boshlovchisi ekanligini taʼkidladi. Sportdagi gʻalabalari, ustozining qoʻllab-quvvatlashlari uni ijobiy tomonga oʻzgartirdi.

Dunyoda davlatlarini ezgu gʻoyasi doʻstlik, salomatlik, xalollik, mehr-oqibatlik shartlari bilan birlashtirgan sport faqatgina fan emas jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining hayotiy zarurati. Bir mamlakatni dunyoga tanitishda eng ilgʻor usul ham sportdir. Bugun shu maydonda, xalqaro, jahon, Osiyo sport musobaqalarida yurt bayrogʻini koʻklarga koʻtarayotgan oʻgʻil-qizlarimizning yutuqlari zamirida albatta, mohir pedagoglarning ham oʻz xissasi bor. Buni eʼtirof etib, yanada koʻproq imkoniyatlar eshigini ochib, eng qimmatli sovrinlar bilan taqdirlayotgan davlatimiz rahbarining ham biz sport ustalaridan umidi katta. Shunday ekan sohada yangidan yangi metodlarni joriy qilib, jahongashta chempionlar safini kengaytirsak ulkan vazifalarni amalga oshirishda katta imkoniyatlarni yarata olamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. Oʻqitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qoʻllanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008, 3-48 bet.
2. Oʻzbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. “Oʻzbekiston”, Toshkent, 1997 yil.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi “Oliy va oʻrta maxsus taʼlim davlat standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan majlisi materiallaridan “Oʻzbekiston ovozi” gazetasi, 2007 y 12 fevral.

## JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH

*Rizaqulov Turg'unali*

*Farg'ona viloyati Quva tuman kasb-hunar maktabining  
Davlat va Huquq asoslari fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aholining huquqiy madaniyati muammolari yoritilgan. Aholining huquqiy savodsizligi, huquqiy hujjatlarning nomuvofiqligi, huquqiy davlat qurishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni kattaligi va buning uchun avvalo har bir shaxsning huquqiy immunitetini, huquqiy savodxonlik darajasini yaxshilash masalalari yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat, huquq, qonun, huquqiyong, huquqiy madaniyat, partiya, shaxs, farmon, jamiyat, demokratiya, siyosat, norma.

Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuygularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuygusini, qonunlarni bilish va unga qat'iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bolib kelmoqda. Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti - bu qonunlarning sozsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va sozsiz bajarilishi har bir shaxsning oz vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog'liqdir. Avvalo huquqiy ong va huquqiy madaniyatga olimlar tomonidan berilgan turlicha ta'riflar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi, jumladan, professor Islomov huquqiy ongga shunday ta'rif beradi: "Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalari, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin". Professor Dmitrievning ta'rificha: "Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari yig'indisidir".

Huquqiy madaniyatga berilgan ta'riflarga kelsak, U.Tajixanov va A.Saidovlar o'zlarining Huquqiy madaniyat nazariyasi nomli kitobida huquqiy madaniyatga shunday ta'rif berishadi: "Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz". Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, qabul qilinayotgan qonunlar, har qanday normativ-huquqiy hujjatlar, huquq sohasida bo'ladigan o'zgarishlardan toliq tarzda xabardor bolib, o'rganib chiqilishi natijasida huquqiy ong va tushunib yetib unga amal qilinishi esa huquqiy madaniyatni shakllantiradi. Huquqiy madaniyatning yuksak darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim vazifa sanaladi. Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarururiy talabidir. Haqiqattan ham shunday, huquqiy immunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib keladigan yot goyalar, qarashlar, qonunga xilof xatti-harakatlar oz ta'siriga ega bo'lmay qoladi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat, inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi. "Nima yaxshi-yu nima yomonligini" tushunib yetishda esa ularga aynan huquqiy savodxonlik, huquqiy yetuklik yordam beradi.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan song aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilingan edi. Unda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati xodimlarining bilimdonligiga kop jihatdan bogliqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni ragbatlantirish, ijtimoiy - huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish va boshqa masalalar oz aksini topgan. Biroq bugungi kunga kelib zamon o'zgarishi, fuqarolarning fikr yuritish darajasi ozgarganligi sababli ushbu milliy dasturni yangilash vazifasi qoyilmoqda. Bundan tashqari 2017 -yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun, 2018- yil 13- apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya orgnlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardag " Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni va boshqa me'yoriy - huquqiy

hujjatlarning qabul qilinganligini ko'rish mumkin. Aholining qonunlarga huquqiy jarayonlarga ishtirokini va ularning xabardorlik darajasini aniqlash uchun alohida jamoatchilik fikri so'rovlari ham o'tkazilib turiladi. Misol tariqasida 2017-yilda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi" mavzusida jamoatchilik fikri so'rovi o'tkazilgan edi. O'tkazilgan so'rov ma'lumotlariga kora, fuqarolarning mutlaq ko'pchiligi, ya'ni 90,5 foizi O'zbekiston Konstitutsiyasini "mamlakatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bosh hujjat", deb hisoblaydi, unda suveren davlat va adolatli jamiyatni shakllantirishning fundamental asoslari, inson huquqlarini himoya qilish va mustahkamlashga, demokratiya va ijtimoiy adolat ideallariga, fuqarolar osudaligi va millatlararo totuvlikni ta'minlashga sodiqlik mustahkamlab qo'yilgan. Mutlaq ko'pchilik fuqarolarning - 86,3 foizining fikricha, asosiy qonun nafaqat davrning zamonaviy talablariga javob beradi, balki istiqbolga mo'ljallangandir deya fikr bildirishgan. Mazkur so'rovda aholining o'z fuqarolik huquqlari to'g'risida xabardorlik darajasi aniqlandi. "Siz o'z fuqarolik huquqlaringizni bilasizmi?", degan savolga fuqarolarning mutlaq ko'pchiligi - 92,6 foizi tasdiqlovchi ovoz berdi.[8] xuddi shunday ijtimoiy so'rovlar tez-tez o'tkazilib turilishi aholining fikrini o'rganish va ularda mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga katta yordam beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak" nomli ma'ruzasida siyosiy partiyalar, ularning parlamentdagi fraksiyalari va deputatlarning faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: "Deputatlarning ish uslubini takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar orqali: "Markaz - viloyat - tuman" tartibida ishlaydigan yangi tizimni joriy etish ayni muddao bo'lar edi",- degan fikrni bildirganlar, chunki barcha qonunlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi deputatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular xalqning orasida bo'lib barcha taklif va tavsiyalar, kamchiliklarni o'rganib chiqib xalq manfaatlaridan, xalq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qonunlarni yaratishlari shart va zarur. Bekorga "Markaz-viloyat-tuman" tartibida ishlaydigan tizim deb aytmaganlar, har qanday siyosatda bo'ladigan o'zgarish va qo'shimchalar markazdan viloyatga undan tuman va boshqa chekka hududlargacha yetib borishi xalq xabardor bo'lishi va o'z fikr -mulohazalarini yetkazishi kerak ekanligini hisobga olib bunday tizim yartish kerakligini aytib o'tganlar. Mamlakatimizda ijroga yo'naltirilgan har bir qonun, amaldagi huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalardan aholini izchil hamda keng xabardor qilishda jamoatchilik ishtiroki va faolligi muhim. Kommunikatsiya texnologiyalari, davlat organlari bilan ijtimoiy sherikchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.



2019-yilda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshilash maqsadida “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda: jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish uchun qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, deya ta'kidlab o'tilgan. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi bo'lib hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gulnora Inomjonova. “Nikoh shartnomasi-oila mustahkamligining huquqiy kafolati “ ilmiy-amaliy qo'llanma, -T.: Intellekt Ekspert, 2015, 10-b
2. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi“ Ozbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: Adolat 2011, 7-b
3. Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b

## BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QIVCHILARIDA O`QISH MALAKALARINI OSHIRISH

*Abduqaxxorova Marxabo Ibrohim qizi*

*Namangan viloyati Namangan tumani 26-umumiy o`rta ta`lim maktabining  
Boshlang'ich ta'lim fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o`qish darslarini olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, boshlang'ich sinf o`quvchilarida o`qish malakalarini rivojlantirish haqida bayon qilingan.

**Kalit so`zlar:** boshlang'ich sinf, o`qish, izohli o`qish, intonatsiya, ta`lim, ifodali o`qish, badiiy o`qish.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об использовании педагогических технологий при проведении занятий по чтению в начальных классах, развитии навыков чтения у учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** начальный класс, чтение, интерпретативное чтение, интонация, образование, выразительное чтение, художественное чтение.

**Abstract:** This article describes the use of pedagogical technologies in conducting reading classes in primary grades, development of reading skills in primary grade students.

**Key words:** primary grade, reading, interpretive reading, intonation, education, expressive reading, artistic reading.

O'zbekistonning kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'taradigan ijodkor shaxsni yaratishda boshlang'ich ta'lim poydevor vazifasini bajaradi. Boshlang'ich sinf o`qituvchisining asosiy maqsadi – o`quvchilarning bilimli, va fikrlash doirasi keng bo`lishini ta'minlash. Ularning ma'lumotkarini tahlil qilib, keng miqyosda foydalanilishiga erishish. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o`qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ilg'or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi, ta'lim berishning yangi yangi usullarni ishlashi juda nuhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda o`qitilayotgan ona tili o`qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o`qish va nutq o`stirish bo`limida o`tkaziladigan mashg`ulotlar mazmuniga; o`quvchilarni to`g`ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o`qishga o`rgatish; bolaning ona - Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o`quvchilarning bilim, ko`nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi. O`qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog`lab o`tishi uning

ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'limiy - tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan. O'qish darslar davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari yuqori sinflardagi o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardagi o'qish darslariga jiddiy e'tibor talab qilinadi. O'qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o'qituvchi asosan quyidagilarga e'tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo'ljallangan saboqni sabr toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzulishi qoyil harakatda, xayoli o'yinda bo'ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinglay olmaydilar. Shu tugayli bu sinflarda ta'lim-tarbiya vazifalari, asosan o'yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o'qish orqali amalga oshiriladi. Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning muhim metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o'qish darslarda o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha, faollashtiradi, badiiy asarlarga qiziqishini kuchaytiradi, adabiyotga havas uyg'otadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarining, ayniqsa birinchi sinfdagi o'qish darslarining maqsadi o'quvchilarda ongli, to'g'ri, ravon, tez va ifodali o'qish malakasini hosil qilishdir. O'qish darslari matematika, atrofimizdagi olam, odobnoma va boshqa fanlarga doir mavzularda beriladigan bilimlarni, mustahkam o'qib olishlarida juda katta rol o'ynaydi, chunki bola to'g'ri, ongli ravon o'qisagina matn mazmunini yaxshi anglab oladi. O'qish darsining o'zaro mahkam bog'langan to'rt asosiy tarkibiy qismi bor. Ular quyidagilardan iborat: ongli o'qish, ifodali o'qish, to'g'ri o'qish va tez o'qish. Bu qismlar orasida ongli o'qish yetakchi o'rinda turadi. Ongli o'qish jarayonida o'quvchilar quyidagilarga erisha olishlari kerak: o'qigan so'zlarining asl va ko'chma ma'nolarini, har bir gapning ma'nosini aytib bera olishlari, bo'limning mazmunini qisqacha bayon qilib bera olishlari, matnning to'liq mazmunini bayon qilib bera olishlari, o'qiganlariga nisbatan o'z munosabatlarini bildirishlari lozim. O'quvchida ifodali o'qish malakasini tarbiyalash uchun esa, uni o'qiganlarining ma'nosini to'xtamlarga rioya qilgan holda, so'z urg'ulariga ahamiyat berib, o'rtacha ovozda ta'sirli o'qishga o'rgatish va hokazolar talab qilinadi. To'g'ri o'qish malakasini o'stirish uchun shoshmasdan, harflarning o'rnini almashtirmasdan, so'z qo'shimchalarni to'liq holda orfoepiya qoidalariga rioya qilib o'qilishi lozim. O'qish tezligini oshirish uchun o'quvchilarning

ongli o'qishi katta ahamiyatga ega. Ongli o'qish – matnni to'la va aniq tushunib o'qishdir. Ongli o'qish yuzasidan qilinadigan ishlar o'quvchilarni o'qilayotgan matn mazmunini chuqur anglab olishga, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, ularning fikr va malakalarini kengaytiradi. Ongli o'qish malakasini oshirish maqsadida, darslik matnlari oxirida savol va topshiriqlar berilgan. Bu savol va topshiriqlar o'quvchilarni matn mazmunini qayta hikoya qilishga hamda o'qituvchining savollariga mustaqil ravishda javob qaytarishga va o'z hayotiy tajribalari asosida ijodiy so'zlab berishga o'rgatadi. O'quvchilar matnni qismlarga bo'lib, unga mos sarlavha qo'yishga, har bir qism mazmunini ochuvchi rasmlar chizishga savollar topa bilishga ham asta sekin o'rgatilib boriladi. Avval hajmi kichik va mazmunan soda so'ngra esa hajmi katta va mazmuni murakkabroq matnlar bilan ish olib boriladi. O'qishning ongli bo'lishiga yordam beradigan vositalardan biri bu to'g'ri o'qishdir. O'qiganda xato qilmay, so'zlarni buzmay, tovush va bo'g'inlarni tushirib qoldirmay yoki o'rnini almashtirmasdan oxirgi bo'g'inlarni ya'ni qo'shimchalarni to'g'ri talaffuz etish, orfoepiya qoidalariga rioya qilish to'g'ri o'qishni ta'minlaydi. To'g'ri o'qish malakasini hosil qilish o'qishning hamma jarayonida olib boriladi. O'qish ongli bo'lsagina to'g'ri va tez o'qish malakasi hosil bo'ladi. O'qish jarayonida bolalarni doimo o'z-o'zini kuzatib borishga o'rgatish, hatosiz, tez va to'g'ri o'qishga intilish hislarini paydo qilish, ayniqsa birinchi sinfdagi o'qish darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. O'qish tezligi ongli, ravon o'qishga bog'liqdir. O'qish tezligini oshirishga ko'p bo'g'inli va imlosi qiyin so'zlarni matndan tashqarida bo'g'inga bo'lib o'qish yordamida erishiladi. O'qish tezligini oshirish bosma va yozma harflar bilan yozilgan so'z va gaplarni ovoz chiqarib o'qishni, xor bo'lib o'qishni, ichda o'qishni, matnlarni rollarga bo'lib o'qishni ko'proq mashq qildirish yo'li bilan ta'minlanadi. Bola qancha ko'p o'qisa, o'qish tezligi shuncha ortib boradi. O'qish darsida berilgan bilimlar bolaning sinfdan tashqi vaqtlarda ko'proq kitob o'qishini yo'lga qo'yish bilan chuqurlashtiriladi. O'quvchilarning o'qish tezligini oshirish uchun dars davomida quyidagi ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi dars boshlangunga qadar doskaga bugun o'qiladigan matndagi ayrim gap va so'zlarni bosma harflar bilan yozib, ustini vaqtincha yopib qo'yadi. O'quvchilar kitoblarini ochib bugungi o'qiladigan matnni ko'zdan kechiradilar va doskada yozilgan so'z yoki gaoni matndan tez topishga harakat qiladilar. Partalarga avvaldan savol yoki topshiruv yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'qituvchining ruxsati bilan bolalar kartochkalarda yozilgan savol – topshiriqlarni o'qiydilar va matn ichidan shu savol topshiriqqa mos javob izlaydilar. “Tez o'qish musobaqasi” ni o'tkazish bolalarga alohida huzur bag'ishlaydi. Bunda har qaysi bolaning matnni bir vaqtda o'qishga boshlashi, matnni oxirigacha ma'lum vaqtda ichlarida o'qib tugatish lozimligi aytiladi. Birinchi bo'lib o'qib bo'lgan bolalar belgilab boriladi va o'qiganlarini og'zaki gapirib berishga tayyorlanib o'tiradi. Musobaqada g'olib chiqqanlar yulduzcha bilan taqdirlanadi.

Ifodali o'qish – so'zlarni to'g'ri talaffuz qilib, asar mazmunini tushunib, asarda ifoda etilgan his tuyg'uni, qahramonlarning ichki kechinmalarini, ruhiy kayfiyatlarini anglab o'qish demakdir. Bolalar ta'sirchan bo'ladilar. O'qituvchi asarni his hayajon bilan hikoya qilib berishi, uning bolalarga chuqur ta'sir etishiga erishishi, ayrim hollarda yodlarida yaxshi saqlab qolishlariga muvaffaq bo'lishi, asar mazmuni va unda ishtirok etuvchilarning ishlari ular uchun xuddi hayot qoidasidek tuyuladi. Asar mazmunini o'quvchilarga to'la anglatish uchun o'qituvchining o'zi uni ifodali o'qish va hikoya qilib berishga puxta tayyorgarlik ko'rishi zarur. Ifodali o'qish ongli o'qishning ko'rsatkichidir, chunki matnning ma'nosini anglab o'qiy olgan o'quvchi, albatta, ifodali o'qish malakalarini ham egallagan bo'ladi. Ongli o'qish ifodali o'qish malakalarini o'stirish va mustahkamlashga yordam beradi. Ongli, to'g'ri va ravon o'qish malakasi hosil qilingan sari, ta'sirli o'qish malakasi ham o'sib boradi. Ta'sirli o'qish o'quvchida his – tuyg'u uyg'otishga, voqea hodisalarni tasavvur etishga, estetik zavq bag'ishlashga xizmat qiladi. Ifodali o'qishda olib boriladigan ishlarning mazmun va mahorati 4 asosiy shart bilan izohlanadi: o'quvchilar o'qiganlari yuzasidan nimalarni aytib berishni (qanday fikrni, qanday mazmunni bayon etishni) yaxshi tushinib olishlari zarur; o'quvchilar asarda o'qiganlari yuzasidan jonli va ishonarli munosabatda bo'lishlari lozim; adabiy asar o'quvchilarning ma'lum maqsadga qaratilgan holda o'qishlarini, mazmunni bayon etishdagi moyilliklarini (fikir, misol, tabiatning tasviri) taqozo qiladi; eshituvchilarning matnni o'qiyotgan o'quvchi fikrini tushunib bilishi talab etiladi; Bularning barchasi ifodali o'qishning o'sib borishiga yordam beradi.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi. O'qish inson xayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l-yo'riqlarini oqish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutug'i asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, o'qilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq turli talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, ifodali o'qishga katta e'tibor berilgan. Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib borilyapti.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva Q. va boshqalar “O’qish ktobim” 2- sinf, T. 2006 yil
2. Abdullayeva Q., va boshqalar “Savod o’rgatish darslari” T, “O’qituvchi” 1996 yil.  
Abdullayeva Q. va boshqalar “2- sinfda o’qish darslari”, T., 2004 yil.
3. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
4. Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “O’qituvchi ” 1999 yil.
5. Bo’ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiyazamonaviy o’zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.
6. «Kitobim-oftobim» Toshkent. «O’qituvchi» nashriyoti, 2008 yil.

## БИОЛОГИЯ FANINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH

*Haydarova Navruzaxon Mirzavaliyevna*  
*Farg'ona viloyati Furqat tumanidagi Kasb –hunar maktabining*  
*Biologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Lokal darajadagi pedagogik texnologiyalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar, xalqaro baholash dasturlari asosida o'tkaziladigan test jarayoniga qo'yiladigan talablar berilgan bo'lib, keng jamoatchilik ta'lim muassasalari rahbarlari, o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalari uchun mo'ljallangan ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'z:** Lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan –Keys||, –Insert||, –Waster||, Venn diagrammasi, –Aqliy hujum||, –Kichik guruhlarda ishlash||, –Atamalar zanjir||,

–Atamalar varag'ill, tezkor o'yinlar. Didaktik o'yin texnologiyalari, Muammoli ta'lim texnologiyalari, Modulli ta'lim texnologiyalari, Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, Loyihalash texnologiyasi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevositi tarahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin.

O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasi asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. Biologiyani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning, o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan

bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan –Keysll, –Insertll,

Wasterll, Venn diagrammasi, –Aqliy hujumll, –Kichik guruhlarda ishlashll, –Atamalar zanjirll,

–Atamalar varag'ill, tezkor o'yinlar va o'yin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Biologiya kursi mazmunidagi muammoli masalalarni o'qitishda –Keysdan foydalanish yuqori samara beradi.

–Keysll – casestudies ingliz tilidan olingan bo'lib, jarayon yoki va ziyat degan ma'noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlarni o'qitishda foydalanilgan bo'lib, hozirgi paytda o'qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlarning tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ularni hal etish uchun o'quv munozaralari tashkil etiladi.

Biologiyani o'qitishda dastur mazmunidagi evolyutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali – o'simliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, – hayvonot olamining paydo bo'lishi va rivojlanishi kabi mavzularni o'qitishda foydalanish mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o'qituvchi:

dastur mazmunidagi muammoli mavzularni aniqlashi, shu mavzularni o'qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi;

dars davomida muammoli savol-topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga ko'ra yakka tartibda yoki o'quvchilarning kichik guruhlarida mustaqil ishlarni tashkil etilishini aniqlash.

o'quvchilarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o'quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo'llarini rejalashtirishi;

muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o'quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim. Dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o'rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi.

Insert – lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'quv materialidagi asosiy g'oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo'llaniladi. O'quvchilarni Insert yordamida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o'rganiladigan o'quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O'quvchilar har bir jumlaning o'rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi.

Agar jumlada berilgan ma'lumot shukungacha o'zlashtirgan bilimlariga mos kelsa,



–Bilaman||–V,agar ma‘lumotlar tushunarli va yangi bo‘lsa, u holda–Ma‘qullayman||+,agar ma‘lumotlar o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda –o‘rganish lozim||–, o‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda qiyinchilik his etsa,u holda–Tushunmadim?|| belgisini qo‘yadi. Biologiyani o‘qitishda maqsadga muvofiq ta‘sir ko‘rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirishi o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi.Didaktikada ishlab chiqilgan har qanday texnologiya o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmatqiladi,lekin quyidagi texnologiyalarda mazkur masala asosiy g‘oyani egallaydi:

Didaktik o‘yin texnologiyalari.

Muammoli ta‘lim texnologiyalari.

Modulli ta‘lim texnologiyalari.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi.

Loyihalash texnologiyasi.

Didaktik o‘yinli texnologiyasida yetakchi o‘rinlarni ta‘lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, kommunikativ funksiyalar egallab, qolgan funksiyalar ularga ilova bo‘ladi.Muammoli ta‘lim texnologiyasida aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, ijodiy faoliyatga yo‘llash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish funksiyalari yetakchi o‘rinni egallaydi, qolgan funksiyalar ularga go‘yoki bo‘ysunadi. Shu asnoda boshqa texnologiyalarning ham didaktikfunksiyalarini tahlil etish mumkin. Biologiya o‘qituvchisi darsda o‘rganiladigan mavzuning ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funksiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan foydalanishini ilmiy-metodik asosda tanlagandagina ko‘zlangan maqsadga va samaradorlikka erishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.N.Azizxo‘jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.O‘quv qo‘llanma. –T.: 2003, TDPU. N.N.Azizxo‘jayeva. Ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. Oliy o‘quv yurti o‘qituvchilari va malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun metodik qo‘llanma.T.:2007.
2. J.O.Tolipova, A.T.G‘ofurov. Biologiya ta‘limi texnologiyalari.–T.:O‘qituvchi, 2002.

## AVTOMOBILNING UMUMIY TUZILISHI

*Barkashova Gulchehra Murodali qizi*  
*Furqat tuman Kasb –hunar maktabi*  
*Avtomobil tuzilishi fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchi dars jarayonida avtomobil tuzilishi, ichki dvigatellari hamda ichki qism detallari, texnik xizmat ko'rsatish kabi tushunchalar o'quvchilarga etkazib berishi haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Avtomobil, dvigatel, shassi, avtomobil rusumlari, shinalar, kuzov.

Hozirgi vaqtda hech bir soha yo'q-ki, unda avtomobil transportidan foydalanmasa. Xususan, yo'lovchilar va yuklarni tashish hamda maxsus ishlarni bajarishda avtomobillardan foydalaniladi. Avtomobillarning birinchi avlodlari ot tortadigan aravalar shaklida ishlanib, unga oldingi g'ildirakni aylantirish uchun bug' dvigateli o'rnatilgan.

Avtomobil kashfiyotchilarning bug' dvigatelinini rivojlantirish, tako-millashtirish va uning ustida uzoq yillar moboynida tinimsiz ish olib borilishi natijasidir. Bir necha yillar davomida bug' dvigateli asosida bir qancha o'ziyurar avtomobillar yaratildi. Birinchi mukammal harakatlanuvchi bug' avtomobilini 1769-yilda fransuz harbiy injeneri **Nikol-Jozef Kyunyo** yaratdi .

Bu avtomobilida bug' dvigateli oldingi g'ildiragiga o'rnatilgan bo'lib, oldingi g'ildirak ham yetakchi ham boshqariluvchi bo'lgan. Bug' dvigatelinining bunday o'rnatilishi aravani boshqarishda qiyinchiliklar tug'dirardi, chunki g'ildirak o'ng yoki chap tomonga burilganda u bilan birga katta hajmga ega bo'lgan bug' qozoni ham buriladi.

Kyunyoning bug' avtomobili asosan yuk tashishga mo'ljallangan bo'lib ko'proq harbiy maqsadlarda (artileriya qurollari va snaryadlarni tashishda) qo'llanilgan. Avtomobilning umumiy og'irligi 4 tonna bo'lib, uning tezligi 3 tonna yuk bilan 2-4 km/soatni tashkil qilgan. Ushbu bug' avtomobilini dastlabki yuk avtomobili deyish mumkin. Avtomobil ikki ot kuchiga teng bo'lgan quvvatga qiyinchilik bilan erishardi. Qozon katta hajmga ega bo'lib, buning bosimi tez orada pasayib qolardi.

Bosimni bir maromda ushlab turish uchun har chorak soatda to'xtab olovni kuchaytirish kerak bo'lgan. Bu muolaja «kohegar» tomonidan amalga oshirilgan va ko'p vaqt talab qilar edi.

Keyinchalik Kyunyoning bug' avtomobili muzeyga topshirilgan.

Mexanik **I.P.Kulibin** 1791-yilda gollandiyalik Shamshurenkovning «o'ziyurar kolyaska» g'oyasini rivojlantirib, inson muskuli yordamida harakatga keladigan «samokatka»sini yaratdi. Rama ostida joylashgan maxovik ekipajning ravon yurishini

ta'minlaydi . Undan tashqari «samokatka»da tezliklar qutisi va tormoz qurilmasi mavjud edi.

Samokatning maksimal tezligi soatiga 30 kilometrni tashkil etib, kuzovga ikki odam joylashishi mumkin bo'lgan, uchinchi odam esa «samokat»ning orqasida turib uni oyoqlari bilan harakatga keltirar hamda ekipajni boshqarar edi. Kulibinning «samokatka»si avtomobilning yaratilishidagi muhim ixtirolardan biri bo'ldi.

XIX asrning 80-yilligiga kelib, Amerika, Buyuk Britaniya va boshqa Yevropa davlatlarida neft qazib chiqarishning keng yo'lga qo'yilishi va neftni qayta ishlash zavodlarining barpo etilishi, benzinli yoki dizel yonilg'isida ishlaydigan ichki yonuv dvigatellari bilan (ichki yonuv dvigateli – bunday dvigatellarda issiqlik energiyasini mexanik energiyaga aylanish jarayoni dvigatelning ichida amalga oshiriladi) 6

jihozlangan avtomobillarning takomillashishiga yetarli zamin tayyorlagan edi.

Germaniyadagi Reyn daryosi qirog'ida joylashgan Mangeym shahri dunyodagi birinchi avtomobilning vatani deb yuritiladi. 1885-yilning bahorida **Karl Bens** ichki yonuv dvigateli bilan jihozlangan uch oyoqli o'zi yurar aravani yaratdi .

**Daymler** Bensdan mustaqil ravishda o'zining havo bilan sovutiladigan benzinli dvigatelin yaratib, 1883-yili unga patent oladi.

Dastlab Daymler bu dvigatelni maxsus velosipedga o'rnatdi.

Velosipedning yon tomonlariga esa qulamasligi uchun roliklar o'rnatilgan. Shu asnoda Daymler tomonidan 1885-yili dunyoda birinchi mototsikl yaratildi.

Daymler Bensdan farqli ravishda 1886-yilda o'zining to'rt g'ildirakli avtomobilini yaratdi .

Fransiya-Prussiya urushi «Daymler» avtomobillarining Fransiya bozoridagi mavqeiga jiddiy putur yetkazadi. Buni bartaraf etish uchun nemis markasi «Daymler»ni boshqa nom bilan almashtirishiga to'g'ri keladi, ya'ni «Daymler» markasi – firma savdo vakilining 12 yoshli qizining qismi «Mercedes» bilan almashtiriladi. «Mercedes» avtomobili shu tariqa dunyoga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:** A.A.Akilov,A.A.Qahhorov,M.X.Sayidov.

## BIOLOGIYA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI

*Juraeva Lobar Shomuradovna*

*Toshkent shahar, Sergeli tumi 264- maktab*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologiya fanini boshqa fanlar bilan bog'liqlik jihatlari va fanlarni bog'lab o'qitishning pedagogik asoslari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** aniq fanlar, madaniy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar

Biologiya - tirik tabiat haqidagi fanlar majmuasi. Biologiya hayotning barcha ko'rinishlari: tirik organizmlar va tabiiy jamoalarning tuzilishi va funksiyasini, tirik mavjudotlarning kelib chiqishi va tarqalishi, ularning bir-biri va yotirik tabiat bilan o'zaro bog'lanishini o'rganadi. Biologiya fanlari sistemasi. Biologiya bir necha fanlardan tarkib topgan. Tadqiqot ob'yektiga binoan Biologiya botanika (o'simliklarni o'rganadigan fan), zoologiya (hayvonlarni o'rganadigan fan), odam aiatomiyasi va fiziologiyasi (odam organizmining tuzilishi va funksiyasini o'rganadigan fan), mikrobiologiya (mikroorganizmlarni o'rganadigan fan) va gidrobiologiya (suvda yashovchi organizmlar haqidagi fan)larga bo'linadi. Bu fanlar o'z navbatida birmuncha kichikroq tarmoklarga ajratiladi. Shu bilan birga Biologiya fanlarining bir-biri bilan va boshqa fanlar bilan qo'shib ketishi tufayli bir qancha kompleks fanlar shakllangan (mas, sitogenetika, sitoembriologiya, ekologik genetika, ekologik fiziologiya). Biologiya fanlarini tadqiqot metodlariga binoan ham alohida fanlarga ajratish mumkin. Maye, organizmlarning tarqalishini biogeografiya, to'qima va xujayralar tarkibini biokimyoy, fizik jarayonlar va metodlarni biofizika o'rganadi. O'z navbatida bu fanlarni ham tekshirish ob'yektlariga binoan alohida fanlarga ajratish mumkin (mas, o'simliklar biokimyosi, hayvonlar biokimyosi). Biokimyoviy va biofizik metodlar ko'pincha o'zaro qo'shib yoki boshqa fanlar bilan birgalikda yangi fanlarni hosil qiladi (mas, radiatsiyey biokimyoy, radiobiologiya). Biologik tadqiqotlardan oliigan natijalarni taxlil qilish va umumlashtirishda biometriya, ya'ni biologik mat. katta ahamiyatga ega. Tirik organizmlar tuzilishini o'rganish darajasiga binoan ham bir qancha fanlar shakllangan (mas, molekulyar biologiya, gistologiya, anatomiya, ekologiya va boshqalar). Biologiyaning bevosita amaliyot bilan bog'langan masalalarini parazitologiya, gelmintologiya, immunologiya, bionika, kosmik biologiya kabi fanlar o'rganadi

Biologik ta'lim maktab o'quvchilarning umumiy tabiatshunoslik ta'limining muhim qismidir. Biologiyani o'qitishda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'quvchilar tomonidan yetakchi g'oyaviy g'oyalarni o'zlashtirishga asoslanadi. Biologiya fanining yetakchi g'oyalari-organik dunyo evolutsiyasi g'oyalari, tirik tabiatni ko'p darajali tashkil etish, tuzilish va funksiyalarining o'zaro bog'liqligi,

biologic tizimlarning tabiiy muhit bilan aloqasi, biologik tizimlarning yaxlitligi va o'zini o'zi boshqarish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik-biologiya bo'yicha maktab kursining mazmunini, tuzilishini, asosiy tushunchalarni rivojlantirish ketmaketligini belgilaydi. Shu bilan birga biologiya fanining birgalikda o'rganiladigan tarix, fizika, kimyo, geografiya fanlari o'quvchilarga moddiy dunyoning birligi va rivojlanishini ko'rsatadi.

Biologiya va fizika o'rtasidagi fanlararo aloqadorligi: Keyingi yillarda fizika fanida erishilgan yutuqlar, jumladan, yadro energiyasi, raketsozlik, yarim o'tkazuvchanlik texnikasi va boshqa fanlarning rivoji hamda ularda yangi kashfiyotlar yaratilishi boshqa fanlar, masalan, biologiya fani rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan, jumladan optic va electron mikroskoplar kashf etilishi ham. Biologiya fani dunyoning tabiiy fizik asosini sezilarli darajada to'ldirib turadi va o'zgartiradi, uning fizikaviy jarayonlarning xususiyatlari to'g'risida umumlashtirilgan bilimlarni kiritadi. Bizni o'rab turgan zaminda har qanday o'zgarishlar yoki hodisalar yuz beradi. Mikroskoplar orqali tirik organizmlarning hujayraviy tuzilishi, hujayrada sodir bo'ladigan murakkab jarayonlarni tadqiq qilish imkoni yaratildi. Mikroskop natijasida tirik organizmlar irsiyatining tabiati, irsiyatning moddiy asosi bo'lgan DNK va RNKlarning o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari, belgilarining paydo bo'lishidagi rolini aniqlash mumkin bo'ldi. Fizikada mexanik, issiqlik, elektr va yorug'lik hodisalari o'rganiladi. Ushbu hodisalarning barchasi jismoniy deb nomlanadi. Jismoniy jarayonlar va hodisalar tirik organizmlarda sodir bo'ladi. Zoologiyada fizika bo'yicha bilimlar yordamida ular quruqlikdagi hayvonlar va suvdagi baliqlarning harakati qanday sodir bo'lishini, har xil hayvonlar tovushlarni qanday chiqarishi va idrok etishi, ularning ko'rish organlari qanday joylashtirilganligi va boshqa ko'p narsalarni tushuntiradi.

Biologiya va kimyo o'rtasidagi fanlararo aloqadorligi: Kimyo tabiiy fanlarga tegishli. U moddalarning tarkibini, tuzilishini, xossalari va transformatsiyalarini hamda shu transformatsiyalarga hamroh bo'ladigan hodisalarni o'rganadi. Kimyo, fizika va biologiya bilan chambarchas bog'liqdir. Kimyo va biologiya o'rtasida shakllangan fanbiokimyo, bioanorganik ba bioorganic kimyo. Tirik organizmlarda kimyoviy jarayonlar, moddalar tarkibi va boshqalar o'rganiladi. Kislotalar, katalizatorlar, ishqoriy va neytral muhitlar haqida bilimlar yordamida fermentlar o'rganiladi. O'pka va to'qima gazlari almashinuvi va qonni tashish funksiyasi oksidlanish haqidagi bilimlarga asoslanib o'rganiladi. Shu bilan birga, hujayraning kimyoviy tarkibi, anorganik va organik moddalarni aniqlash, oqsil, uglevod, lipidlarning o'ziga xos xususiyatlari, tarkibi, molekulyar tuzilishi, ularning hujayrada bajariladigan funksiyalarini aniqlash, modda va energiyaning saqlanish qonuni esa hujayrada modda va energiya almashinuvi tadqiq etishga zamin yaratdi.

Biologiya va matematika o'rtasidagi fanlararo aloqadorligi: Maktab darsliklarida biologiya fanidan berilib boriladigan hisob-kitob usulida yechiladigan masalalarni xal

etishda o`quvchilarga matematika fanida o`zlashtirgan bilimlari juda kerak bo`ladi, ayniqsa genetikaga doir masalalarni yechishda matematik bilimlari yetarli bo`lmasa, o`quvchi buning uddasidan chiqmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. " XXI asr pedagogikasining dolzarb vazifalari" Xalq ta'limi,2007- yil
2. D.M.Raxmonova Qarshi davlat universiteti. Zamonaviy boshlang'ich va pedagogik ta'lim: nazariy va amaliy innovatsion ta'lim tadqiqolar. Respublika ilmiy
3. Ilm-fan hayoti. -M.: Ilm, 1973

**TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
1	HOZIRGI KUNDA KOMPYUTERNING TEXNIK VA DASTURIY TA'MINOT O'RNI	3
2	FRANÇAIS	7
3	МЕХАНИЗМ ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ПРОВОДИМОСТИ	11
4	“O'TKAN KUNLAR” ROMANIDA MILLIY TAROVAT	15
5	KONSTRUKTIV ELEMENTLARNING ESKIRGANLIK DARAJASINI BAHOLASH.	19
6	BINOLARNING ORAYOPMALARI VA ULARNING KONSTRUKTIV YECHIMLARI.	22
7	INSHOOTLARNING KONSTRUKTIV TEXNIKAVIY HOLATINI BAHOLASH VA LOYIHALASHGA TAYYORLASH.	25
8	BINO VA INSHOOTLARNI MODERNIZARSIYA QILISH	28
9	ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ.	31
10	МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ УДАРООПАСНОСТИ МАССИВА ГОРНЫХ ПОРОД В ПОДЗЕМНОМ РУДНИКЕ	34
11	ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА	39
12	DEVORLAR VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR	44
13	BINO VA INSHOOTLAR HAQIDA TUSHUNCHALAR. BINOLAR VA ULARGA QO'YILGAN ASOSIY TALABLAR.	48
14	RESPUBLIKADAGI HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI	51
15	O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA QO'LLANGAN AYRIM FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI HAQIDA	55
16	AVVALGI VA HOZIRGI MATEMATIKA	58
17	KIMYOVIY MODDA	64
18	BINOM FORMULASI	69
19	FIZIKA O'QITISHDA OLIMPIADA MASALALARINING O'RNI VA ROLI	75
20	QATTIQ JISM ELEKTRONLAR NAZARIYASI ELEMENTLARI	81
21	СОВРЕМЕННЫЕ ОБУЧАЮЩИЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ПРИМЕРЕ ИЗУЧЕНИЯ РОДИТЕЛЬНОГО ПАДЕЖА	87
22	К ТЕОРИИ СЛОЖНОПОДЧИНЕННЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРИНЦИПЫ КЛАССИФИКАЦИИ	93
23	ИЗУЧЕНИЕ БЕСПРИСТАВОЧНЫХ ГЛАГОЛОВ ДВИЖЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ГРУППЕ	99
24	МЕТОДЫ, ПРИЕМЫ И НАГЛЯДНЫЕ СРЕДСТВА КАК КОМПОНЕНТЫ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ	104

25	THE SYSTEM OF APPLYING STYLIZATION TECHNIQUES IN MUSICAL CULTURE AND ITS EFFECTIVENESS.	111
26	TARJIMA JARAYONIDA TARJIMONNING MAHORATI	115
27	LAND REFORM ON THE REGULATION OF LAND USE	118
28	АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО В НАЦИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.	128
29	THE LIFE OF ABU RAYHAN BERUNIY, THE GREATEST SCIENTIST IN ASIA	134
30	ИЗ ОПЫТА ИЗУЧЕНИЯ ВИДОВ РУССКОГО ГЛАГОЛА	137
31	COMMUNICATIVE APPROACH TO TEACHING ENGLISH	141
32	“YANGI O’ZBEKISTONNING YOSHLARGA VA TA’LIM TIZIMIGA OID DAVLAT ISLOHATLARI VA UNING MAZMUN-MOHİYATI”	144
33	MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	147
34	INFORMATIKA VA KOMPYUTER GRAFIKASI	152
35	JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	155
36	JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH	158
37	BOSHLANG’ICH SINFI O’QUVCHILARIDA O’QISH MALAKALARINI OSHIRISH	162
38	BIOLOGIYA FANINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O’QITISH	167
39	AVTOMOBILNING UMUMIY TUZILISHI	170
40	BIOLOGIYA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI	172



***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:  
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:  
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:  
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2022-г.





OPEN  ACCESS

